This article presents the characteristics that describe a society based on the digital economy. In the process of forming a digital society, attention is paid to the fact that the problems of social justice do not lose their relevance. The organizational and functional features of its implementation were considered, in particular, the mechanisms for combining human interests and the goals of society.

The authors expressed their views on the identification of the difference between the philosophical and sociological interpretation of social justice, as well as on the relationship of the concepts of equality and freedom with the phenomenon of justice. The philosopher of antiquity Aristotle, as well as European sociologists of the new era, in particular, a major representative of modern sociology P. Burdie, relied on his thematic views, were analyzed. While the authors consider the role of the digital economy in the economy and the impact on social life on a global scale, they tried to justify the fact that the digital economy itself does not solve problems of social justice, but creates certain opportunities. At this point, the authors drew conclusions based on the data of their survey.

Keywords: technological era, communications, society, digital economy, digital society, discrimination, equality, social justice, technocracy, democracy.

KIRISH

Ijtimoiyadolatni amalga oshirish har qanday jamiyatda murakkab kechadi. Bu vazifa doimo aniq sotsial vaziyat bilan bog'liq. Xo'sh, buni hal etishning tashkiliy-funksional xususiyatlari nimalardan iborat? Ijtimoiyadolat prinsiplari inson manfaatlari va jamiyat maqsadlarini birlashtira

olandimi?

Birinchi navbatda, ijtimoiy adolatning falsafiy va sotsiologik talqini o'rtasidagi farqni aniq chegaralab olish zarur. Gap shundaki, hozirgacha ijtimoiy adolat tushunchasi asosan falsafiy jihatdan izohlanib kelingan bo'lib, uning alohida sotsiologik konsepsiyalari deyarli uchramaydi. Shu jihatdan bu muammo sotsiologiyada mavjud bo'lgan turli nazariyalar va konsepsiyalarni integratsiyalash doirasida hal etilishi mumkin.

Sotsiologiyada shuningdek tenglik va erkinlik tushunchalari adolat fenomeni bilan bog'liq kategoriylar sifatida qaraladi. Odamlar o'rtasidagi aynan tenglik-tengsizlik munosabatlariga qarab adolat nisbatini aniqlash oson. Masalan, teng ish uchun teng haq va teng bo'limgan ish uchun teng bo'limgan haq to'lash adolatlari bo'ladi. Boshqa tomondan, teng bo'limgan ish uchun teng haq to'lash va teng ish uchun teng bo'limgan haqni to'lash adolatsizlik deb baholanishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ma'lumki, adolatni nazariy tadqiq etish asoslarini antik davrda Aristotel yaratgan. U adolatning ulashuvchi va taqsimlovchi shakllarini ajratib ko'rsatib, ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik bir narsa emasligini, ba'zan o'zaro zid tarzda kelishi mumkinligini asoslab bergen edi [1, – B. 376-344].

Yangi davrga kelib, yevropalik jamiyatshunos olimlar, xususan E.Dyurkgeym birdamlik va konsensus tamoyillarini adolatning asosi deb talqin qilgan edi [4]. Ijtimoiy adolat va tenglik muammolariga oid asosiy g'oyalar, XVIII asr faylasuflari va jamiyatshunoslari tomonidan ijtimoiy shartnoma nazariyasi doirasida (T.Gobbs, J.J.Russo), liberalizm talqinida (J.Lokk), qonunlar rakursida (Monteskye) keng ijtimoiy kontekstda tahlil qilingan edi. So'ngra, XIX asr mutafakkirlari tomonidan jamiyatning sotsiologik tahlili va nazariyalarini prinsiplari (O. Kont, K.Marks, M. Veber, N. Berdyayev va b.) nuqtayi nazaridan turib ijtimoiy adolat konsepsiyasini muhim sotsial qadriyat sifatida talqin qilindi [6, – B. 31-41]. Adolat g'oyasi shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy tartib va asosiy qadriyatlarning institutsionallashuvi bilan bog'liq tarzda ifodalangan bo'lib (G.Spenser, J.Mill, I.Bentam), bunda ijtimoiy adolatning iqtisodiy mazmuni M.Veber tomonidan [4], shuningdek uning jamiyat hayotiga strukturali-funksional tarzdagi ta'siri mexanizmlari T.Parsons asarlarida tahlil qilindi.

Ma'lumki, mashhur sotsiolog P.Burdye o'z asarlarida ikkita muhim sotsiologik yondashuvni – strukturalizm va konstruktivizmni birlashtirgan edi. Uning nazariy tadqiqotlarining markaziy tushunchalari "odat" va "ijtimoiy makon"dir. Burdyening fikricha, ijtimoiy muhit habitusni – shaxslarning orttirilgan moyilliklari tizimini keltirib chiqaradi, keyinchalik ular haqiqatni qurish va ijtimoiy amaliyotlarni takrorlash uchun foydalanganadilar. P.Burdye o'z qarashlarining mazkur platformasi asosida sotsiolog ijtimoiy tengsizlikni o'rganishi va adolatlari jamiyat qurish dasturini taklif qilishga harakat qilishi kerak deb hisoblaydi [3]. Demak, jamiyat ijtimoiy munosabatlar jarayonida adolat qadriyatini tarbiyalashi va qo'llab-quvvatlashi kerak. Ijtimoiy makon, Burdyening fikriga ko'ra, insonlarning o'zaro ta'sir qiladigan, ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiradigan muhitidir.

ASOSIY QISM

Jamiyat hayotini isloh qilishda ijtimoiy adolatni muhim tamoyil sifatida hisobga olish haqida so'z yuritar ekanmiz, hozirda uni amalga oshirish zaruriyati va imkoniyati masalalari dolzarblashayotganligini ta'kidlash zarur.

Raqamli iqtisodiyot kerakli infratuzilma va texnologiyalar vositasida nafaqat tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilaydi, ortiqcha mablag'larni kamaytiradi, balki korrupsiya bilan kurashishda ham samarali hisoblanadi. Zero, boshqaruv jarayonlari, qonunchilik va ijtimoiy soha kompyuterlashtirish va raqamlashtirishga o'tkazilsa, odamlarning turmushi sezilarli yaxshilanadi.

Raqamli iqtisod ishlab chiqarish majmui bo'lib, ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda insonga xizmat qiluvchi infrastrukturani ta'minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tizimidir, bunda ma'lum bir programmalashgan tartibot amal qiladi. Aynan texno-raqamli shakldagi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq tizimli iqtisodiy munosabatlar shakllanishi to'plami raqamli iqtisodning mohiyatidir[5, – B. 178].

Raqamli iqtisodiyot o'z-o'zidan ijtimoiy adolat muammolarini hal etadimi? Yo'q, albatta.

Gap shundaki, raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarish usulini va ishlab chiqarish munosabatlarining yangi tizimini o'rnatmaydi. U tovar-pul munosabatlarini bekor qilmaydi. Shunisi ham borki, u kapital tomonidan mehnatni ekspluatatsiya qilish munosabatlarini olib tashlamaydi[8, – B. 28]. Raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'tish davrida iqtisodiyotning ichki mazmuni o'zgarmaydi, faqat ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibi va tuzilishi, infratuzilma va axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi o'zgaradi. Demak, raqamli bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiyadolat muammolari bus-butunligicha qoladi. Ammo uadolatni amalga oshirishni yengillashtiradi. Ammo qanday qilib bunga erishish mumkin?

Avvalo, raqamli inqilob asosan bozor va texnologik yangiliklar, ishlab chiqarish faoliyati va xizmatlarining aksariyatini axborot texnologiyalari orqali yaxshilash bo'lib, insonni to'la texnika bilan bog'liq murakkabliklardan ozod qiladi. Aytish mumkinki, insonni mehnatdan ozod qilish yanada osonlashadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlar, katta hajmlarni qayta ishslash va tahlil natijalarini qo'llagan holda, an'anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'ladi. Natijada, raqamli platformalardagi katta o'sishning hayotimizga ta'siri kuchayadi. Instagram, Facebook, Twitter va boshqa mashhur saytlar endi iste'molchilarga ta'sir ko'rsatib, raqamli sektordagi kompaniyalar birinchi o'ringa chiqadi va iqtisodiyotni raqamli resurs bilan ta'minlaydigan o'sish nuqtalariga aylanadi. XX asr boshlarida jahon xo'jaligining asosiy dvigatellari neft, metallurgiya va mashinasozlik korxonalari bo'lgan bo'lsa, bugungi kun uchun iqtisodiy tiklanish global raqobatbardoshlikning oshishi va aholi uchun turmush sharoitining yaxshilanishi bilan bog'liqidir.

Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, programmalashtirish, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni hayotimizga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangi bosqichga ko'chirish deganidir. Shu ma'noda u o'ziga xos qulayliklarni vujudga keltiradi. Masalan, to'lovlar uchun xarajatlar pasayishi kuzatiladi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira, vaqt va boshqa resurslar tejaladi). Bunda mahsulotlar va xizmatlar haqida ko'proq va qisqa vaqt ichida ma'lumot olinadi.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyot insonlarning yashash tarzini sezilarli darajada rivojlanadiradi, aslida ham bu uning asosiy maqsadidir. Gap shundaki, raqamli iqtisodiyot poraxo'rlik va "qora iqtisodiyot"ning asosiy dushmanidir. Chunki, raqamlar hamma narsani cheklaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda axborotni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda qandaydir ma'lumotni yashirish, shubhali bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat to'g'risida to'liq axborot bermaslik mumkin bo'lmay qoladi. Kompyuter hammasini ochiqlab qo'yadi, yolg'on va qalbaki ishlarga yo'l bermaydi. Natijada "iflos pullarni" yuvish, mablag'larni o'zlashtirish, bekorchilikka maqsadsiz sarflash, o'zgartirib ko'rsatish imkonи bo'lmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal pullar oqimini yuqori bosqichga ko'taradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, byudjet taqsimoti ochiqlanadi.

Beshinchidan, raqamli iqtisod ma'lumotlariga tayanib, tadbirdorlik faoliyatiga oid ma'lumotlar bazasi ochiqlanadi. Tadbirkorlar uchun katta qulayliklar yaratilishi bilan birgalikda, barcha aholi uchun shaffoflik muhiti yaratiladi.

Xullas, raqamli iqtisodiyotni yuqori darajaga ko'tarish ko'plab ko'plab qulayliklar va ortiqcha vaqt sarflashdan xalos etishi tufayliadolat maqsadlariga xizmat qiladi. Hozirda, dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshib bormoqda. Masalan, bu ko'rsatkich AQSHda 10,9 %, Xitoyda 10 %, Hindistonda 5,5 % ni tashkil etsa, O'zbekistonda atigi 2,5 %ga teng [9]. Turli tadqiqotlar natijalari bo'yicha, raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog'i 4,5 % dan 15,5 % gachani tashkil etadi [10].

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot ijtimoiyadolatni ta'minlashda quyidagi ayrim muammolarni ham tug'dirishi mumkin:

- 1) fuqarolarning shaxsiy makonini Internet tarmog'idagi harakatlarini kuzatish orqali buzish ehtimoli;
- 2) ish o'rnlari sonining kamayishi xavfi;
- 3) grajdamlarning qo'rquv asosida kichik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, o'rtacha

xarid hajmini ko‘tarishga tayyor emasligi. Chunki odamlar hali informatsion programmalarda sun’iy intellekt ishlashiga shubha bilan qaraydilar.

Ijtimoiy siyosatni yuritishda inson kapitalini rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bunda 2017-yildan boshlab xalq qabulxonalarining joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq qabulxonalarini faoliyat yurita boshlaganidan boshlab bugungi kungacha 3,6 milliondan ortiq insonlarning Prezidentga murojaatlari qabul qilinib, ularda turmush darajasi, aholi bandligi, uy-joy, sifatli davlat xizmatlari, sog‘liqni saqlash va ta’lim bilan bog‘liq ko‘plab muammolar aks etgan. Ko‘tarilgan masalalarning aksariyati **aholining kam ta’milangan va zaif qatlamlariga yordam ko‘rsatish** bilan bog‘liqdir.

Ma’lumki, ijtimoiy adolat prinsiplarini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnomalari mazkur sohadagi tadqiqotlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy adolatni ta’milashning ustuvorligi masalasini tadqiq qilish maqsadida mualliflar tomonidan 2023-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrining 5 ta tumanida "Ijtimoiy adolat prinsiplari" mavzusida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari e’tiborga molikdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning jins ko‘rsatgichi bo‘yicha 88 nafari erkak jinsiga mansub, 92 nafari ayol jinsiga mansub respondentlar tashkil etdi. So‘rovnoma ishtirok etgan respondentlarni yosh ko‘rsatgichlari bo‘yicha teng taqsimlanishiga erishildi, ya’ni 18-35 yoshdagisi yoshlar kategoriysi da 57 nafar, 35-50 yoshgacha o‘rta yoshlilar 63 nafar hamda 60 nafar 51-75 yoshgacha katta yoshdagisi respondentlar so‘rovnoma qatnashdilar. Respondentlarning eng katta qismini, ya’ni 34,7% ini oliy ma’lumotga ega bo‘lganlar, tugallanmagan oliy ma’lumotga ega bo‘lganlar 31,2% ni tashkil etmoqda, o‘rta ma’lumotlilar 32,2%, to‘liqsiz o‘rta ma’lumotlilar 1,4% ni tashkil qildi. Respondentlarning ichida oila qurbanlar 77,7% ni, oila qurmaganlar 16,6% ni, oilasi buzilgan respondentlar 3,4% ni, bevalar 1,6% ni va javob berishga qiynalaman deb fikr bildirgan respondentlar 0,8% ni tashkil etdi.

"Ijtimoiy adolat nima?" degan savolga respondentlarning 18% i "bepul sifatli tibbiy xizmat, hamma uchun arzon ta’lim", 16% i – "xalq farovonligi, oddiy odamlar uchun munosib maosh va pensiyalar, arzon uy-joylar", 15%i – "aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, yoshlar, bolalar) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi" deb tushunishlari aniqlandi. Biroq, respondentlarning 5 % i "ijtimoiy adolat yo‘q narsa" deb ta’kidlashi ijtimoiy adolat tamoyillari buzilishi holatlariga nisbatan o‘ziga xos munosabat deyish mumkin.

Sotsiologik nuqtayi nazardan olib qaraganda, adolat tushunchasi ham huquqiy, ham axloqiy mazmunga ega bo‘lganligi bois, respondentlarga mamlakatimizda ijtimoiy adolatning real mavjudligiga oid savol ham berildi. Javoblarga ko‘ra, respondentlarning 39%i yurtimizda ijtimoiy adolatning borligini, 24%i adolatning yo‘qligini ta’kidlaganlar. 25% respondentlarning adolatning qisman borligini ta’kidlaganliklarini ikkala pozitsiya uchun ham tegishli holat deb baholash mumkin. Shu ma’noda deyarli 64% respondentlar ushbu masalada ijobjiy qarashga ega bo‘lishini mantiqan keltirib chiqarish mumkin bo‘lsa-da, biroq 49% respondentlar buning aksini nazarda tutgan bo‘lishlari mumkinligini ham aniqlash qiyin emas. Zero, qisman bor narsa, tabiiyki, qisman yo‘q narsani ham anglatadi.

Yurtimizdagи islohotlarni baholash uchun taqqoslash usuli qo‘llanildi. Respondentlarga "35-yil ilgari o‘tgan hayotingizni hozirgi holatingiz bilan solishtirganda ijtimoiy adolat siyosatida farq bormi?" degan savol bilan murojaat qilinganda, so‘rovda qatnashganlarning 35% i "Albatta, hozirgi siyosatimizda ijtimoiy adolat prinsipi asosida yondashuv mavjud" degan fikrda bo‘lsa, 23%i esa "Oldinlari ijtimoiy adolat bor edi hayotimizda, faqat u insonlar orasida, mentalitetimizda edi. Siyosiy jihatdan katta adolatsizlik mavjud edi" degan fikrni bergenlar. Shu bilan birgalikda, 6% respondentlar 35 yil ilgarigi siyosatda ijtimoiy adolat kuchli bo‘lgan, degan fikrda qolganlar.

Respondentlardan "raqamli iqtisod", "raqamli jamiyat" tushunchalarini qanday izohlashi va qay darajada tushunishlarini aniqlash uchun savol berildi. Ushbu savol yuzasidan "raqamli dunyo – bu insoniy hissiyotlarning, emotsiyonal taassurotlarning yo‘qolib borishi degani" haqidagi fikrni 17% respondent ta’kidagan, 15% respondentlar esa "tashkilotlarga borib navbatlarda turish yo‘q, uyda o‘tirib ko‘p hujjatlarni rasmiylashtirish qulayliklari", "shaffoflik, raqamlarni, mablag‘larni oson kuzatib borish" degan fikrni ilgari surganlar.

Tan olish kerakki, ijtimoiyadolatni ta'minlash borasida ijtimoiy-siyosiy vaziyat har doim ham optimal emas. Bu muammoning yechimlarini izlashning ilmiy mexanizmlarini yaratishni kun tartibiga qo'ymoqda. Masalaning murakkabligi yana shundaki, ijtimoiyadolat avvalambor insonning ongida shakllanadi va shundan keyingina obyektiv voqelikda mavjud bo'lishi mumkin bo'lган baholovchi kategoriyadir. Aslida ijtimoiyadolatga nisbatan faol munosabat talab etiladi, chunki ijtimoiyadolatning mavjudligini insonning jamiyatdagi ijtimoiy harakatida ko'rish mumkin. Bir qator sotsiologlarning fikricha, ijtimoiyadolat tushunchasini to'laqonli ilmiy asoslash mumkin emas.

Zamonaviy jamiyat qanchalik texnologik mazmun kasb etmasin, ijtimoiyadolat g'oyasi har qanday jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-ma'naviy modellari orasida eng muhimlaridan biri bo'lib qolaveradi. Odamlarning ma'lum bir qismi zamonaviy jamiyatning adolatli tuzilishga ega bo'lishiga ishonmasliklari mumkin, ammo ularning eng muhim orzularidan biri adolatli jamiyatda yashash bo'lib qolmoqda. Albatta, adolatning umumlashtirilgan tamoyillari turli ijtimoiy guruuhlar uchun umumiyyidir. Shunga qaramay, ushbu umumiyy tamoyillarni muayyan hayotiy vaziyatlarga va turli ijtimoiy guruuhlar vakillarining o'zaro munosabatlariga qo'llash ko'pincha kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar va hatto nizolarga olib keladi. Ijtimoiy guruuhlar o'rtasida aniq vaziyatlarda adolat va adolatsizlikni baholashdagi tafovutlar shunchalik kattaki, kamdan-kam hollarda kelishuvga erishiladi. Zero, adolatli qarorlar kam uchraydi.

Respondentlarga berilgan "Sizningcha, ijtimoiyadolat orqali qanday yutuqlarga erishish mumkin deb o'ylaysiz?" degan savolga ularning 26% i hammaning qonun oldida tengligi, 21% i hammaning turmush darajasi taxminan bir xil bo'lishi (boy ham, kambag'al ham bo'lmanan jamiyat) deya, 19% esa jamiyat har bir a'zosining mavqeyi uning mehnati bilan belgilanishi, deb javob bergenlar. Shu bilan birgalikda "jamiyatda hech qachon ijtimoiyadolat bo'lmanan va bo'lmaydi ham" degan fikrda qoluvchilar 3% ni tashkil etgan.

XULOSA

Adolat nafaqat ijtimoiy tushuncha, balki shu paytning o'zida ijtimoiy xulq-atvor tamoyili hamdir. Shu tufayli uni sotsiologik tadqiq etish murakkab sanaladi. Shunga qaramay, ijtimoiyadolat muammolarini doimiy va maqsadli sotsiologik o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda tadqiqot gipotezalari uning nazariy modellari asosida shakllantiriladi. Shuningdek, ijtimoiyadolatning axloq, qonun, ijtimoiy tengsizliklar, shuningdek ijtimoiy xususiyatlarga asoslangan kamsitishlar, ijtimoiy ishonchszilik darajasi bilan bog'liqligi tufayli turli ilmiy farazlarni shakllantirish va sinab ko'rish imkonini beradi.

Qolaversa, ijtimoiyadolatnina nafaqat sotsiologik fanlar doirasida, balki fanlararo tadqiq qilish ham zarur. Bunday yondashuv bozor iqtisodiyoti, xususan raqamli jamiyatda an'analar va stereotiplarning o'rni haqidagi farazlarni shakllantirish va sinab ko'rish imkonini beradi. Bunday farazlar esa o'z navbatida boshqaruv amaliyoti, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatda innovatsiyalarni kengroq joriy etish uchun foydal bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Аристотель. Политика. Сочинения: В 4 т. – М.: Мысль, 1983. – Т. 4. – С. 376–644.
2. Вебер М. Избранные произведения: Пер. с нем./Сост., общ. ред. и послесл. Ю. Н. Давидова; Предисл. П. П. Гайденко. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.
3. Bourdieu, Pierre. La Distinction: critique sociale du jugement. — Р.: Minuit, 1979. — 670 р.
4. Дюркгейм, Э. Социология. Её предмет, метод, предназначение / Пер. с фр., составление, послесловие и примечания А. Б. Гофмана. – М. : Канон, 1995. – 352 с.
5. Зубарев А.Е. Цифровая экономика как форма проявления закономерностей развития новой экономики / А.Е. Зубарев // Вестник Тихоокеанского государственного университета. 2017. — №4 (47). — С. 177-184.
6. История теоретической социологии. В 4-х т. Т. 1. / Отв. ред. и составитель Ю.Н. Давыдов. – М.: Канон, 1997. — 496 с.
7. Конт О. Дух позитивной философии (Слово о положительном мкшлении) / Перевод с французского И. А. Шапиро. – Ростов-на-Дону : Феникс, 2003. – 176 с.; Милл, Дж.Ст. О

-
- свободе // Наука и жизн. – 1993. – №11-12. – С. 10-15, — С. 21-26.; Спенсер, Г. Справедливость. – СПб. : Тип. А.А. Пороховщикова, 1898. – 234 с.
8. Якутин Ю.В. Российская экономика: стратегия цифровой трансформации (к конструктивной критике правительственной программы “Цифровая экономика Российской Федерации”) / Ю.В. Якутин // Менеджмент и бизнес-администрирование. 2017. — №4. — С. 27-52.
9. <https://mfz.uz/press/news/2020/02/233/45/>
10. Xalq so‘zi gazetasi -40-2020-02-25

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xusanova Xayriniso

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sots.f.d (DSc)
e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

Hamrayeva Vasila

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINING SOTSIOLOGIK TAHLILI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar qo'llanilish samaradorligi sotsiologik tahlil qilingan. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy ko'mak pullarini ajratish tizimi avtomatlashtirilib, ushbu jarayonda mutasaddi shaxslarning ishtiroki minimallashtirish yo'llari ko'rsatilgan. Elektron tizim ushbu sohada suiste'molliklarning oldini olishda raqamli iqtisodiyot yutuqlariga tayangan munosib yechim ekanligi asoslangan. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy elementlari bo'lgan manfaatdor vazirlik va idoralar o'rtaida to'siqlarsiz axborot hamda zaruriy ma'lumotlarni almashish tizimi ishga tushirilish ijtimoiy zarurat ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash mezonlari, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ustuvorlik daromadi nisbatan pastroq bo'lgan oilalarga berilish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ilg'or modellar, liberal yondashuv, ijtimoiy risk, ijtimoiy ko'mak, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy davlat, subsidiya, dotatsiya.

Хусанова Хайринисо

Доцент Национального университета Узбекистана, д.с.н (DSc),
e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

Хамраева Васила

Студентка Национального университета Узбекистана

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье проведен социологический анализ эффективности применения инновационных подходов к совершенствованию системы социальной защиты. Отмечено, что автоматизирована система выявления социально незащищенных слоев населения и выделения им денег на материальную поддержку, намечены пути минимизации участия должностных лиц в этом процессе, поскольку электронная система является достойным решением, основанным на достижениях цифровой экономики в предотвращении злоупотреблений в этой области. Отдельно отмечена

социальная необходимость внедрения системы беспрепятственного обмена информацией между заинтересованными министерствами и ведомствами, являющимися структурными элементами системы социальной защиты населения. При назначении и выплате социальных пособий и материальной помощи малообеспеченным семьям через информационную систему "Единый реестр социальной защиты" приоритет отдается семьям с относительно низким доходом.

Ключевые понятия: социальная защита, продвинутые модели, либеральный подход, социальная нестабильность, социальные риски, социальная помощь, социальная работа, социальная страхование, социальная справедливость, социальное государство, социальное благосостояние, субсидия, дотация.

Khusanova Khayriniso

Associate professor of the National University of Uzbekistan, (DSc)

e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

Xamrayeva Vasila

Student of National University of Uzbekistan

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM

ANNOTATION

The article presents a sociological analysis of the effectiveness of innovative approaches to improving the social protection system. The system of identifying socially vulnerable segments of the population and allocating money to them for material support has been automated, ways to minimize the participation of officials in this process have been outlined. It is based on the fact that the electronic system is a worthy solution based on the achievements of the digital economy in preventing abuse in this area. The social necessity of introducing a system of unhindered exchange of information and necessary information between interested ministries and departments, which are structural elements of the social protection system was separately noted. Priority for the appointment and payment of social benefits and material assistance to low-income families through the information system "Unified Register of Social Protection" is given to families with relatively low income.

Key concepts: social protection, advanced models, liberal approach, social instability, social risks, social assistance, social work, social insurance, social justice, welfare state, social welfare, subsidies.

KIRISH

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamонавиј axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etishning yagona tizimini yaratish maqsadida “Ahолига давлат ижтимоий хизматлари ва юрдамни тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бо‘йича ошарилайотган инноватсиянинг ўндашувлар давлат бoshqaruvi samaradorligini oshirish bilan birga давлат ва юмият о‘ртасида аks aloqaning intensivlashuviga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, g‘arb davlatlari, xususan, AQShda elektron hukumat g‘oyasi XX asrning 90-yillarida shakllandi. XXI asrga kelib elektron hukumat AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Norvegiya, Singapurda to‘liq qo‘llanildi. Xususan, Singapurda 1999-yilda ilk bor “e-citizen Centre” elektron hukumat portalı ishga tushirildi. Server dastlab 9 ta qismdan iborat bo‘lib, unda registratsiyadan o‘tgan fuqarolar hattoki uydan chiqmasdan nikoh tuzishlari, qonunbuzarlik sodir etilganda tegishli organlarga xabar jo‘natishlari mumkin edi. Janubiy Koreyada 1995-yilda “Koreya axborot infrastrukturasi” ishga tushirilib, unda personal ma’lumotlar bazasi, mudofaa sektori, davlat xavfsizligi, moliya, bank sektori, ta’lim va ilm-fan sektori ish yuritdi. Bu portal asosida 2001-yilda Koreyada “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun ishlab chiqilib, ushbu qonun hujjati bu borada dunyo miqyosida ilk ishlab chiqilgan qonunchilik hujjati bo‘ldi va mamlakatda qisqa fursatda elektron hukumat portalı ishga tushirildi [2,

– С. 56-61]. Qarorda belgilab qo‘yilganidek, 2021-yil 1-yanvardan boshlab davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy xizmatlari hamda yordam taqdim etishda fuqarolardan 11 ta hujjat va ma’lumotnomma talab etilishiga chek qo‘yildi. Eng muhim, ular ijtimoiy yordamning 7 turidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yagona reyestr uchun esa muhtoj oila a’zolarining bor-yo‘g‘i pasporti, tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (bolalar uchun) va nikohni qayd etish to‘g‘risida guvohnoma (mavjud bo‘lganda) nusxalari talab etiladi. Ushbu hujjatlar mahalla fuqarolar organlariga taqdim etiladi va bunda ushbu hujjatlarning qabul qilinmasligiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu tizimning oldingi ijtimoiy xizmatlardan asosiy farqi – inson omilining ishtiroti juda kam va ushbu tizim orqali suiiste’molliklarning oldini olishning o‘ziga xos mexanizmi sifatida davlat byudjetidan maqsadli tarzda ajratilayotgan ko‘mak pullarini maqsadli hamda manzilligi ta’milnmoqda [3, – P. 969-972]. Endilikda mahalla vakillarida ariza qabul qilish bo‘yicha hech qanaqa chegara yo‘q. Agarda, nafaqa olish huquqi bor, deb topilgan oilalar soni haqiqatda ajratilgan mablag‘larga nisbatan ko‘p bo‘lsa, u holda dastur avtomatik ravishda eng muhtojlarni tanlab, qolganlarni keyingi oyga o‘tkazadi.

ASOSIY QISM


O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashgan platformasi orqali “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi bilan idoraviy axborot tizimlari va resurslari o‘rtasida sifatli hamda to‘laqonli axborot almashinuvini ta’milnmoqda. Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bosqichma-bosqich ‘Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining funksional imkoniyatlarini kengaytirib borilmoqda. “FHDYOning yagona elektron arxivi” axborot tizimida ariza beruvchining oila a’zolari tarkibini aniqlash funksiyasi joriy etilganidan so‘ng “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi tomonidan ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun arizalarni elektron tarzda onlayn rejimida qabul qilinishini ta’milnmoqda.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi egasi va foydalanuvchisi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisoblanadi. Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatida tasdiqlangan shtat birliklari doirasida fuqarolarning “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali ijtimoiy nafaqalarni tayinlashga oid murojaatlari va shikoyatlarini qabul qilish bo‘yicha shubasi tashkil etildi. Hozirgi kunda elektron reyestr ishga tushirilib, mazkur tizim orqali 30 turdag‘i ijtimoiy xizmatlar elektron ravishda amalga oshirilishi uchun zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya Jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yil 1-mart holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 3 864 831 nafari, ya’ni 11,2 foizi pensiya olmoqda. Shundan 2 870 862 nafari (74,3%) yoshga doir pensiya, 390 884 nafari (10,1%) nogironlik pensiyasi, 192 577 nafari (5,0%) boquvchisini yo‘qtgan pensiya oluvchi oilalar va 410 508 nafari (10,6%) nafaqa oluvchilardir [4]. Ta’kidlanishicha, ayni paytda pensiya va nafaqa oluvchilarning soni 2022-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 147,2 ming nafarga, ya’ni 4 foizga oshgan. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining tub isloh qilinishi asosida takomillashtirilish xususiyatlarini aniqlash maqsadida “Ijtimoiy himoya tizimida raqamli islohotlar amalda qanday natijalar berdi?” ochiq savoli bilan ekspertlarga murojaat etdi [5]. Ushbu savolga berilgan javoblarning qayta ishlanishidan olingan xulosalarga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan ekspertlarning 34%‘i ijtimoiy himoya tizimining raqamli texnologiyalar asosida isloh qilinishi aholi orasida muhtojlikni aniqlashda ijtimoiy adolat tamoyillarini o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatdi. 29% fikriga ko‘ra, ushbu tizimda hujjatbozlik va ortiqcha chiqimlar, korrupsiya kabi suiiste’molliklar bartaraf etildi. Zero, biz ijtimoiy himoya tizimining oldingi modellaridan bilamizki, muhtoj oila moddiy yordamni olishi uchun zaruriy sanalgan bir necha nomdagi hujjatlarni to‘plab, topshirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan. Bunda hattoki, hujjatlardan nusxa olish, yo‘l kira xarajatlarini topa olmagan kishilar moddiy yordam so‘rab murojaat eta olmagan. 27% holatda ekspertlarning fikriga muvofiq, ushbu tizimdag‘i davlat ijtimoiy kafolatlari ko‘lami sezilarli ravishda kengaytirildi. 10% holatda ekspertlar tizimning raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilganligini qayd etib o‘tgan. Ushbu islohotlarning samaradorlik omillaridan biri sifatida ko‘rsatilayotgan moddiy yordamning manzilli va maqsadli ekanligi ta’milnmoqda. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining ishslash xususiyatlarini sotsiologik o‘rganishda ekspert so‘rovi metodidan foydalanish o‘rinli.

Hokim yordamchilari va respublika vakillariga “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga ulangan, masofadan turib hisobotlar taqdim etish hamda video konferensiya aloqa shaklida yig‘ilishlarda ishtirok etish imkonini beruvchi maxsus planshetlar ajratilmoqda. Yagona reyestr – boshlang‘ich bosqichda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun inson omilisiz oilaning (fuqaro) muhtojligini o‘zi aniqlaydigan,

nafaqalarni tayinlab, to'lovlarni amalga oshiradigan va nazorat qiladigan, xarajatlar hisobini yuritadigan avtomatlashgan axborot tizimidir. Tadqiqotda ishtirot etgan ekspertlarning fikriga muvofiq, ijtimoiy himoya yagona reyestining samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi (1-rasm).



1-rasm. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining samaradorlik ko'rsatkichlari, %.

Tadqiqotda ishtirot etgan mutaxassislarning fikriga muvofiq, ushbu tizim bugungi kunda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, ushbu javob varianti ko'pchilik (61%) respondentlar tomonidan qayd etilgan. 22% respondentlar ushbu tizimning bugungi kundagi samaradorligi o'rtacha ekanligini bildirgan. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” idoralararo hamkorlikni qo'llagan holda aholiga davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va yordam berish, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalarga 3 turdag'i nafaqalarni tayinlovchi elektron tizim hisoblanadi. Bunda nafaqa tayinlash va rad etish avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda.

Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etishning yagona tizimini joriy etish, ijtimoiy nafaqalarni, xizmatlarni va yordamni tayinlashda asos qilib olinadigan muhtojlikni aniqlash mezonlari takomillashtirildi. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash tartibi ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritilish tartibi yo'lga qo'yildi. Natijada, ushbu axborot tizimi “Elektron hukumat” tizimining tarkibiy qismiga aylandi. Bunda jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami (JSHSHIR) “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida jismoniy shaxsning identifikatori sanaladi [6, – C. 969-972].

Bir oilaning kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadi mehnatga haq to'lash bo'yicha eng kam miqdorining 0,527 baravaridan kam bo'lgan oilalarga ijtimoiy nafaqa agar oila a'zolari nomida bittadan ortiq ko'chmas mulki, ya'ni o'zi yashab turgan uyidan boshqa yana ko'chmas mulki bo'lsa, ishlab chiqarilganiga 10 yil to'lmagan mashinasi bo'lsa, ikkita va undan ortiq mashinasi bo'lsa, oila a'zosini hech qayerda rasman band bo'lmasa, jamoat ishlari ishtirokchisi bo'lmay, ishda ishlash uchun mehnat organlariga murojaat qilib, ish izlayotgani to'g'risida ro'yxatga olinmagan bo'lsa ham ijtimoiy nafaqa berish rad etiladi. 2022-yilda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, bolalikdan nogironlarga nafaqalar to'lash bo'yicha to'lovlar 10,2 trln so'mga oshirilishi belgilandi. Jumladan, ijtimoiy nafaqalar oluvchi ehtiyojmand oilalar soni 2022-yilda 1,2 mln. oilaga oshirilishi rejalashtirilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga moddiy yordam berish, bolali oilalarga barcha turdag'i ijtimoiy nafaqalarni to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, bolalikdan nogironlarga nafaqalar to'lash bo'yicha to'lovlar uchun 2020-yil tasdiqlangan parametrga nisbatan 56,3 foizga ko'p mablag' ajratilishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari 2022-yilda aholini qo'llab-quvvatlash, pul to'lanadigan jamoatchilik ishlari, tadbirdorlikka keng jalb etish asosida bandlikni ta'minlash maqsadida Jamoatchilik ishlari jamg'armasi orqali 250 mlrd. so'm, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi orqali 250 mlrd. so'm, Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi orqali 125 mlrd. so'm ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan qarori bilan ‘Kam ta'minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida’gi Nizomi tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, ishlovchi onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar (byudjet tashkilotlarda ishlaydigan onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar bundan mustasno) bola 2 yoshga yetguncha uni parvarishlash uchun beriladigan har oylik nafaqani olish muddati tugaganidan so'ng

bolalar nafaqasini olishi mumkin [7]. Bolalar nafaqasi va moddiy yordam tegishli arizalarga asosan “Yagona reyestr” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oila, deb e’tirof etilgandan so‘ng tayinlanadi. Har bir oila tomonidan ariza topshirish va “Yagona reyestr” axborot tizimiga kiritish bir oyda bir marta amalga oshiriladi.

Moddiy yordamga muhtojlikni belgilash jarayonida suiiste’ molliklarga yo‘l qo‘ylmaslik uchun 2022-yil martgacha jismoniy shaxslarning dala tomorqa yer maydonlari ro‘yxati shakllantirilib, tegishli ma’lumotlar “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga taqdim etib boriladi. Bola ikki yoshga to‘lgunga qadar bola parvarishi bo‘yicha nafaqa (keyingi o‘rinlarda bolali oilalarga nafaqa deb ataladi) – ikki yoshgacha farzandi bor oilalarga bolaning onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsnинг arizasiga asosan ikki yoshgacha 12 oy muddatga tayinlanadi.

Bola parvarishi bo‘yicha nafaqani kelgusida ham olishga muhtojligi bo‘lgan taqdirda uni olgan shaxs to‘lovlarning avvalgi o‘n ikki oylik muddati tugashidan bir oy oldin, bola ikki yoshga to‘lgunga qadar ushbu nafaqaning uzluksiz to‘lanishini davom ettirish masalasini hal etish uchun belgilangan tartibda fuqarolar yig‘iniga takroran murojaat etish huquqiga ega. 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa (keyingi o‘rinlarda bola parvarishi bo‘yicha nafaqa deb ataladi) – oila boshlig‘i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a’zosining yozma arizasiga asosan bola o‘n to‘rt yoshga to‘lgunga qadar 6 oy muddatga tayinlanadi. Bolali oilalarga nafaqa to‘lashning belgilangan muddati tugagandan so‘ng ariza beruvchi nafaqa to‘lashni yangi muddatga davom ettirishini so‘rab ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam (keyingi o‘rinlarda moddiy yordam deb ataladi) – oila boshlig‘i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a’zosining yozma arizasiga asosan 6 oy muddatga tayinlanadi. Bolali oilalarga moddiy yordam to‘lashning belgilangan muddati tugagandan so‘ng ariza beruvchi moddiy yordam to‘lashni yangi muddatga davom ettirishini so‘rab ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega [8, – B. 6-7].

Oilaning muhtojligini aniqlash uchun zarur bo‘ladigan boshqa ma’lumotlar (oila a’zolarining daromadlari – ish haqi, pensiya, stipendiya va boshqalar, nomida mavjud ko‘chmas mol-mulki, avtotransport vositalari, ishlaganligi yoki ishsiz bo‘lganligi, ishsiz bo‘lib mehnat organlariga murojaat qilganligi to‘g‘risida) Yagona reyestr orqali soliq, kadastr, ichki ishlar, mehnat va boshqa idoralardan avtomatik ravishda elektron tarzda olinadi. Qonunchilikda belgilangan mezon va me’yorlardan kelib chiqib, turli idoralardan olingan ma’lumotlar asosida Yagona reyestr, hech qanday inson omilisiz, arizachilar oilasiga ijtimoiy nafaqalarni tayinlaydi yoki tayinlashni rad etadi.

Bunda vaziyatning rivojlanish istiqbolini ko‘rish juda muhim. Aksariyat xizmatlar keyinchalik fuqarolik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi. Biroq hukumat uning siyosatini, xizmatlarga yondashuvni belgilaydi, metodologik asosini yaratadi, ijtimoiy xizmatlar reyestrini tuzadi, ularga belgilangan standartni tasdiqlash bilan bir qatorda xalqaro donor tashkilotlari, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlari, tashabbuskor guruhi va homiylar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi. Keyinchalik dunyodagi aksariyat mamlakatlar singari bunday ko‘rinishdagi xizmatlar ijtimoiy buyurtma tartibi asosida ko‘rsatiladi. Ya’ni vazirlik va hokimliklar joylarda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama yordam ko‘rsatish tanlovlарini e’lon qilishi mumkin bo‘ladi. Ayrim MDH davlatlari, jumladan, Qozog‘iston, Rossiya, Belorussiyada bunday amaliyot anchadan beri qo‘llanilib kelinmoqda.

Xususan, qo‘shti davlat Qozog‘iston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligi ijtimoiy davlat konsepsiysi doirasida BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlariga muvofiq, qozoq xalqining farovonligini ta’minlash, muhtoj qatlamlarni adresli qo‘llab-quvvatlash va aholi orasida bandlikni ta’minlash, ta’limda raqobatbardoshlik va samarali sog‘liqni saqlash yo‘nalishida yangi texnologiyalarga asoslangan ijtimoiy siyosat yuritiladi. Qozog‘iston BMTning raqamli hukumatni rivojlantirish retingida 28 o‘rinni egallab turibdi. Shunday bo‘lsa-da, Qozog‘iston aholisi 2022-yilda 19,7 mln.ni tashkil qilib, ular 5 900 000 oilalar tarkibida istiqomat qiladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu oilalarning 980 000 nafari rasmiy daromadga ega bo‘lmasan, pensiya to‘lovlari, ko‘mak pullaridan bebahra qolmoqda. 3 mln.dan ortiq fuqarolari esa ijtimoiy zaif qatlama sifatida qayd etilgan.


Qozog‘istonning ushbu qatlamlarini adresli ijtimoiy himoyalash maqsadida BMT inson taraqqiyoti dasturi doirasida 2022-yildan boshlab Oilaning raqamli xaritasi loyihasi doirasida ishlar boshlab yuborildi. Qozog‘istondagi “Oilaning raqamli xaritasi” mamlakatimizda xuddi shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan “Oilaning raqamli pasporti”ning analogi bo‘lib, ikkala holatda ham bu raqamli platforma ehtiyojmand oilalarga tezkor va samarali yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan innovatsion yechim bo‘ldi. Ushbu raqamli innovatsiyalar avtomatlashtirilgan holda hatto internet aloqasi bo‘lmasa-da avtonom ravishda ishslash

quvvatiga ega. Qozog‘istonda oilaning ehtiyojmandlik darajasini baholash mezonlari quyidagilardan iborat; 1) iqtisodiy shart-sharoitlari; 2) sog‘liqni saqlash; 3) ta’lim olish daroji; 4) maishiy shart-sharoitlari.

Ushbu dastur doirasida Qozog‘iston aholisining muhtoj oilalari, aynan: a) uy-joyga muhtojlik sezayotganlar; b) ta’lim, sog‘liqni saqlash, tibbiy sug‘urta xizmatlaridan chetda qolayotgan oilalar; v) ishsiz yoki doimiy ish bilan band bo‘lmaganlar; g) huquqiy-ijtimoiy yordamga muhtojlar kiritiladi. Bunda yordamni tayinlashga da’vogarlik jami 80 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda oilaning har bir a’zosining bandligi, ko‘chmas yoki tijorat mulkka egaligi, oilada nogiron a’zolarning borligi, bank zayomlari, qarzdorligi kabilar hisobga olinadi. Ushbu baholash Qozog‘istonda jami oilalarning 15%dan ortig‘ida mustaqil ravishda muammoning yechimini topish murakkabliklari bilan bog‘liq ehtiyojmandlik aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar Qozog‘istonda oila farovonligini baholashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqishda asos bo‘ldi. Mazkur elektron platformaning afzalligi unda mintaqalar kesimida shahar, qishloq, tog‘li tumanlarda yashayotgan oilalar uchun ijtimoiy tahlika maydonlari aniqlandi. Ushbu avtomatlashtirilgan raqamli xarita tufayli bugungi kunda Qozog‘iston oilalari farovonligi bo‘yicha ma’lumotlar har kuni yangilanib turadi. Mazkur platformaning ishlash tartibi mamlakatimizda joriy etilgan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ning analogi sifatida kechadi. Bunda ijtimoiy ko‘mak pullari ehtiyojmand deb topilgan kishining bank raqamiga ko‘chirib beriladi.


Mamlakatimizda amaldagi raqamli platforma va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ning ishlash samaradorligini oshirish uchun dasturning mobil ilovasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yurtimizning chekka hududlarida ehtiyojmand qatlamlarning cheklvlarsiz foydalanish imkoniyatini oshirishda ilovaning avtonom ravishda ishlash quvvatiga ega bo‘lishi va Internet aloqasi bilan cheklanmasligi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida kam ta’minlangan oila sifatida ro‘yxatga olingan oilalarga quyidagi ijtimoiy xizmatlar va yordamlar bepul yoki imtiyozli shartlarda ko‘rsatiladi: 1) davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar to‘lovidan ozod etish; 2) maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘rnatilgan miqdorlarda ota-onalar to‘lovin to‘lash; 3) umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida darsliklarning ijara to‘lovlardan ozod etish; 4) umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun qishki kiyim-bosh berish; 5) ayrim fanlarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan umumiyl o‘rta maktablar o‘quvchilarini ovqatlanish xarajatlaridan ozod etish; 6) san’at maktablari, musiqa maktablari, “Barkamol avlod” markazlari va boshqa maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida o‘qish xarajatlaridan ozod qilish; 7) kam ta’minlangan oilalarning nogironligi bo‘lgan a’zolarini protez ortopediya buyumlari bilan ta’minalash; 8) ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida bepul maxsus (ambulator yoki kunduzgi) tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo’llanma (order) olish[9]. Tadqiqot davomida respondentlarning ushbu elektron tizim haqida xabardorlik darjasini o‘rganishga harakat qildik va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot xizmati haqida xabardormisiz?” savoli bilan murojaat etildi (2-rasm).



2-rasm. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot xizmati haqida xabardormisiz, savolining tahlili, %.


Olingen natijalarga ko‘ra, har ikkinchi fuqaro (59,3%) ushbu tizim haqida umuman xabardor emas. Har uchinchi (33%) so‘ralganlar bu borada qisman ma’lumotga ega bo‘lsalar, ozchilik (7,7%) bu tizim faoliyatidan xabardor ekanliklarini bildirganlar. Tadqiqot natijalari bizga ushbu tizimni takomillashtirish va keng aholi orasida ommalashshtirish yo‘lida zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda ijtimoiy nafaqalarni olish uchun yordamga muhtoj fuqaro oilaning tarkibi va daromadi to‘g‘risidagi ma’lumot hamda ushbu daromadlarni tasdiqlovchi hujjat, bolali oilalarga nafaqa yoki bola parvarishi bo‘yicha nafaqa olish uchun bolalarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalarining nusxalari, asosan, yashab turgan joyi bo‘yicha nafaqa va moddiy yordam olish uchun doimiy yashash (doimiy propiska) joyi bo‘yicha bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlanmaganligi hamda to‘lanmaganligi to‘g‘risida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan ma’lumotnomasi, agar bolalar vasiylikka olingen bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining qaroridan ko‘chirma kabi ma’lumot hamda hujjatlarni yig‘ib, mahalla fuqarolar yig‘iniga topshirishi kerak bo‘ladi [10, – C. 729–735]. Bundan tashqari moddiy yordamga ehtiyojmandlik to‘g‘risidagi arizaga ariza beruvchining xohishiga ko‘ra, oilaning ehtiyojmandligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ham ilova qilinishi mumkin. Respondentlarga “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali moddiy yordam olishda ko‘maklashuvchi tashkilotni ko‘rsating” savoli bilan murojaat etildi va quyidagi rasmda ko‘rsatilgan natijalar olindi (3-rasm).



3-rasm. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali moddiy yordam olishda ko‘maklashuvchi tashkilotlar, %.


Ushbu savolga berilgan javoblar bu tizim faoliyatining nisbatan yaqin muddatda ishga tushirilganligi bois aholi orasida yetarlicha ommalashmaganligini ko‘rsatadi. 60,5% so‘ralganlar ushbu avtomatlashgan tizim orqali ijtimoiy himoya amaliyoti qaysi tashkilot orqali amalga oshirilishini bilmaydi. 16,8% esa bu tizimda mas’ul organ sifatida mahallani biladi va mahallaga murojaat qiladi. 12,2% Pensiya jamg‘armasi ekanligidan xabardor. 6,4% so‘ralganlar hokimiyatlarning vakolati, deb biladi. Bugungi kunda bu tizim ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaro va oilalarga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan pul yoki mahsulot ko‘rinishidagi barcha yordam turlarini (bolalarning bepul bog‘chaga qatnashi, o‘quvchilarni bepul darsliklar to‘plami bilan ta’minlash, sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul yoki imtiyozli tibbiyot xizmatlarini ko‘rsatish, ipoteka kreditlari uchun boshlang‘ich badalni to‘lash va boshqa) qamrab olmoqda. Ekspertlarga berilgan navbatdagi savolimiz

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi samaradorligini ijtimoiy ko‘rsatkichlarida baholang?” mazmunida bo‘lib, ushbu savol tahlilini quyida ko‘rshimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi samaradorligi ijtimoiy ko‘rsatkichlarda, %

Ekspertlarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy himoya tizimini raqamli texnologiyalar yutuqlari asosida isloh qilinishi, keng ma’noda, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining ustuvorligiga xizmat qilmoqda. Xususan, ushbu tizim joriy etilishining asosiy yutuqlari sifatida quyidagi fikrlar bildirildi: ehtiyojmand qatlamlarga idoralararo xizmat ko‘rsatishning bepul va imtiyozli tarzda bajarilishi ta’minlandi – 52%; davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning doimiy yangilanib turiladigan yagona ma’lumot bazasi shakllantirildi – 57%; ehtiyojmandlik toifasi tarkibining dinamik monitoringi o’rnatildi – 39%; ijtimoiy yordam tayinlash jarayoni maksimal darajada shaffoflashdi – 37%; ehtiyojmandlikni baholash mezonlari konkretlashtirildi – 45%; yordam tayinlashda hujjatlar soni tubdan qisqardi – 78%; ijtimoiy yordamni tayinlashda idoralararo elektron hamkorlik o’rnatildi – 41%; yordamni tayinlashda subyektiv yondashuv bartaraf etildi – 34%. Tadqiqotlarimizda ishtirok etgan ekspertlarga navbatdagi savolimiz “Idoralararo elektron hamkorlikni qo’llash vositasida o‘zaro hujjat almashish jarayonida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?” mazmunida bo‘lib, bu borada ekspertlarning fikri quyidagicha taqsimlandi (5-rasm).




5-rasm. “Idoralararo elektron hamkorlikni qo’llash vositasida o‘zaro hujjat almashish jarayonida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?”

Ekspertlar fikrining regional taqsimotiga ko‘ra, idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llash o‘zaro hujjat almashish jarayonini avtomatlashtirish orqali tezlashtirildi (Toshkent – 35 %, Farg‘ona – 21 %, Samarqand – 29 %, Surxondaryo – 12 %). Shuningdek, ushbu tizim orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotnoma hamda tasdiqlovchi hujjatlar soni tubdan qisqartirildi (Toshkent – 28 %, Farg‘ona – 19 %, Samarqand – 26 %, Surxondaryo – 17 %). Belgilangan mezonlarga muvofiq, kam ta’minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasi obyektiv baholanmoqda (Toshkent – 47 %, Farg‘ona – 32 %, Samarqand – 31 %, Surxondaryo – 29 %). Davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali qarorlarni qabul qilishdagi subyektiv yondashuv bartaraf etildi (Toshkent – 19 %, Farg‘ona – 15 %, Samarqand – 39 %, Surxondaryo – 17 %). Aholining ehtiyojmand toifasi tarkibi o‘zgarishi dinamikasining monitoringi va tahlili yuritilmoxda (Toshkent – 58 %, Farg‘ona – 36 %, Samarqand – 43 %, Surxondaryo – 32 %). Ularni baholash mezonlari respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda regional xususiyat kasb etmoqda (Toshkent – 63 %, Farg‘ona – 29 %, Samarqand – 17 %, Surxondaryo – 24 %).

Davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning doimiy yangilanib turadigan yagona ma’lumot bazasi shakllantirildi (Toshkent – 46 %, Farg‘ona – 43 %, Samarqand – 51 %, Surxondaryo – 36 %). Manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlarning o‘zlariga yuklatilgan vazifa hamda funksiyalarni bajarishda xizmatlar bepul yoki imtiyozli asosda taqdim etilmoqda (Toshkent – 34 %, Farg‘ona – 24 %, Samarqand – 47 %, Surxondaryo – 36 %). “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ning elektron bazasi shakllantirilganligi, ehtiyojmand qatlamlarning “avtomatlashtirilgan yagona reyestri”ga kiritilganlik holati, aholi muammolarining yechimini topishda mahalla yig‘inlari raislari va o‘rnibosarlarining raqamli texnologiyalar hamda ijtimoiy tarmoq xizmatlaridan foydalananish ko‘nikmalarini rivojlantirish, uy boshi, ko‘cha boshlarida faollikni rag‘batlantirish asosida Telegram kanallari va guruhlari ishi yo‘lga qo‘yildi.


“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ustuvorlik daromadi nisbatan pastroq bo‘lgan oilalarga berilishi nazarda tutildi. Yordamga muhtojlarga ko‘mak, mehr-shafqat ko‘rsatib hamjihatlikda ularni qo‘llab-quvvatlash eng oliv va milliy qadriyat hisoblanib, u befarq bo‘lgan insonlarni ezgu maqsad yo‘lida birlashtiradi. Muhimi, qiyin vaziyatlarga tushgan, umidsiz qolgan insonlarga ularni qo‘llab-quvvatlovchi, yordam berishga tayyor turuvchilarning borligini bildirishdir. Tadqiqotda ishtirok etgan mutaxassislar “Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining funksional tamoyillarini ko‘rsating” savoli bilan murojaat qilindi. Ushbu savol natijalarining tahlili quyida keltirilgan (6-rasm).



6-rasm. Ijtimoiy himoya tizimining funksional tamoyillari, %.

37 % ekspertlar ijtimoiy himoya tizimining bosh tamoyili “muhtojlikdan chiqarish”ga qaratilgan, deb hisoblaydi. 21 % holatda bu aniq maqsadli chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish bo‘lsa, 19 % ekspertlar moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar uzluksizligini ta’minalashda, deb biladi. 17 % so‘ralganlar esa muhtojlikda qo‘llab-quvvatlab turish zaruratini bildirgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmay, ularni muhtojlikdan chiqarishning samarali yo‘llarini qidirishga yo‘naltirilmoqda. Bunda asosiy e’tibor ularning ish bilan bandligini ta’minalash va doimiy daromad manbaiga

ega bo‘lishiga qaratilmoqda. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam oluvchi oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy “portret”ini shakllantirib, tahlil qilish, zarur hollarda oilalarning muhtojlik mezonlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib boriladi. Ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam oluvchi oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy “portret”ini hududlar hamda tuman (shahar)lar kesimidagi tahlillar asosida ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam uchun ajratiladigan byudjet mablag‘larini hududlar hamda tuman (shahar) mahalliy byudjetlar kesimida rejalashtirish mexanizmi takomillashtiriladi. Tadqiqot davomida respondentlarga “Quyidagi yordam turlaridan zaruriylarini ko‘rsating” savoliga berilgan javoblar tahlili quyidagi rasmida ko‘rsatilgan (7-rasm).



7-rasm. Respondentlar fikri bo‘yicha yordam turlaridan zaruriylari, %.

Ushbu savolga berilgan javoblarning tahliliga muvofiq, 23% so‘ralganlar imtiyozli uy-joy olishda to‘lov qobiliyatidan kelib chiqib foiz o‘rnatish zaruratini bildirgan bo‘lsalar, 21% holatda daromad solig‘ini kamaytirish va kredit foizlarini tushirish ayni muddao ekanligi bildirilgan. 16,6% so‘ralganlar communal to‘lovlarda imtiyoz berilishi, 10 % tibbiy-ijtimoiy xizmatni rivojlantirish, 4,4% ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini to‘lab berish kabi fikrlarni bildirganlar. 3% jamoat transporti to‘lovlarida imtiyoz berish va axborot-yuridik xizmatni rivojlantirish fikrlarini aytganlar. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi raqamli texnologiyalar asosida tub islohotlarni boshidan kechirmoqda. Ushbu islohotlarning ustuvor maqsadi inson manfaatlarini himoya qilishdir. Bunda ijtimoiy himoya “maqsadli” bo‘lib, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki yo‘nalishni qamrab oladi. Birinchisi, muddatli moddiy yordam bo‘lsa, ikkinchisi, bandlikni ta’minlash orqali muhtojlikdan chiqarishdir.

XULOSA

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy ko‘mak pullarini ajratish tizimi avtomatlashtirilib, ushbu jarayonda mutasaddi shaxslarning ishtiroti minimallashtiribdi. Mazkur elektron tizim ushbu sohada suiste‘molliklarning oldini olishda raqamli iqtisodiyot yutuqlariga tayangan munosib yechim yo‘li bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Oila va xotin-qizlar Qo‘mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar o‘rtasida to‘siqlarsiz axborot hamda zaruriy ma’lumotlarni almashish tizimi ishga tushirilmoqda. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ustuvorlik daromadi nisbatan pastroq bo‘lgan oilalarga berilishi ta’minlanmoqda.

Yagona reyestrining afzalligi shundaki, birinchidan, taqdim etiladigan ma’lumotlarga zarurat bo‘lmasligi hisobiga ijtimoiy nafaqalarga muhtoj oilalar uchun ariza berish jarayoni keskin yengillashadi va ushbu oilalar uchun ma’lumotlarni yig‘ish kabi sarsongarchiliklarga barham beriladi.

Ikkinchidan, kam ta’minlanganlikni e’tirof etish hamda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash yoki rad etish jarayoni maksimal darajada shaffoflashadi. Nafaqani tayinlash yoki rad etish to‘g‘risida qaror faqat Yagona reyestr axborot tizimi tomonidan (unga kiritilgan mezonlar asosida) qabul qilinadi, bunda hech qanday inson omili mavjud bo‘lmaydi.

Uchinchidan esa hozirgi kunda kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan turli xil yordamlar (bolalarning bepul bog'chaga qatnashi, maktabda bepul darsliklar va qishki kiyim-bosh bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash muassasalarida bepul davolanish va boshqalar) ko'rsatilmoqda. Avvallari ushbu yordamlarga muhtoj oilalarni aniqlash tartibi hech qanday qonunchilik hujjatlarida belgilanmagan va davlat tomonidan qaysi oilaga qanday hamda necha pullik yordam ko'rsatilgani to'g'risida ma'lumotlar bazasi mavjud emas edi. Demak, Yagona reyestr mana shunday ma'lumotlar bazasiga aylanadi va ushbu baza orqali avtomatik tarzda barcha ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

To'rtinchidan, qo'shni Qozog'iston Respublikasida aholini adresli ijtimoiy himoyalashdagi innovatsion texnologiyalar o'rganildi. Unda "Oilaning raqamli xaritasi" modeli mamlakatimizdagi "ehtiyojmand oilalarning raqamli pasporti" texnologiyasining analogi sifatida talqinlandi. Qiyosiy tahlil asosida dissertatsiyaning umumiylar xulosalarida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ning mobil ilovasini yaratish va uni ishslash tartibi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Beshinchidan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan, deb e'tirof etilganlik to'g'risida ma'lumotnomma yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etiladi va o'n ikki oy davomida amal qiladi. Ushbu innovatsion yangiliklar "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini rivojlantirish doirasida raqamli iqtisodiyot sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini va "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirishni anglatadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ahолига давлат ижтимоий хизматлари ва юрдамни тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бо'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 4 avgusdag'i PQ-4797-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.08.2020 y., 07/20/4797/1138-son.
2. Садиков С.А. Формирование и развитие правовых основ системы "электронное правительство" в Республике Узбекистан. Дисс на соискание учёной степени доктора философии(PhD) по юрид. наукам. – Ташкент: УзРДБА, 2020. – С. 56-61.
3. Ekspert so'rovi Respublika bo'yicha 2021-2022 yillarda stratifikatsiyalangan mintaqaviy yondashuv asosida o'tkazildi. Toshkent viloyati – 22 nafar, Farg'onha viloyati – 19 nafar, Samarqand viloyati – 16 nafar, Surxondaryo viloyatidan – 14 nafar. Shundan, erkaklar 55 nafar (77,5%), ayollar 16 nafar (22,5%)ni tashkil etdi. Yosh bo'yicha: 30-39 yoshlilar – 31% (22 nafar), 40-49 yoshlilar – 24% (17 nafar), 50-59 yoshlilar – 38% (27 nafar), 60 yoshdan katta – 7% (5 nafar)ni tashkil qildi.
4. <https://strategy.uz/index.php?news=1306> Xусанова X. Т.
5. Хусанова X.Т. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда хорижий тажриба: илгор моделлар ва амалиёт //Журнал социальных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
6. Хусанова X.Т. Аҳолини ижтимоий ҳимоялаш–инсон капиталини ривожлантириш омили сифатида //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 969-972.
7. https://uza.uz/uz/posts/aholini-izhtimoiy-himoya-qilish-tizimida-muhim-ozgarish_313292
8. Azizov N.A. va boshqalar. Aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan angorat. – Toshkent: Bosh prokuratura Akademiyasi, 2019. – B. 6-7.
9. Ijtimoiy himoya yagona reyestri. <https://advice.uz/uz/document/2279>
10. Isropilov M.B. THE ROLE OF PR TECHNOLOGIES IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Йулдошева Умид

Научно-исследовательский институт
«Махалла и семья»,
докторант (PhD)
e-mail: umida_yuldosheva@yahoo.com

ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

В современном мире социальное предпринимательство набирает все большую популярность и становится необходимым элементом экономического развития. В настоящее время социальное предпринимательство становится все более значимым в контексте устойчивого социально-экономического развития. Этот тип предпринимательства ориентирован на создание позитивного социального и экономического воздействия, направленного на устранение неравенства, борьбу с бедностью и насущными проблемами, а также на поощрение устойчивого развития. Основываясь на результатах статистических данных, автор анализирует динамику развития социального предпринимательства в Узбекистане за последние 5 лет в региональном разрезе и по основным видам; определяет основные тенденции развития, указывает проблемные направления и предлагает варианты развития социального предпринимательства в Узбекистане.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, социально ориентированная предпринимательская деятельность, динамика развития, динамика развития социального предпринимательства.

Yo'ldosheva Umida

«Mahalla va oila» ilmiy tadqiqot instituti,
tayanch doktorant (PhD)
e-mail: umida_yuldosheva@yahoo.com

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ijtimoiy tadbirkorlik tobora ko'proq ahamiyat kasb etib, iqtisodiy rivojlanishning zaruriy omiliga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlikning bu turi tengsizliklarni, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirni, qashshoqlikni bartaraf etish va shu kabi dolzarb muammolarga qarshi kurashishga, barqaror taraqqiyotga ko'maklashishga qaratilmoqda. Statistik ma'lumotlar natijalari asosida maqolada O'zbekiston respublikasida so'nggi 5 yil mobaynida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi hududlar kesimida va asosiy yo'naliishlar bo'yicha tahlil

qilingan; rivojlanishning asosiy tendensiyalari belgilab berilgan, rivojlanmayotgan sohalar ko'rsatib o'tilgan va O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarli bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati, rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi.

Yo'ldosheva Umida
Scientific research institute
«Mahalla and family», PhD student
e-mail: umida_yuldosheva@yahoo.com

DYNAMICS OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

Social entrepreneurship gains more popularity and becoming a necessary element of economic development in today's world. Nowadays, social entrepreneurship is becoming more important in the context of sustainable socio-economic development. This type of entrepreneurship is focused on creating positive social and economic impact aimed at eliminating inequalities, combating poverty and other problems, and promoting sustainable development. Based on the results of statistical data, the author analyzes the dynamics of the development of social entrepreneurship in Uzbekistan over the past 5 years in the regional context and by the main types, the main development trends, non-developing areas and proposes options for the development of social entrepreneurship in Uzbekistan.

Key words: social entrepreneurship, socially oriented entrepreneurial activity, dynamics of development, dynamics of development of social entrepreneurship.

ВВЕДЕНИЕ

Узбекистан сегодня находится на новом этапе своего развития, где происходят широкомасштабные политические, административные, экономические и социальные реформы. Данные обстоятельства заставляют рассматривать разнообразные инструменты управления социальными процессами и эффективного решения социальных проблем.

Актуальной становится проблема интеграции процессов экономической устойчивости и социальной стабильности. Подобная ориентация социально-экономического развития и основные задачи определены в Стратегии «Узбекистан-2030», в Стратегии Развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, Законе Республики Узбекистан “О гарантиях свободы предпринимательской деятельности”, Указе Президента от 08.01.2019 года № УП-5614 “О дополнительных мерах по обеспечению дальнейшего развития экономики и повышению эффективности экономической политики”, Постановление Президента от 05.08.2021 года № ПП-5214 “О дополнительных мерах по дальнейшей поддержке предпринимательства и развитию кооперации между субъектами предпринимательства и населением в махаллях”, Постановление Президента от 24.12.2021 года № ПП-62 “О мерах организации деятельности Агентства по работе махаллабай и развитию предпринимательства при Министерстве экономического развития и сокращения бедности”, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20.10.2018 года № 841 “О мерах реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года” и в ряде других нормативно правовых актах [1,2,3].

Одним из эффективных инструментов достижения социально-экономической стабильности является социальное предпринимательство. Оно как относительно новое и инновационное явление способствует росту уровня и качества жизни населения, повышению конкурентоспособности и эффективности экономики, что очень актуально именно сейчас в свете кризисных явлений в мировой экономики и замедление темпов экономического роста в связи с пандемией.

В Узбекистане в последнее время уделяется огромное внимание интеграции процессов экономической устойчивости и социальной стабильности, но все же отсутствуют систематизированные научные исследования, направленные на формулировку предложений по эффективному использованию социального предпринимательства как одного из наиболее эффективных инструментов достижения социально-экономической стабильности. Социально-экономические исследования сущности, динамики и перспектив развития социального предпринимательства необходимы для создания эмпирической базы для прогнозирования векторов развития национальной экономики и социальной сферы.

МЕТОДОЛОГИЯ

Статистический анализ количества социально ориентированного бизнеса становится необходимым инструментом для изучения и анализа динамики развития этого сектора экономики. Он позволяет выявлять тенденции и закономерности развития социального предпринимательства, оценивать вклад этого сектора в экономику и улучшение качества жизни людей в стране.

Для проведения анализа количества социально ориентированного бизнеса нами был использован метод сбора данных по определенным шифрам ОКЭД (Общегосударственным классификатором видов экономической деятельности), которые подходят для оценки социальной направленности бизнеса. Мы провели анализ данных за период с 2018 по 2022 год в разрезе регионов Узбекистана.

Был выполнен подсчет количества бизнеса, использующего данные шифры ОКЭД, и был построен график, отображающий динамику роста социально ориентированного бизнеса в выбранных регионах за указанный период времени. Таким образом, была получена информация о том, как меняется количество социально ориентированного бизнеса в зависимости от региона и времени.

Анализ данных позволил выявить регионы, где количество социально ориентированного бизнеса растет быстрее, чем в других регионах, а также определить общую тенденцию роста данного сектора экономики. Полученная информация может быть полезна для разработки стратегии развития социально ориентированного бизнеса в различных регионах Узбекистана, а также для определения потенциальных инвестиционных возможностей в этом секторе.

Статистический анализ был проведен с использованием таких методов статистического анализа как корреляция, метод сравнения средних, частотный анализ, метод сопряжения.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Основываясь на результатах статистических данных, мы приведем анализ динамики развития социального предпринимательства в Узбекистане за последние 5 лет в региональном разрезе и по основным видам; определим основные тенденции развития, укажем не развивающиеся направления и предложим варианты развития социального предпринимательства в Узбекистане.

Социальное предпринимательство вид предпринимательской деятельности, направленной на решение социальных проблем. Отличие социального предпринимательства от НКО и благотворительности заключается в наличие двойной цели: коммерческой и социальной. Бизнес-модель социального предпринимательства представляет собой самоокупаемую деятельность, приносящую прибыль и прибыль в свою очередь является средством для достижения социальной цели.

Следует отметить, что теории и методологии социального предпринимательства в ракурсе социологического анализа посвящено крайне мало работ не только в Узбекистане, но и в странах СНГ, и за рубежом.

В Узбекистане социальное предпринимательство не исследовано в контексте социального анализа, но все же следует отметить работы по исследованию социальных и экономических процессов таких авторов как М. Бекмуродов, Н.Эгамбердиева, О.Мусурмонова, Р. Убайдуллаева, Ш. Содикова, исследование в сфере предпринимательства проводилось такими авторами как Ш.Абдуллаева, Б.Маматова, Ж.Исакова, Д.Таджибаевой,

И.Рахмонова, Т.Қоралиева, Г.Яхшибоева, И.Алимардонова и в сфере законодательных основ социального предпринимательства работы таких авторов как А.Раджабов, С. Ахророва, А. Қаландаров.


В странах СНГ в последнее время наблюдается подъем интереса к социальному предпринимательству со стороны научного сообщества, в частности истории развития, практическим аспектам и содержательным направлениям развития социального предпринимательства. Особого внимания заслуживают работы М. Баталиной, А. Баркова, И.Миргалиева, Е.Шматковой, М. Волковой.

Среди зарубежных ученых значимый вклад в изучение предпринимательства внесли Р. Кантильон, А. Смит, П. Друкера, Й. Шумпетера, В. Зомбарт, Ф. Найт, И. Кирцнер. Культуру предпринимательства с позиции социального компонента рассматривают А. Рих и Й. Хейзинг. Существенный вклад в изучение теоретических основ и практических аспектов социального предпринимательства внесли Ч. Лебитер, Г. Диз, Г.Прабу, Дж.Боши, Д. Борнштейн, Ш. Джонсон, В. Дрейтон, Дж. Остин, Г. Салливан Морт, Майр и Мартин, Р. Мартин, С. Осберг.

Дэвид Борнштейн и Сюзан Девис дают следующее определение «социального предпринимательства»: «Социальное предпринимательство - это процесс, посредством которого граждане создают или преобразуют институты для продвижения решений социальных проблем, таких как бедность, болезни, неграмотность, разрушение окружающей среды, нарушения прав человека и коррупция, чтобы сделать жизнь лучше для многих», приводят следующие дифференциации «социального предпринимательства» и «бизнес - предпринимательства» и «социального активизма»: «Основное различие связано с целью или с тем, что предприятие пытается максимизировать. Для социальных предпринимателей суть заключается в том, чтобы максимизировать некоторую форму социального воздействия, как правило, путем удовлетворения насущной потребности, которая неправильно обрабатывается, упускается из виду или игнорируется другими учреждениями. Для предпринимателей суть может заключаться в максимизации прибыли или благосостояния акционеров или в создании постоянной организации, которая обеспечивает ценность для клиентов и значимую работу для сотрудников», «Активизм можно рассматривать как разновидность социального предпринимательства, одну из многих тактик, используемых для продвижения изменений. Самое простое различие заключается в том, что активисты, как правило, стремятся добиться изменений, влияя на принятие решений крупными институтами или изменения общественное отношение, в то время как социальные предприниматели используют более широкий спектр вариантов, включая создание институтов, которые непосредственно сами реализуют решения» [4]

В связи с отсутствием организационно-правовой формы социального предпринимательства в Узбекистане возникли трудности при анализе динамики развития данной сферы. В рамках нашего исследования мы провели отбор социально ориентированных предприятий по классификатору ОКЭД. Для этого мы руководствовались определением, данном в предшествующих параграфах, и отобрали соответствующие коды ОКЭД, соответствующие предпринимательской деятельности, ориентированному на решение социальных и экологических проблем.


Всего количество субъектов на 1 января 2023 года малого предпринимательства осуществляющих деятельность в области социального предпринимательства в республике составило 15148 субъектов, в соответствии с Общегосударственным классификатором видов экономической деятельности ОКЭД-2 к ним относятся: - 36 - Сбор, обработка и распределение воды, 38 - Сбор, обработка, удаление, утилизация отходов, 58.1 - Издание книг, периодических публикаций и другие виды издательской деятельности, 58.11 - Издание книг, 60.1 - Радиовещание, 78 - Трудоустройство, 85 - Образование, 87 - Предоставление ухода с обеспечением проживания, 88 - Предоставление социальных услуг без обеспечения проживания, 90 - Деятельность в области творчества, искусства и развлечений, 91 - Деятельность библиотек, архивов, музеев и других учреждений культуры, 93 - Деятельность в области спорта, организации отдыха и развлечений.




РЕЗУЛЬТАТЫ

В общем количестве субъектов социального предпринимательства сбором, обработкой и распределением воды занимаются – 2,3% субъектов предпринимательства, сбором, обработкой, удалением, утилизацией отходов -5,8%, изданием книг, периодических публикаций и другими видами издательской деятельности - 6,0%, изданием книг - 1,6%, радиовещанием -0,4%, трудоустройством - 3,2%, образованием - 48,6%, предоставлением ухода с обеспечением проживания - 1,1%, предоставлением социальных услуг без обеспечения проживания - 1,0%, деятельностью в области творчества, искусства и развлечений - 3,3%, деятельностью библиотек, архивов, музеев и других учреждений культуры - 0,1%, деятельностью в области спорта, организации отдыха и развлечений - 26,6%.

Доля субъектов социального предпринимательства




Анализ сфер социально ориентированного предпринимательства показал, что наибольшее количество социально ориентированных субъектов малого предпринимательства составляют субъекты малого предпринимательства в сферах образования, спорта, организации отдыха и развлечений и в издательской деятельности, а наименьшее в сферах деятельности библиотек, архивов, музеев и учреждений культуры, а также в сферах предоставления социальных услуг и радиовещания.




В частности, количество субъектов малого предпринимательства в сфере образования возросло в 3,7 раза на период с 2018 года до 2022 года, тем временем, в сфере спорта, организации отдыха и развлечений в 2,1 раза.

В сфере издание книг, периодических публикаций и других видов издательской деятельности данный показатель составил в 1,3 раза. Следует отметить, что в сфере решения экологических проблем, а именно в сфере утилизации и переработке отходов данный показатель составил в 1,3 раза.




Рост в 1,6 раз с 310 субъектов малого предпринимательства в 2018 до 501 субъектов в 2022 году наблюдается в сфере творчества, искусства и развлечений, тогда как в сфере трудоустройства данный показатель составляет рост в 2 раза.




Наименьшее количество субъектов малого предпринимательства наблюдаются в сферах деятельности библиотек, архивов, музеев и других учреждений культуры, где количество субъектов малого предпринимательства в 2018 году составляло - 10, а в 2022 году - 18.

В сферах предоставления ухода с обеспечением проживания рост количества субъектов малого предпринимательства составил в 2 раза, тогда как в сферах предоставление социальных услуг без обеспечения проживания наблюдается увеличение количества субъектов малого предпринимательства с 52 в 2018 году до 2023 года.




В процессе анализа социально ориентированных субъектов малого предпринимательства в разрезе регионов Республики Узбекистан были выявлены области с наибольшим количеством социально ориентированных субъектов малого предпринимательства и области, где социально ориентированный бизнес недостаточно развит.



Как видно из графика в 2022 году наибольший процент социально ориентированных субъектов малого предпринимательства приходится на город Ташкент (20,3%), Ташкентскую (9,4%), Самаркандинскую (9,2%), а наименьший на Сырдарьинскую область (2,9%), Джизакскую (4,3%), Навоийскую (4,4%) области.

Анализ социально ориентированного предпринимательства помог нам определить и выявить взаимосвязь между всеми направлениями социально ориентированного предпринимательства в разрезе регионов Республики Узбекистан. Мы имеем возможность наблюдать, какие сферы развиваются в каждой отдельной области Республики и выявить сферы, в которых наблюдается замедление развития. Таким образом, мы можем определить, какие области успешно развивают социально ориентированное предпринимательство в различных сферах, а какие оказываются в неравных условиях в определенных отраслях.



Так, в сфере сбора, обработка, удаление, утилизация отходов наибольший процент субъектов малого предпринимательства приходится на город Ташкент (20,3%), Ташкентскую (9,4%), Самаркандинскую (9,2%) области, а наименьший на Сырдарьинскую (2,9%), и Джизакскую (4,3%) области.

Деятельность в области творчества, искусства и развлечений наибольший процент субъектов малого предпринимательства приходится на город Ташкент (46,1%), Самаркандинскую (9,8%) и Ферганскую (8,4%), области, а наименьший на Сырдарьинскую (1,0%), Сурхандарьинскую (1,4%) и Хорезмскую (2,0%) области.

Издание книг, периодических публикаций и другие виды издательской деятельности наибольший процент субъектов малого предпринимательства приходится на город Ташкент (47,3%), и Ферганскую область (10,0%), а наименьший на Сырдарьинскую (1,2%) и Джизакскую область (1,3%).

Деятельность в области спорта, организация отдыха и развлечений наибольший процент субъектов малого предпринимательства приходится на город Ташкент (22,3%), и Ферганскую область (10,0%), а наименьший на Сырдарьинскую (2,6%) и Навоийскую область (3,3%).

ВЫВОДЫ

По итогам проведённого анализа социально ориентированного предпринимательства за последние пять лет можно отметить его увеличение. Это свидетельствует о росте интереса предпринимателей к социальной ответственности и желании внести позитивные изменения в общество.

Таким образом, развития социального предпринимательства является необходимом для обеспечения дальнейшей экономической устойчивости и социальной стабильности страны; немаловажными факторами в данном процессе является:

- формирования нормативно-правовой базы для регуляции основных вопросов социального предпринимательства;
- вопросов преференций и льгот;
- расширения спектра научных исследований социального предпринимательства;
- выявления ресурсного потенциала и социальных проблем регионов при реализации практик социального предпринимательства.

Создание возможностей и условий для развития социального предпринимательства в Узбекистане будет служить эффективным механизмом достижения социально-экономической стабильности путем создания сотни тысяч рабочих мест и новых объектов экономической инфраструктуры. Развитие данного предпринимательского направления поможет вовлечь в бизнес слабозащищенные социальные слои, и решением ряда социальных проблем.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 12.09.2023 г. № УП-158 О Стратегии «Узбекистан-2030» – www.lex.uz
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 О Стратегии Развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы – www.lex.uz
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20.10.2018 года № 841 “О мерах реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года” – www.lex.uz
4. Дэвид Борнштейн Как изменить мир. Социальное предпринимательство и сила новых идей=How to change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas. – М: Альпина Паблишер, 2015. – 496с.
5. Джилл Кикал, Томас Лайонс. Социальное предпринимательство: миссия — сделать мир лучше = Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever Changing World. — М.: Альпина Паблишер, 2014. — 304 с.
6. Московская А. Социальное предпринимательство в России и в мире: практика и исследования / А. Московская. М.: НИУ «Высш. школа экономики», 2011. 284 с.
7. Шумпетер Й. Теория экономического развития / Й. Шумпетер; пер. с нем. М.: Прогресс, 1982. 455 с.
8. Drayton W. The citizen sector: Becoming as entrepreneurial and competitive as business / W. Drayton // California Management Review, 2002. №44 (3). P. 120-132.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Hojiyev Zavqiddin

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlanirishning nazariy jihatlariga bag‘ishlangan. Xususan, davlat xizmatining samaradorligi davlat xizmatchilarining professional jihatdan yetarli bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bunda, sotsiologik yondashuvni qo‘llagan holda professional rivojlanish bosqichlarini individning bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o‘tishi orqali ko‘rsatib o‘tilgan va mazkur sohada sotsiologiyaning mumtoz namoyandalarining qarashlari tahlil qilingan. Davlat kadrlar siyosatining asosiy vazifalari sifatida yuqori darajadagi professional kadrlar tarkibini shakllantirishda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarini, shaxsiy va ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlanirib borish masalalarini yoritilgan. Davlat xizmatchilarining salohiyatini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, kasbiy salohiyatni rivojlanirish, professional rivojlanish, professional bilim olish, kasbiy mahorat, kompetensiya, «lifelong learning», «soft skills», «hard skills».

Хожиев Завкиддин

Независимый соискатель

Национального университета Узбекистана,
Доктор философии по социологическим наукам (PhD)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена теоретическим аспектам развития потенциала государственных гражданских служащих. В частности, акцентировано внимание на зависимость эффективности государственной службы от профессионализма, необходимых знаний, квалификации и навыков государственных служащих. При этом, с использованием социального подхода этапы профессионального развития изложены через переход индивида из одного социального слоя в другой и проанализированы взгляды социологов-классиков. Освещены вопросы подготовки, переподготовки и повышения квалификации, развития

современных профессиональных навыков, личных и духовно-нравственных качеств высококвалифицированного кадрового состава как основные задачи кадровой политики государства. Проведен анализ социальных факторов, влияющих на развитие потенциала государственных служащих.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, развитие профессионального потенциала, профессиональное развитие, получение профессиональных знаний, профессиональное мастерство, компетенция, «lifelong learning», «soft skills», «hard skills».

Khojiev Zavkiddin

Independent researcher of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD),

THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL POTENTIAL OF PUBLIC CIVIL SERVANTS

ANNOTATION

This article is devoted to the theoretical aspects of developing the potential of state civil servants. In particular, attention is focused on the dependence of the effectiveness of the civil service on the professionalism, necessary knowledge, qualifications and skills of civil servants. At the same time, using the social approach, the stages of professional development are outlined through the transition of an individual from one social layer to another and the views of classical sociologists are analyzed. The issues of training, retraining and advanced training, development of modern professional skills, personal and spiritual and moral qualities of highly qualified personnel as the main tasks of the state personnel policy are covered. An analysis of social factors influencing the development of the potential of civil servants was carried out.

Key words: state civil service, development of professional potential, professional development, obtaining professional knowledge, professional skills, competence, “lifelong learning”, “soft skills”, “hard skills”.

KIRISH

Hozirgi kunda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar davlat xizmatchisi faoliyatini sifat jihatdan o‘zgartirishni talab qiladi. Davlat xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish masalasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq tizimda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan uzlusiz va dinamik jarayon hisoblanadi. Davlat xizmatining samaradorligi birinchi navbatda davlat xizmatchilarining professional jihatdan yetarli bilimga egaligida aks etadi. Xodimlar kasbiy mahorati va bilim darajasi pastligi sifatsiz qarorlarni qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida davlat xizmatchilariga qo‘yilayotgan talablarga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, birinchi navbatda yuqori bilimga, keng dunyoqarashga, teran tafakkurga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, muammolarni tezkorlik bilan hal qiladigan, tezkor qarorlar qabul qila oladigan, muammoni o‘rganish va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘yan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur, degan g‘oyalari siyosiy jihatdan ahamiyat kasb etib borayotganligini ko‘rish mumkin [1]. Shu sababli professional davlat apparatini shakllantirish mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu o‘z navbatida davlat xizmatida malakali kadrlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga dolzarb qilib qo‘ymoqda.

METODOLOGIYA

Shaxsni jamiyatda rivojlantirishning sotsiologik tahlili O.Kont, G.Spenser, P.Burdye, G.Zimmel, E.Dyurkgeym, P.Sorokin va boshqa olimlarning ishlarida asoslab berilgan bo‘lib, ular ijtimoiy xulq-atvor, individlarning jamiyatdagi roli, barqaror ijtimoiy amaliyot va boshqa tayanch tushunchalar sifatida ko‘rsatib berishgan va “... jamiyat shunga intilishi lozimki, bunda shaxs o‘z qobiliyatlarini rivojlantira olishi lozim ...” deb ta’rif berishgan [2].

Sotsiologik yondashuvni qo‘llagan holda professional rivojlanish bosqichlarini individning bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o‘tishida ko‘rish mumkin. Masalan, maktab bitiruvchisi yoki abituriyent maqomidan talabaga, mutaxassisni – davlat tashkilotining xizmatchisi maqomiga o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Har qanday demokratik mamlakat davlat xizmatidagi mansabdor shaxslarning o‘z vakolati doirasida professional bo‘lishiga va fuqarolarga yuqori darajadagi xizmatni ko‘rsata olishi lozimligiga intiladi. Davlat xizmatchisi o‘z malakasini uzlusiz ravishda oshirishi va shu orqali lavozim pog‘onalarida bosqichma-bosqich o‘sib borishiga erishadi. Davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish – bu davlat xizmatida inson kapitalini rivojlantirishning muhim elementi hisoblanadi. Ta’lim mamlakatning, inson kapitalining taraqqiyot darajasiga bevosita ta’sir etuvchi omil. Olimlarning ta’rifiga ko‘ra, ta’lim – «murakkab va serqirra jarayon hisoblanib, mazkur jarayon ilmiy asosda tashkil etilgandagina kutilgan samarani berishi mumkin» [3]. Bilim jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarni takomillashtirish va davlat xizmatchilari professionalligining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat kadrlar siyosatining asosiy vazifalaridan biri bu davlat fuqarolik xizmatida yuqori darajadagi professional kadrlar tarkibini shakllantirishdan iborat [4]. Shuni yodda tutish lozimki, xodimlarni professional rivojlantirish tizimi davlat fuqarolik xizmati tizimining ajralmas qismi bo‘lib, davlat kadrlar siyosatining doimiy ta’sir doirasida turadi.

Yetakchi ekspert olimlar eng nufuzli oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan salohiyatli bitiruvchilarining olgan bilimlari besh yildan so‘ng eskirishini va muntazam yangilab borish lozimligini ta’kidlab o‘tishgan. Jumladan, fransuz sotsiologi P.Berto tomonidan «kompetentlikni yarim parchalanish davri» tushunchasi muomalaga kiritilgan bo‘lib, inson tahsil olish davrida olgan bilimlarining yarmi muayyan vaqt oralig‘ida eskirib boradi. 1950-yillarda boshlangan ilmiy-texnik inqilob davrida ushbu muddat taxminan 10 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu muddatni 3-4 yilni qamrab olmoqda (ayrim faoliyati turlari bo‘yicha ushbu jarayon yanada qisqarishi mumkin).

Davlat xizmatchilarining professional rivojlanishiga bo‘lgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, nazariy tadqiqotlarda bu jarayon ko‘p qirrali bo‘lib, ushbu holat o‘z kasbining yetuk mutaxassisini sifatida rivojlanib borishida, professional ta’lim olishida, malakasi oshishida, karyerasining o‘sishida va umuman davlat xizmatini o‘tashida o‘z aksini topadi. Ta’kidlash lozimki, davlat fuqarolik xizmatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ham xodimlarning professional rivojlanishiga va lavozim pog‘onalarida o‘sishini belgilab beruvchi normalarga keng o‘rin berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-sон “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuning 42-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzlusiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi belgilab qo‘ylgan [5]. Shuningdek, qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta’lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzlusiz ravishda oshirishning asosiy shakllari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli davlat xizmatchilarining professional rivojlantirish o‘rganish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qonunga muvofiq davlat organlari davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlashni, ularning malakasi oshirilishini va ta’lim olishini muntazam ravishda tashkil etadi.

Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati yuqori darajada tashkil qilingan, huquqiy jihatdan mustahkamlangan, kechayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qila oladigan, olib borilayotgan islohotlarning istiqbolini ko‘ra oladigan va qabul qilinayotgan qarorlarni hayotimizga olib kira oladigan professionallar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi lozim.

«Professional rivojlanish» tushunchasi «professional bilim olish» tushunchasiga qaraganda keng ma’noga ega. Professional bilim olish – bu davlat xizmatchisining bilimi va bilishi zarur bo‘lgan

jihatlar orasidagi farq bo'lsa, professional rivojlanish – bu xizmatchining butun faoliyati davomida kasbiy malaka va qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan harakat sifatida tushunish mumkin. Bunda rivojlanish nafaqat tajribasini oshirish, maxsus bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallashi, balki muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirishni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini professional rivojlantirishni boshqarish masalasiga murakkab va ko'p qirrali sifatida tizimli yondashuvni talab qiladi. Xodimlarni yuqori darajadagi professional tayyorlash quyidagi komponentlardan iborat:

birinchidan, kompetensiyalar modelini yaratish – insonning samarali ishlash uchun zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tizim. Ushbu tizim davlat xizmatchilarining tashkilotni samarali ishlashi, maqsadiga erishishi va vazifalarni amalga oshirishiga ta'sir qiluvchi bilimi, qobiliyati, malakasi va shaxsiy ishchanlik sifatlariga bo'lgan yagona talablarni aniqlab olish uchun ishlab chiqiladi.

Kompetensiyalar modeli rahbarlar va inson resurslari bilan ishlash bo'linmalari uchun amaliy boshqaruv instrumenti bo'lishi lozim. Bunda, lavozim yo'riqnomalari va talablarini ishlab chiqish, xodimni baholash, rejalashtirish, talabgorlarni tanlash va moslashishi, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish rejalarini shakllantirish, nomoddiy motivatsiyalash, shuningdek, ustoz-shogird tizimi, kadrlar rezervi va rotatsiyani shakllantirish uchun amaliy jihatdan qulay bo'lishini e'tiborga olish lozim.

Ikkinchidan, davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini kompleks baholash. Baholash natijalari tahliliga asosan xodimni yoki tashkilotni kelgusida rivojlantirish uchun tegishli reja ishlab chiqilishi lozim. Rivojlantirish tizimi xodimning aniq imkoniyatlari va kompetensiyalarga asoslangan holda ishlab chiqilishi lozim. Bunda professional rivojlantirish masalasi xizmatchini yangi majburiyatlarini, lavozimni o'zlashtirishi, yangi vazifalarni hal qila olish jarayoniga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Uchinchidan, individual rejalar asosida xizmatchilarni shaxsiy professional rivojlanishini kuzatib borish. Bunda rahbarlik rezervidagi, yosh xodimlarni rahbarlik lavozimiga tayyorlash, amaliy rivojlantirish rejalarini bajarishga, jamoani yoki xodim faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi shaxsiy va ishchanlik potensialini rivojlantirishni ta'minlab borish zarur.

Ko'rsatib o'tilgan yondashuvlarning e'tiborli jihatlari quyidagilardan iborat: istiqbolda xodimni tashkilotga sodiq qilib tayyorlash va shakllantirish imkoniyatini mayjudligi; mehnat bozorida malakali kadrlar tanqisligi sharoitida malakali mahalliy kadrlarni tayyorlashga imkoniyat yaratilishi; xodimlarni o'zini-o'zi takomillashtirishni rag'batlantirish orqali xizmatchilarning umumiy malakasini oshirish va boshqalar.

To'rtinchidan, amaliy yo'naltirilgan ta'lism dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish, bunda ta'lism trayektoriyasining individual jihatlarini e'tiborga olgan holda keng tarkibdagi ta'lism kurslarini yo'lda qo'yish lozim.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining professional rivojlantirish deganda kasbiy mahorati va malakasini oshirishi orqali shaxsiy sifatlarining o'zgarish jarayoni tushuniladi [6].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy yondashuvlarga asosan «professional rivojlantirish» tushunchasi keng qirrali xususiyatlarga ega va uning quyidagi tarkibiy tuzilishlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1) professional-malakaviy rivojlantirish, davlat xizmatchilarini o'qitish va mustaqil ta'lism olishi orqali yangi kasbiy bilim va malakasini rivojlantirish;
- 2) lavozim pog'onalarida professional rivojlantirish, davlat xizmatchisini aniq bir davlat tashkilotida foydalanish uchun va lavozim pog'onalarini o'stirish;
- 3) shaxsiy-professional rivojlantirish, o'zgaruvchan integrativ jarayon bo'lib, xizmat faoliyatida o'zini ko'rsata olishi va rivojlantirishga tayyorlovchi shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini o'zgarishiga bog'liq;
- 4) professional-etikasini rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsiy va axloqiy-madaniyatini yuksaltirish;

5) xizmat faoliyatida til bilishini rivojlantirish, ya’ni til bilishi va nutq madaniyatini, shu jumladan fikrlarini yozma ravishda ifoda eta olishi lozim;

6) axborot-texnologik jihatdan rivojlantirish, bugungi raqamlashgan jamiyatda bu boradagi bilim va malakalarini oshirib borishi.

Rus olimi P.G.Sidorov professional rivojlanishining yana bir diqqatga sazovor jihatini, ya’ni davlat tashkilotlarida xizmat karyerasining lavozim pog‘onalaridan bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutuvchi professional rivojlanishni ajratib ko‘rsatadi. Bunday sifatli rivojlanish xodimlarning lavozim pog‘onalaridan bosqichma-bosqich karyerasining o‘sib borishida, ya’ni shaxs maqomining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi [7].

Davlat fuqarolik xizmatchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish xodimning kasbiy o‘sishi bilan bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi. Kasbiy o‘sish tushunchasining mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: kasbiy-malaka oshirish, odatda davlat xizmatchilarini tayyorlash va mustaqil ta’lim, ya’ni, ularning yangi bilim va tajribaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq; kasbiy-lavozim bo‘yicha rivojlanish, bu lavozimda o‘sishi bilan bog‘liqdir, xizmatchini ham muayyan davlat organida, ham (xizmat rotatsiyasini hisobga olgan holda) davlat boshqaruvining butun tizimi manfaatlari yo‘lida ishlatalish imkoniyati beradi; shaxsiy-kasbiy rivojlanish, xizmatchi o‘z faoliyati davomida o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon qilishga tayyorlik va imkoniyatlarni ta’minlaydigan, shaxsiy va kasbiy xususiyatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq [8].

Ayrim ekspertlarning fikriga ko‘ra, davlat xizmatchilarining ta’lim olishi boshqa sohadagi mutaxassislarga qaraganda keng qamrovli bo‘lishining e’tiborga olish, bunda ularning shaxsiy va ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirib borish zarur bo‘ladi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari davlat xizmatchilarining oliy o‘quv muassasalaridagi professional ta’lim olishi jarayonida professional moslashuvi, professional ijtimoiylashuvi va professional oriyentatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Quyidagi rasmda davlat xizmatchilarining professional rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar ko‘rsatib berilgan.



1-rasm. Professional rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar

Amerikalik olim D.Syuperning fikriga ko‘ra, ijtimoiy va shaxsiy omillarning birgalikda olib borilishi orqali xodimning professional rivojlanishini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy maqomi va intellektual qobiliyatları individning sifatli ta’lim olishiga xizmat qiladi. Yetarli bilimga ega bo‘lgan insonlar o‘z imkoniyatlari va resurslarini samarali foydalanishadi, professional rivojlanish barqarorlashib boradi [9].

Ta'kidlash lozimki, yoshi kattalarni «muntazam o'qitish» bugungi kundagi yangi tushuncha emas. Antik davrlardan buyon Senekaning «umrbod yasha – umrbod o'qi» mazmunidagi ibratli ma'naviy so'zlari insonlarning umri davomida salohiyatini oshirishga undab kelgan [10].

Uzlucksiz ta'lif tizimi («continuing education») va keng tarqalgan «Lifelong Learning» («hayot davomida ta'lif olish») ta'lif strategiyasining taqqoslagan holda shuni aytish mumkinki, ko'rsatib o'tilgan jarayonlarning asosiy g'oyasi individni butun hayoti davomida rivojlantirishni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu tamoyillar asosida davlat xizmatchilarining salohiyatini oshirish, ayniqsa butun faoliyati davomida zarur bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirib borishga e'tibor qaratilgan.

Sotsiologik nuqtayi nazardan individning ijtimoiy xulq-atvori kontekstida xodimlarning professional jihatlari ko'zga tashlansa, davlat xizmatchilarining professional xususiyatlari kasbiy funksiyalarni amalga oshirish jarayonida shaxsiy sifatlari va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda professional funksiyani T.Parsons professionallikni keng tarqalgan Agil (Adaptation – Goal – Attainment – Integration – Latency) tarkibiy funksionalizm nazariyasi orqali ko'rib chiqadi [11].

Davlat xizmatchilarini salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv, subyektiv va subyektiv-obyektiv omillar quyidagi rasmda ochib berilgan.



2-rasm. Davlat xizmatchilarini salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Afsuski, zamonaviy taraqqiyot sharoitida davlat boshqaruvi jarayonidagi ayrim byurokratik to'siqlar davlat xizmatchilarini salohiyatini oshirish jarayonini real hayotga moslashtirgan holda amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Prezidentimiz kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga to'xtalib, «Oldimizga qo'ygan maqsad-muddaolarga yetish uchun kadrlarning amaliy zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o'z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqtি keldi, deb o'ylayman. Asosiy vazifa — bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat», deya ta'kidlagan [12].

O'zbekistonda davlat xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ularning salohiyatini rivojlantirish tizimini muntazam tahlil etib borish, undagi muammolarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan o'rganib borish orqali mazkur tizimni yanada takomillashtirish va modernizatsiyashga qaratilgan tegishli xulosa, amaliy takliflar ishlab chiqish muhim o'rinn tutadi.

Shunday qilib, davlat kadrlar siyosati tamoyillarini shakllantirishning yetakchi tendensiyasi kadrlar tarkibining professional mahoratini oshirish orqali davlat xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirishdan iborat bo'lsa, professional sifatlarni rivojlantirish vazifasi kasbiy kompetensiyalarini oshirishga e'tibor qaratilishi bilan o'zgartirildi. Davlat xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish

masalasi mehnati faoliyati va xizmatni o‘tash bosqichlarida turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladi hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi O‘RQ-788-son Qonunining 21-moddasida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun kasbiy kompetensiyasini shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlashni, uning malakasini oshirishni, ta’lim olishini tashkil etish hisobidan ta’milanishi belgilab qo‘yilgan [5].

Davlat xizmatchilarini butun faoliyati davomida malakasini muntazam ravishda oshirib borish va ulardagи ta’lim madaniyatini yuksaltirish kelgusida davlat fuqarolik xizmatida yuqori darajadagi samaradorlikka erishish uchun muhim ahamiyatga ega [13].

Bugungi kunda kechayotgan jarayonlar davlat xizmatchilaridan tez moslashuvchanlikni, yuqori darajadagi bilim va ko‘nikmalarni bilishini taqozo qilmoqda. Davlat xizmatiga nomzodlar ishchanlik va shaxsiy sifatlari, professional mahorati va egallagan ko‘nikmalari asosida ishga qabul qilinadi. Davlat xizmatchilarining salohiyatini oshirish masalasi ularni keyingi ta’lim olishini taqozo qiladi. Davlat boshqaruv qarorlarini samarali va sifatli qabul qilish xodimlarning keyingi sifatli ta’lim olishiga bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Respublikamizda 2022-yilda davlat xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bugungi kundagi zamonaviy davlat xizmatchisi quyidagi ko‘nikmalar (soft skills)ga ega bo‘lishi lozim hisoblanadi. Jumladan, muloqot qilish (71%), kechayotgan o‘zgarishlarga moslashuvchanlik (63%), tanqidiy fikrlash (50%), loyihani boshqarish (47%), muammoni hal etish (70%), emotsiyonal intellekt (37%), ziddiyatlarni boshqarish (45%) va jarayonlarni takomillashtirish (58%) kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligi bildirilgan. Ko‘rsatib o‘tilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqot qilish, muammolarni hal qilish va kechayotgan jarayonlarga nisbatan moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalar bugungi kunda davlat xizmatchilarining faoliyatidagi asosiy mezonlardan bo‘lib qolmoqda.

ManpowerGroup kompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan “Bandlik istiqbollari tadqiqoti” (The Employment Outlook Survey) mavzusidagi so‘rov natijalariga muvofiq, ish beruvchilar tomonidan eng ko‘p talab qilinadigan va eng ko‘p qadrlanadigan shaxsiy xususiyatlar (soft skills) beshtaligini ham ma’lum qildi: 1) ishonchlilik va shaxsiy intizom; 2) chidamlilik va moslashuvchanlik; 3) mulohazakorlik va muammolarga yechim topa bilish; 4) ijodkorlik va o‘ziga xoslik; 5) tanqidiy fikrlash va tahlil qilish [14].

Darhaqiqat, zamonaviy taraqqiyot sharoitida davlat xizmatchilarining salohiyatini muntazam oshirish, ularni bugungi kun talablariga moslashtirib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) «Ish o‘rinlari kelajagi 2020» hisobotida 2025-yilda dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan quyidagi 15 ta top ko‘nikmalar (soft skills) ro‘yxati taqdim etilmoqda [15].

2025-yilda eng dolzarb bo‘ladigan 15 ta ko‘nikmalar (soft skills)		
tahliliy firklay olish va innovatsiyalarga nisbatan ochiqlik	liderlik va ijtimoiy ta’sir	hissiy intellekt
faol o‘rganish va ta’lim olish strategiyalari	texnologiyalardan foydalanish, monitoring va nazorat qilish	muammolarni bartaraf etish va foydalanuvchanlik
kompleks muammolarni hal qilish	texnologiyalar dizayni va dasturlash	mijozga yo‘nalganlik
tanqidiy fikrlash va tahlil	bardoshlik, stressga chidamlilik va moslashuvchanlik	tizimni tahlil qilish va baholash
ijodkorlik, o‘ziga xoslik va tashabbuskorlik	mulohazalik, muammoni hal etish va g‘oyalarni shakllantirish	ishontirish va muzokaralar olib borish

3-rasm. 2025-yilda eng dolzarb bo‘ladigan 15 ta ko‘nikmalar (soft skills)

Ko‘rsatib o‘tilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tahliliy fikrlash, innovatsiyalarga nisbatan ochiqlik, faol o‘rganish, o‘z ustida ishlash, kompleks muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlar xodimlardan eng ko‘p talab qilinadigan ko‘nikmalar sifatida joy olgan. Shu sababli, yangi texnologiyalar davri kelgusida tanqidiy fikrlay va tahlil qila oladigan, faoliyatiga ijodiy yondashuvchi, tashabbuskor, tashkilotchilik va liderlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan hamda ijtimoiy ta’sir qila olish ko‘nikmalariga ega xodimlarga bo‘lgan ehtiyojni tubdan oshiradi.

Mutaxassislar davlat xizmatchilariga qo‘yiladigan quyidagi ikkita jihatlarni ajratib ko‘rsatadilar. Birinchisi – o‘z ishiga bo‘lgan mas‘uliyatni tubdan o‘zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish bo‘lsa, keyingi ustuvor jihat – davlat xizmatchilariga bildirilgan ishonch, vazifaga munosib ravishda bilim, tajriba va yuqori malakaga ega bo‘lishlari, o‘z ishining ustasi va sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilishlaridir [16].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonga xalqimizning orzu-intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch, deb biladigan, bilimdon va qat’iyatli rahbarlar zarur. Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va o‘z xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarни o‘zlashtirgan, yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilishga qaratilgan kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettiramiz, deb ta’kidlab o‘tgan [17].

Shu o‘rinda, mamlakatimizdagi davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini oshirish masalalarini tahlil qilishdan oldin 2022-yilda 1200 dan ortiq davlat fuqarolik xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga to‘xtalib o‘tish lozim. Xususan, ryespondentlarga mehnat faoliyatizingizda malaka oshirish va professional salohiyatni oshirib borish kerak, deb hisoblaysizmi mazmunidagi savol bilan yuzlandik va ulardan turli natijalar olindi. So‘rovda ishtirok etganlarning 51% mehnat qilayotgan tashkilotlaridagi malaka oshirish imkoniyatlarini ijobiy baholagan. Shu bilan birga, respondentlar ko‘plab tashkilotlar o‘z sohalari bo‘yicha tayyorlash va malaka oshirish tizimini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamaydilar, bu esa o‘z navbatida mehnat unumdarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ishtirokchilarning 70,8% qismi albatta, malaka oshirish va kasbiy tayyorgarlik orqali davlat xizmatchilarining salohiyatini oshirib borish lozim, degan fikrni ilgari surdilar. Bu albatta ijobiy jihatlardan biri hisoblanadi. Chunki globallashuv davrida ilm-fan va texnika shiddat bilan rivojlanib borishi davlat xizmatchilaridan yangi zamonaviy bilimlarni yanada o‘zlashtirishlarini taqozo qiladi. 20,8% ishtirokchilar xodimlarning professional salohiyatini oshirish orqali mehnat faoliyatini takomillashtirib borishga erishiladi, degan mulohazani ilgari surmoqdalar. 2,8% respondent esa mehnat faoliyatida kasbiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etmaydi, degan fikrni bildirishdi. Umumiyy nuqtayi nazardan olib qaraladigan bo‘lsa, deyarli 90% dan ortiqroq so‘rov ishtirokchilari mehnat faoliyatida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligini qo‘llab-quvvatlashmoqda. Umuman olganda, bugungi kundagi raqobatni muvaffaqiyatl yengib o‘ta oladigan xodimni yaratish uchun tashkilotlar va kompaniyalar ikki yo‘nalishda harakat qilishlari zarur bo‘ladi. Xususan, texnologik o‘zgarishlar va bozor ehtiyojlariga muvofiq ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lgan talabgorlarni ishga yollash, ularni tayyorlash va monitoring qilish tizimini shakllantirish hamda “Lifelong Learning” g‘oyasini ilgari surish orqali uzlusiz mustaqil ta’lim olish dolzarb bo‘lib qoladi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ko‘p jihatdan davlat xizmatchilariga va ularning professional mahoratiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan ham davlat xizmatchilarining salohiyatini oshirish sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish dolzarb masala sifatida o‘z yechimini kutmoqda.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan nazariyalar va fikrlarning xulosa qilib, davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash ularning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash orqali ularning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, davlat xizmatini o‘tashdagi muhim bosqich sanaladi. Davlat xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha o‘rganilgan tajriba asosida quyidagi taklif va mulohazalar bildiriladi:

birinchidan, malakali davlat xizmatchilar korpusini yaratish, tizimlilikka asoslangan uzlusiz ta’lim tizimi («continuing education») va «Lifelong Learning» («hayot davomida ta’lim olish») ta’lim strategiyasini davlat xizmatiga joriy etish;

ikkinchidan, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, raqamli texnologiyalar yordamida (elektron kitoblardan foydalanish, raqamli kontentni yaratishga) ta’limni yangicha yondashuvlar asosida davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash natijalari asosida ularning malakasini oshirish kurslarini ishlab chiqish;

uchinchidan, davlat xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ularning nafaqat professional bilimlarini (hard skills), balki qobiliyatlari, ijtimoiy va boshqaruv faoliyatiga oid ko‘nikmalarni (soft skills) rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq qilish lozim.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь // <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
2. Сорокин П. Система социологии. Социологическая аналитика: учение о строении сложных социальных агрегатов. – М.: Наука, 1993. Т. 2. – С. 316.
3. Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси: методологик-услубий, норматив-хуқуқий ва илмий ташкилий йўналишлари. – Тошкент , 2013. – Б. 99.
4. Проблемы профессионального развития и кадровых процессов на государственной гражданской службе: социологический анализ: монография / под общ. ред. А.И. Турчинова. – М.: Издательство ООО «Буки Веди», 2014. – С 8.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги ЎРҚ-788-сон Қонуни // <https://lex.uz/uz/docs/6145972>.
6. Богдан Н.Н., Бушуева И.П. Управление непрерывным профессиональным развитием государственных гражданских служащих (региональный аспект). Монография. РАНХиГС, Сиб. ин-т упр. – Новосибирск: Изд-во СибАГС, 2014. – С. 47.
7. Сидоров П.Г. Профессионально-должностное продвижение государственных служащих в органах государственной власти в аспекте социальных процессов. Автореф. дис. ... канд. соц. наук: 22.00.24. Хабаровск, 2003. С. 9-11.
8. Бушуева И.П. Управление профессиональным развитием государственных гражданских служащих: региональный аспект. Дисс. ... канд. соц. наук: 22.00.08. Нижний Новгород, 2015. – С. 33.
9. Super D. Careers and Jobs [Карьера и работа]. – N.Y., 1983. P. 83-87.
10. <https://theocrat.ru/idioms/content-60766/>
11. Парсонс Т. Некоторые проблемы общей теории в социологии. – М.: ИНИОН РАН, 1994. С. 80.
12. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 162.
13. Civil Service Modernisation in ASEAN: Towards A Future-Ready Civil Service. Jakarta: ASEAN Secretariat, October 2021 // <https://asean.org/wp-content/uploads/2021/10/FINAL-Study-Report-on-Civil-Service-Modernisation-in-ASEAN-9-Oct-21.pdf>
14. ManpowerGroup компанияси томонидан ўтказилган «Бандлик истиқболлари тадқиқоти» (The Employment Outlook Survey) натижалари, https://go.manpowergroup.com/hubfs/MEOS/2022_Q3/Q3%20MEOS%20Global%20Report.pdf
15. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2020. Top 15 skills for 2025., P. 36. https://www3.weforum.org/docs/WEF_Future_of_Jobs_2020.pdf
16. Матибоев Т.Б. Ижтимоий ҳамкорлик хуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти курилишининг муҳим омили. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 78.
17. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – Б.101.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Ixtiyarov Farxod

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI DA KEYS METODI IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirish jarayonida keys metodi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir fikrlar bayon qilingan. Inson kapitalini rivojlantirish jarayonida o’qitishning keys-stadi usulidan foydalanish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi, metodni qo’llash maqsadlari, mashg’ulotlarni o’tkazish shakli, ishlarning turlari, shuningdek, mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish va o’tkazish bosqichlari ko’rsatilgan. Keys metodi bu inson hayotida duch keladigan turli xil muammoli vaziyatlarni hal qilishda qo’llaniladigan medot hisoblanadi. Mazkur usuldan amaliyotda keng foydalanish, ayniqsa boshqaruvsda muammolarni hal qilish va qarorlarni qabul qilishda keng qo’llash o’zining samarasini beradi. Mazkur texnologiya predmetni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishni, amaliy ko’nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to’g’ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi. Turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so’zlar: keys-stadi, inson kapitali, deduktiv tafakkur, sillogizm, analogiya, ijtimoiy kapital.

Ихтияров Фарход

независимый соискатель “Национального университета
Ташкентского института ирригации и механизации сельского хозяйства” при
исследовательском институте управления Бухарского природного института
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КЕЙС-МЕТОДА В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражены выводы об эффективном использовании возможностей кейс-метода в процессе развития человеческого капитала.

Возможность использования кейс-метода обучения в процессе развития человеческого капитала, цели использования метода, форма обучения, виды работ, а также этапы подготовки

и проведения анализируются в работе. Кейс-метод – это метод, используемый для решения различных проблемных ситуаций, встречающихся в жизни человека. Широкое использование этого метода на практике, особенно при решении задач и принятии решений в управлении, дает свои результаты.

Данная технология развивает интерес к освоению предмета, практические навыки, навыки творческого подхода к анализу ситуации и принятию правильного решения, рассматривает разнообразные проблемные ситуации и возможности их решения.

Ключевые слова: кейс-стади, человеческий капитал, дедуктивное рассуждение, силлогизм, аналогия, социальный капитал.

Ikhtiyorov Farhod

Researcher “Tashkent irrigation and mechanization of agriculture Institute of Engineers” is a freelance researcher at the Bukhara Institute of Environmental Management of the National Research University.
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

EFFECTIVE USE OF THE POSSIBILITIES OF THE CASE METHOD IN THE PROCESS OF DEVELOPING HUMAN CAPITAL

ANNOTATION

This article reflects the conclusions on the effective use of case method opportunities in the process of human capital development in management.

The possibility of using the case-study method of training in the process of human capital development is considered in the management. The purposes of using the method, the form of training, types of work, as well as the stages of preparation and conducting of training are indicated. The case method is a method used to solve various problem situations encountered in human life. Wide use of this method in practice, especially in solving problems and making decisions in management, gives its results.

This technology develops interest in mastering the subject, practical skills, skills of creative approach to situation, analysis and making the right decision, considers a variety of problem situations and the possibility of solving them.

Key words: case study, human capital, deductive reasoning, syllogism, analogy, social capital.

KIRISH

Keyingi paytlarda keys-stadi usuli mamlakatimizda ta’lim tizimi orqali asta-sekinlik bilan ommalashib bormoqda. Mazkur usuldan amaliyatda keng foydalanish, ayniqsa boshqaruvda muammolarni hal qilish va qarorlarni qabul qilishda keng qo’llash o’zining samarasini beradi. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishda mazkur usul ijobjiy ahamiyat kasb etadi. Keys-stadi usuli har qanday vaziyatni o’rganish va tahlil qilishga imkon beradi. Unda muammoli vaziyatni hal qilishda jarayonning umumiyyati mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

METODOLOGIYA

Ma’lumki, “Keys-stadi” usuli ingliz tilida “case” – jomadon, metod, “study” – muammoli vaziyat, holat, jumladan, vaziyat, holat tahlili yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ma’nosini anglatadi. Ayni paytda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarni topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya sifatida qo’llaniladi. Real vaziyatlarni bayon etishda qo’llaniladigan o’qitish texnikasi keys – texnologiyasini loyihalashtirishni nazarda tutadi.

Keys-stadi texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universiteti huquq maktabida muammoli holatlarni o’rganish tajribasi sifatida ta’lim jarayonida qo’llanilgan. Ushbu texnologiyaning ijobjiy samarasi yaqqol namoyon bo’lgach 1920 yildan universitetning biznes maktabida qo’llanila boshlangan. Keyslarning ilk to’plami 1925 yilda biznes haqidagi “Garvard universiteti hisobotlari” da chop etilgan. Hozirda bu texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot,

biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lif jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillikning dastlabki yillarda boshlandi.

G'arbda boshqaruvda jarayonida qo'llaniladigan keyslarning tayyor variantlari ham mavjud. Ularni hatto sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo'l har bir soha bo'yicha keyslarni mustaqil yaratilishiga erishishdir. Ma'lumotlarga qaraganda Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ular 10 dollardan 1000 dollargacha baholanadigan loyihalarni o'z ichiga oladi. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi. Bu amaliyot albatta o'zini oqlaydi. Turli muammolar bo'yicha noto'g'ri, yuzaki yoki davriy yechimlar o'rniqa asoslangan, aniq, maqsadga yo'naltirilgan, foydali yechimlarga ega bo'lish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Mazkur texnologiya predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarini, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi. Turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish imkoniyatini yaratadi.

- Ushbu texnologiyaning asosiy vazifalari quyidalarda namoyon bo'ladi:
- tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- nazariya va amaliyot birligini ta'minlash;
- muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish;
- qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish;
- noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

Albatta, oldindan ijobji natijaga erishish uchun keyslarni tekshirilishi va baholanishi muhim ahamiyatga ega. Yaratilgan keys ekspert tekshiruvi va baholashdan o'tishi kerak. Keys loyihasining korxona xodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilar tekshirish usullari sifatida qo'llanishi mumkin.

Keys-stadi yordamida quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin:

- tahliliy ko'nikmalar – ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlash, ahamiyatiga ko'ra kerakli va ikkilamchi darajaga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish, buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak;

- amaliy ko'nikmalar – muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish;

- ijodiy ko'nikmalar – bunda mantiqiylik asosida vaziyat, muammoni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi;

- muloqot ko'nikmalari – unga ko'ra bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur;

- ijtimoiy ko'nikmalar – qarorni muhokama qilish jarayonida boshqalarning hatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim;

- o'z-o'zini tahlil – bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim;

- har bir keys topshiriqlari puxta asoslanishiga erisha olish lozim.

Keys topshiriqlarining amaliy – didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsadni aniq ifoda etish, ya'ni maqsadni ikki xil yoki undan ortiq tushunilmasligi;
- savol yoki topshiriqlarning ma'lum darajada murakkab bo'lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yorita olishi;
- tezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;

- tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta'minlay olishi.

Ma'lumki, inson hayoti investitsiyalar yordamida yaxshilanishi mumkin bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash jarayonida shakllanadi. Inson kapitali nazariyasining asoschilaridan biri T.Shults investitsiyalar shakliga qarab quyidagi kapital turlarini asoslab beradi :

- ta'lim jarayonining rivojlanishi;
- ish, mehnat ko'nikmalari asosida rivojlanish;
- sog'liqni saqlash, salomatlikni mustahkamlash;
- iqtisodiyot sohalarida o'sib borayotgan bilim va ko'nikmalar.

G.Bekker esa o'zining ilmiy qarashlarida, inson kapitali orqali uning bilim, ko'nikma va motivatsiyalari bir butunligini tushuntirib o'tgan . Shu tariqa, har ikki olim ham inson kapitalini mehnat bozorida sotish mumkin, degan fikrga qo'shilgan. Bunday kapitalning to'planishi ko'p vaqt, katta miqdordagi xarajatlar, murakkab investitsiyalarni talab qiladi:

- uzoq muddat foydalaniladigan ne'mat;
- doimiy xarajatlar bilan bog'liq xususiyat;
- jismoniy eskirish foydali xususiyatlarini yo'qotish bilan bog'liq .

Inson kapitali nazariyasida G.Bekker individual va ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan ichki qaytim normasi tushunchasini kiritdi. Birinchidan, investitsiyalarni aniq investorlar nuqtai nazaridan kiritishni tavsiflaydi, ikkinchidan butun jamiyat nuqtai nazaridan ularning samaradorligini baholaydi. Shunday ekan, qaytim normasi, o'z navbatida, ta'limning har xil turlari va darajalari o'rtasida va butun iqtisodiyot ham uning har xil sektorlaridagi ta'lim tizimi o'rtasidagi investitsiyalarni taqsimlash regulyatori sifatida namoyon bo'ladi.

Inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar G.Bekkerning asarlariada ham T.Shultsning asarlardagi singari jismoniy kapitalga quyilmalarga nisbatan sezilarli darajada oshishi ta'kidlangan. Amerikalik iqtisodchi L.Turov tadqiqotlarida inson kapitalini unumdarlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. U inson kapitalini odamlarning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati sifatida belgilaydi. Bu nafaqat shaxsga yo'naltirilgan alohida ishlab chiqarish sarmoyasi, balki boshqa sarmoyalarning samaradorligiga ham ta'sir qiladi . Shuningdek, P.Romer ham ushbu yondashuv tarafdori bo'lib, inson kapitalini iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy manbai sifatida talqin qiladi. U yangi bilimlarning manbai – aynan inson kapitali ekanligini ta'kidlagan.

Inson kapitalini rivojlantirishda deduktiv tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Undan umumiy tushunchadan juz'iy fikrga o'tishda, yoshlarda mustaqil, tanqidiy, tahliliy fikrlashni shakllantirishda, mantiqiy zaruriy xususiyatga ega bo'lishda, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar turli shakllarini namoyon qilishda foydalanish mumkin.

Ma'lumki, aksiomalar isbotsiz chin deb qabul kilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Deduktiv tafakkur sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning xajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin. Sillogizm aktsiomasini quyidagicha ifodalash mumkin: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bulsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumniig ichida bulsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bulsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashkarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan buladi». Bu koidani kuyidagi shakllar yordamida yakkol ifodalash mumkin.

Analogiya (grek. - moslik, o'xshashlik) bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chikarishda fikr umumiylidkan juz'iylikka qarab, induktsiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada predmet va hodisalarning o'xshash belgilarga qarab xulosa chiqariladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda analogiyada predmetlarning o'xshash xossalariiga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda ob'ektiv turli-tumanlik bilan bir katorda, ob'ektiv uxshashlik xam mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Ob'ektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalalar tuzilishi jihatdan o'xshash bo'lsa, ular aks etgirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar

ham ma'lum ma'noda o'xhash bo'ladi. Analogiya buyicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mayjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkiblaridagi o'xhashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o'xhashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalari o'xhashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi.

I.Kepler planetalar harakatining qonunini ochganda, samoviy jismlarning o'zaro tortishish kuchini insonlar o'rtasidagi muhabbatga taqqoslaydi, shu asosda astronomiyaga tortishish kuchi tushunchasini kiritadi. Munosabatlar analogiyasining formulasi quyidagicha:

Munosabatlar analogiyasida ikki predmetlar o'xhashligi haqida emas, ikki predmet o'rtasidagi munosabatni qurgan ish asosida boshqa ikki predmet o'rtasidagi munosabat haqida xulosa chikdriladi.

Buyuk Britaniya, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va Turkiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalari hamda bir qator xalqaro tashkilotlar amaliyoti jumladan, BMTning Umumjahon inson huquqlari dekloratsiyasi, BMTning Yangi ming yillik taraqqiyot dasturi (UN New Millennium Goal), BMT Rivojlanish Dasturining "Barqaror rivojlanish maqsadi" (UNDP Sustainable Development Goal), Inson rivojlanish ko'rsatkichlari va indikatorlari (Human Development Indices and Indicators), XMT, Xalqaro mehnat konferentsiyasi, BSST, Xalqaro ergonomika assotsiatsiyasi, BMT sanoatni rivojlantirish tashkiloti, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti, Global kasbiy sog'liq va xavfsizlik Koalitsiyasi (The Global Coalition for Safety and Health at Work), Kasbiy sog'liq bo'yicha xalqaro komissiya (International Commission on Occupational Health), BMT tarkibidagi Canitariya va gigiena jamg'armasi, Xalqaro ijtimoiy xavfsizlik assotsiatsiyasi (ISSA), Inson rivojlanish ko'rsatkichlari va me'zonlari (Human Development Indices and Indicators), Jahon ijtimoiy himoya hisoboti (World Social Protection Report), Global trendlar: Kengayib borayotgan qurilishdagi mehnat bozorlar (Global Trends: Emerging Construction Labor Markets), 2030 yillar uchun qurilish sanoatining global bashoratlari (A global forecast for the construction industry to 2030), Inson resurslari yillik hisoboti (Human Resources Annual Report), Inson resurslari hisoboti (Human Resources Report), Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index), Inklyuziv taraqqiyot indeksi (The Inclusive Development Index) kabi bir qator global indekslar tadqiq etilgan.

Hamyurtimiz, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning fikriga ko'ra "Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi bilan emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi" [12. -B. 31-44], degan fikri ilgari suradi. Inson kapitalini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan bir qator g'arb olimlarining fikr va qarashlariga e'tibor qaratamiz.

Inson kapitalini muntazam ravishda rivojlantirib borish bilan sotsiolog, psixolog va iqtisodchi olimlar shug'ullanishini hisobga oladigan bo'lsak, ular asosan mikro darajada - shaxsning rivojlanishi, mezo-darajada korxona hamda tashkilotlarni rivojlantirish va makro darajada - umuman davlatni rivojlantirish munosabatlarini to'liq qamrab olishi kerak degan fikr ilgari suriladi.

Keysni yechishda muammoli vaziyat bu, bilish predmeti, ob'ekti bilan ilmiy izlanish, ixtiolar yaratish va yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan fikran o'zaro ta'siridir. Muammoli vaziyatning oddiy belgilari mavjud bo'lib, ular noaniq muammolar to'g'risida o'z-o'ziga savol berish, uni hal etish usullari va yo'llarini izlab topishdan iboratdir.

Amerikalik tadqiqotchi M. Porter "Har qanday davlatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit barqarorligining sifati jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar vakillarining intellektual taraqqiyot darjasini, kasbiy faoliyot hamda eng muhimi ijtimoiy ahillik, hamjihatlik, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatda adolatlilik va odamlarning bir-biriga nechog'li ma'naviy bog'langanlik holatiga bevosita bog'liqdir", [11. -B. 608] deydi.

Ma'lumki, dunyoda insonni kompleks rivojlantirish eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'zining Oliy Maslisiga qilgan Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ilgari surdi: "Rivojlangan mohamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarflashga

katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jakmiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atig 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" [2. -B. 1].

Amerikalik professor Rene Foks [10] fikriga ko'ra, odamlarning integrativ xususiyati susayishi, uyushmaganlik fenomeni asosan jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli shakllanib o'ziga xos "affekt" holati yuzaga keladi. Jamiyatda bir ijtimoiy qatlamga g'amxo'rlik qilinib, ya'ni pozitiv yuksalayotgan xodisalarga ko'proq e'tibor berilib, negativ holatlarni ko'rmaslikka intilish, e'tiborsiz qolgan toifa a'zolarida "affekt neytrallikka affekt munosabat" yondashuvini tarkib toptiradi, deydi Affekt munosabat esa jamiyat tinchligi, xavfsizligi va taraqqiyotga zid bo'lgan turli ekstremistik oqimlarga berilish, radikalizm, aqidaparastlik, behayolik, befarqlik illatlariga yo'l ochadi.

Ayni paytda mashhur amerikalik sotsiolog Talcott Parsons odamlarning o'zaro yaqinligiga halal beruvchi omillarni o'rganib umumiy maqsadlar, yalpi ijtimoiy harakatlardan chetda qoluvchilar jamiyat tarkibida uzluksiz ortib borayotgani va bu holat o'ziga xos tendentsiyaga aylanayotganini qayd etadi [10].

Inson kapitalining rivoji shaxsnинг ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, undagi ijtimoiy munosabatlar majmuuni singdirgan inson kapitali ham unga mos bo'ladi. Inson aql-idrok sohibi bo'lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyonni boshqaradi [8. -B 51-55].

Muammoli vaziyat qarama-qarshiliklar aniqlangach yuzaga keladi. Bunda ushbu qarama-qarshilikni hal qiluvchi savolga javob noma'lum bo'ladi. U muammo hisoblanadi. Muammoli vaziyat komponentlari quyidagilar:

- bilish predmeti;
- o'qitish sub'ekti;
- bilish sub'ekti;
- muammoni qo'yuvchi va tinglovchilar dialogi;
- tinglovchining bilishga ehtiyoji;
- tinglovichning bilish mazmuni bilan fikran o'zaro ta'siri.

Shavkat Mirziyoev tomonidan asoslab berilgan faol va mas'uliyatli shaxs kontsepsiysi quyidagi ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etadi:

- inson kapitali zamонавиij ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;
- inson kapitalini rivojlantirish davlat jamiyat va shaxsnинг o'zidan jiddiy sa'y – harakat va xarajatlar talab etadi;
- inson kapitali bilim, tajribalar, strategik rejalar, odamlarning intellektual-ma'naviy darajasi, shuningdek, muayyan maqsadlari. qiziqish va layoqatlari sifatida ham milliy zahira hisoblanadi;
- inson kapitalini rivojlantirish maqsadida qilinuvchi xarajatlar faqat yaqin vaqt mobaynida emas, balki uzoq istiqbolda ko'proq naf keltiradi;
- inson salohiyati uning egasiga ko'rsatiladigan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida inson kapitaliga transformatsiya bo'ladi.

Ta'lim, ma'rifat omili bag'rikeng xalqimiz milliy strategiyasining bosh harakatlantiruvchi kuchi hamda o'ziga xos lokomotivi vazifasini bajarsa, uning ikkinchi muhim jihatini ya'ni, ta'limni bunyodkor kuchga aylantiradigan imkoniyatni – inson kapitali, barkamol shaxs omili tashkil etadi.

Milliy strategiyamizni amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lmish ta'lim omili o'zining bunyodkorlik mohiyatini quyidagilar orqali yorqin namoyon etmoqda:

- Ta'lim va tarbiyaning yuksak insonparvarlik, demokratik, sog'lom raqobat hamda o'zaro yordam muhitida amalga oshirilishi;
- Ta'limning shaxs salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi uzluksizligi va izchilligi;
- Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqligi;

- O'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliv ta'limning inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining zamonaviy kompyuter texnologiyalarini puxta o'zlashtirib, kamida ikkita xorijiy tilni egallayotgani hamda 2-3 ta kasb-hunar sohibi bo'lib hayotga, bunyodkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyor holda kirib borishlari ta'minlanganligi;

- Ta'lim va tarbiyaning insonni kasbiy rivojlantirish jarayonlari bilan uyg'unligi;

- Yuksak malakali mutaxassis bo'lishda ilg'or xorijiy tajribalarga tayanish va ularni maqsadli o'zlashtirib borishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

- Ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi;

- Keng dunyoqarashga egalik, har tomonlama bilmli bo'lishning hamda yoshlar iste'dodini ro'yobga chiqarish jarayonlarining davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va muntazam rag'batlantirilishidir [8. -B 51-55].

XULOSA

Inson kapitalini rivojlantirishda keys metodi imkoniyatlarini samarali tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Inson taraqqiyotiga sarmoya kiritib, jamiyat nafaqat mehnat unumdarligini oshirishga, balki tovarlar, ijtimoiy mahsulotlar va xizmatlarni yanada adolatli taqsimlashga ham erishishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu maqsad-muddaolarga hamohangligi bilan ham ahamiyatlidir.

Fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlashga kiritiladigan har bir investitsiya kishilarning kreativligi, qonunlarga bo'ysunishi, inson kapitalini rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyatda ko'tarinkilik muhiti yuzaga keladi, konstruktiv va ratsional dunyoqarash shakllanadi. Hayot sifatini oshiruvchi nodavlat institutlar paydo bo'ladi. Odamlar sog'lom turmush tarziga o'rganadi. Bularning barchasi xalqimizda kelajakka ishonch kayfiyatini paydo qilib, hayot sifatini yuksaltiradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

- Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021. – Б. 206.
- O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, T.: 2018.
- <https://www.gazeta.uz/ru/2020/09/18/hci/> Всемирный банк оценил индекс человеческого капитала.
- Американская социология. Перспективы проблемы методы / Под. ред. Т. Парсонс. – М., 1972. – 364 с.12. Армстронг М. Практика управления человеческими ресурсами. 10-е изд. / Пер. с англ. под ред. С. К. Мордовина. – СПб.: Питер, 2009. – 848 с.
- Ачкасов В.Р. Национальная идентичность как исторический нарратив // Управленческое консультирование. 2018. – №10. – С. 19-26.
- Балабанов И. Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2000.
- Беккер Г.С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с.
- Беленкова О.А. Роль антропологического фактора управления в формировании человеческого капитала общественного производства // Вестник Башкирского университета. 2014. – №4. – С. 1495-1502.
- Бекмуродов М.Б.Замонавий бошқарув социологияси. Тошкент.: “YOSHLAR NASHRIYOT UYI” 2020.
- Фокс, Renée C. (1989). Социология медицины. Пирсон. ISBN 0138205078.
- Портер М. Конкуренция, М., “Вильямс”. 2006. - С. - 608.
- Rasulova F., Do'stjonov T., Hasanov S. Xorazm Ma'mun akademiyasining olis-yaqin yulduzları. -T.: «IQTISODMOLIYA» 2005,31-44 – betlar.
- Жуков Ю. М. Эффективность делового общения. – М. :Знание, 1998.

-
14. Птицын В. Предвидеть будущее с помощью case-study. – С.34-37.
 15. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Арина, 1994.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Hashimova Gulsina

Farg‘ona davlat universiteti
Ijtimoiy ish kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:gulsinakhoshimova@mail.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TIZIMIDA IJTIMOIY ISH VA UNING FALSAFIY TAHLILI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada harbiy ijtimoiy ish, uning mazmun mohiyati, Qurolli Kuchlarda harbiy ijtimoiy ish institutining paydo bo‘lishi zarurati asoslab berilgan. Harbiy ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyasi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyalash, shuningdek, harbiy ijtimoiy ishning xususiyatlari, bugungi kunda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishning modellari ochib berilgan.

Bo‘ysunuvchilarni himoya qilish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining arizalarini ko‘rib chiqish va hal etish, harbiy xizmatchilarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari bilan o‘zaro hamkorlik va sheriklik faoliyatini muvofiqlashtirish muhim ekanligi haqidagi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: harbiy ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy himoya, harbiy xizmat, harbiy islohotlar, boshqaruvi organlari, harbiy xizmatchilar, ijtimoiy-huquqiy himoya, ma’naviy-psixologik holat, harbiy intizom.

Хашимова Гулсина
Ферганский государственный университет
старший преподаватель
кафедры Социальной работы
e-mail: gulsinakhoshimova@mail.ru

СОЦИАЛЬНАЯ РАБОТА В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ЕЕ ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается военно-социальная работа, ее содержание и определения. Обоснована необходимость появления в Вооруженных Силах института военной социальной работы. Раскрыты современная теория военно-социальной работы, социальной защиты военнослужащих и членов их семей, а также особенности военно-социальной работы, модели социальной защиты военнослужащих сегодня.

Проведен анализ вопросов, имеющих значение для защиты подчиненных, рассмотрения и решения обращений военнослужащих и членов их семей, координации

деятельности по сотрудничеству и партнерству с органами государственной власти и управления, органами местного самоуправления, общественными объединениями.

Ключевые слова: военно-социальная работа, социальное обслуживание, социальная защита, военная служба, военные реформы, органы управления, военнослужащие, социальная и правовая защита, морально-психологическое состояние, воинская дисциплина.

Hashimova Gulsina

Fergana State University

Senior teacher of the department of social work

e-mail:gulsinakhoshimova@mail.ru

SOCIAL WORK IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

ANNOTATION

This article describes military social work, its content and definitions. The need for the emergence of an institute of military social work in the Armed Forces is substantiated. The modern theory of military social work, social protection of military personnel and members of their families, as well as the features of military social work, models of social protection of military personnel today are revealed.

An analysis was carried out of issues relevant to the protection of subordinates, consideration and resolution of appeals from military personnel and members of their families, coordination of cooperation and partnership activities with government authorities, local governments, and public associations.

Key words: military social work, social services, social protection, military service, military reforms, government bodies, military personnel, social and legal protection, moral and psychological state, military discipline.

KIRISH

Dunyoda global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan bir sharoitda barcha mamlakatlarda yangi tahlikalar paydo bo'lmoqda. Bu holat dunyo mamlakatlarini muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy, harbiy strategiyalarni yangilashga majbur qilmoqda. Insoniyat duch kelayotgan ko'plab muammolarni, mamlakatda tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish, pandemiya va boshqa tabiiy ofatlar bilan kurashish kabi muammolarni hal etish jarayonlariga armiyani faol jalb qilishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, har bir mamlakat o'zining harbiy ijtimoiy sohasini, ham ma'naviy, ham iqtisodiy va harbiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, mamlakat xarajatlarining katta qismini shu sohaga yo'naltirmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lish, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni yanada isloq qilish, uning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo'yicha kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirish asosiy masala hisoblanadi [1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda harbiy sohaga munosabat tubdan o'zgardi. Harbiy sohani isloq qilish, harbiy qo'shinlarni har tomonlama rivojlantirishning tezkor mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish strategik vazifalardan biriga aylandi. Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida dolzarb va muhim ahmiyatga ega muammolardan biri, samarali ijtimoiy himoya va aholining turli qatlamlarini, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ishni rivojlantirish masalasidir. Buni muvaffaqiyatli hal etish uchun faoliyatning turli sohalaridagi

mutaxassislar, jumladan, ijtimoiy masalalarining turli nazariyalarini hamda hal qilish usullarini egallagan professional ijtimoiy ishchilar kuchlarini birlashtirish zarur.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish va tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari S.Yu.Ahrorov, I.Yu.Inoyatov, A.T.Zamonov, I.S.Saifnazarov, R.Yu.Qurbanov, R.S.Samarov, K.X.Usmonov, N.J.Eshnaev, B.T.To‘ychiev, U.S.Temirova, Z.Sh.Alimardonov, A.K.Redjaboev [2] kabi faylasuf, huquqshunos, sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, R.Yu.Qurbanovning «Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy istiqlol g‘oyasining o‘rni» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida Qurolli Kuchlar tarkibida amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar va harbiy vatanparvarlik masalalari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, vatanparvarlik tarbiyasi va ijtimoiy masalalar tadqiq etilgan [3]. N.J.Eshnaevning «O‘zbekiston Respublikasi professional harbiy kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari» nomli dissertatsiya ishida professional harbiy kadrlarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy tanlov va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning ahamiyati, professional harbiy kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari oolib berilgan [4].

Rus harbiy nazariyotchilari O.A.Chernitskiy «Rus ofitserining kasbiy madaniyati: ijtimoiy-falsafiy tahlili» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida «harbiylik kasbining o‘ziga xos tomonlarini, vazifa va burchlarini»[5] tahlillar asosida yoritib bergen. V.N.Grebenkov esa «Jamiyat harbiy madaniyatining madaniy konsepsiysi» nomli dissertatsiya ishida harbiy madaniyat va ijtimoiy ish falsafiy tahlil qilgan[6]

ASOSIY QISM.

Bugungi kunda harbiy tizimda harbiy xizmatchilarning huquqlarini ta’minalash va himoya qilish davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, harbiy boshqaruv organlari va komandirlar zimmasiga yuklatilgan. Harbiy ijtimoiy ish muammolarini hal qilish bilan shug‘ullanadigan organlar va mansabdar shaxslar guruhiga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga Qurolli Kuchlar tarkibida faoliyat yurituvchi organlar va mansabdar shaxslar kiradi, ikkinchisi — jamiyatning harbiy tashkilotidan tashqaridagi faoliyat nazarda tutiladi. Davlat esa harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kafolatlaydi, ular uchun yetarli, munosib turmush darajasini yaratadi, xizmat va turmush sharoitini yaxshilash choralarini ko‘radi [7]. Qurolli Kuchlar tarkibida harbiy-ijtimoiy ishlarni: qo‘mondonlar, jamoat birlashmalari o‘quv ishlari organlari, harbiy adliya organlari (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining yuridik xizmati bo‘linmalari, harbiy prokuratura, harbiy sudlar) amalga oshiradilar.

Komandirlar qismlar va bo‘linmalarda harbiy ijtimoiy ishlarni tashkil etish va olib borishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qo‘mondonlarning qo‘sishnlarga xizmat ko‘rsatishi, shaxsiy tarkibning huquqiy tayyorgarligini tashkil qiladi, moliyaviy va boshqa moddiy resurslarni tejash va ulardan to‘g‘ri foydalanish, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish manfaatlariga oqilona sarflanishini ta’minalaydi. Harbiy boshqaruv faoliyatida komandirlar qonun hujjatlariga muvofiq harakat qilib, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qiladilar. Harbiy ijtimoiy ish sohasidagi komandirlar va bosqliqlarning qonuniy huquq va majburiyatlarini keng va xilma-xildir. Komandir sifatida ular o‘zlariga ishonib topshirilgan bo‘linmalar hayotining barcha jabhalari uchun moddiy, tibbiy, moliyaviy, ijtimoiy, huquqiy va maishiy ta’minot uchun shaxsan javobgardirlar. Ular maishiy masalalarni hal etish, harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo‘shatilgan fuqarolar va ularning oila a’zolarining huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minalash choralarini ko‘rishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida zamonaviy demokratik davlat faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri e’lon qilingan. Bu tamoyilga ko‘ra, insонning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta’minalaydigan shart-sharoit yaratish fuqaroning sof shaxsiy ishi emas, balki milliy siyosat darajasiga ko‘tarilgan. Shaxs u yoki bu o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra o‘zini moddiy ta’minalay olmagan, ijtimoiy himoyasiz qolgan taqdirda, davlat unga zarur yordam ko‘rsatadi. Davlatning ushbu majburiyatining ma’nosi oddiy, ammo majburiy qoidaga asoslanadi: har bir shaxs, shu jumladan, harbiy xizmatchi ham shu huquqqa ega.

Armiyada amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar tashqi siyosat va ichki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, harbiy sohani

rivojlantirish bilan bog‘liq zamonaviy kuchlar va urush vositalarining intellektual va harakatchan imkoniyatlari yaratilishini taqozo etadi[8]. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyatini tashkil etishga bo‘lgan talablari ortishi tabiiy.

Ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa o‘zgarishlar doimiy daromadlari bo‘lgan ish haqi, pensiyalar, nafaqalar aholining turmush darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ushbu toifaga kiradi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyalash yetarli darajada bo‘lmasa, armiyani ijtimoiy xavfning kuchayishiga olib keladi, bu esa harbiy xizmatchilarning umumiy ma’naviy-psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishni amalga oshirish qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini saqlash harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv oddiy, ammo inkor etib bo‘lmaydigan mantiqqa asoslanadi: harbiy xizmatchilardan o‘z burchlarini vijdonan bajarishni talab qilishdan avval, ular hayoti va xizmati uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan ta’milanishi, o‘zboshimchalik va qonunbuzarlikning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Ana shu g‘oya harbiy ijtimoiy ishning mohiyatini belgilaydi.

Harbiy ijtimoiy ish — harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari harbiy xizmatchilarning qonun bilan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va imtiyozlarini amalga oshirish va shu asosda aholining ushbu toifasini ijtimoiy himoya qilishni ta’minalash bo‘yicha faoliyati hisoblanadi. Ijtimoiy himoyani ta’minalash bo‘yicha tadbirlar harbiy xizmatchilarga davlat tomonidan o‘z himoyachilari uchun belgilangan ijtimoiy ta’mot samaradorligining zarur sharti sifatida, ularning huquqiy maqomini amalga oshirishni kafolatlovchi vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy ijtimoiy ish — harbiy xizmatchilarning qonuniy ravishda belgilangan maqomi va ularning jamiyatdagi haqiqiy mavqeyi, ya’ni ijtimoiy mavqeyi o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshilikni hal qilishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmi. Muayyan davrdagi ijtimoiy ish olimlar tomonidan ijtimoiy ta’mot sifatida belgilangan. U turli toifadagi harbiy xizmatchilarning eng muhim ijtimoiy huquqlarini qay darajada amalga oshirish, shaxsning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish darajasini aks ettiradi. Harbiy ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyasida ushbu faoliyatning keng va tor talqinini farqlash kerak. Keng ma’noda, harbiy ijtimoiy ish — bu har bir harbiy xizmatchi va uning hayoti uchun qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish orqali davlat organlari, harbiy qo‘mondonlik organlari, harbiy mansabdor shaxslar va jamoatchilikning qo‘shinlarni ijtimoiy joylashtirishga ta’siri hisoblanadi. Tor ma’noda, harbiy ijtimoiy ish — bu professional tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan, harbiy xizmatchiga, uning oilasiga yoki bir guruh shaxslarga ma’lumot, maslahat, bevosita moddiy yordam, yordamga muhtojlarni qiyin vaziyatlarni hal qilishda o‘z faoliyatiga yo‘naltirish va bunda ularga ko‘maklashish va pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish orqali individual yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat hisoblanadi[9].

Harbiy ijtimoiy ish — harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo‘shatilgan fuqarolar, ularning oila a’zolari, fuqarolik xodimlarining moddiy-maishiy sharoitlari va imtiyozlarini ta’minalash maqsadida amalga oshiriladigan huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, tarbiyaviy, ijtimoiy va boshqa tadbirlar tizimi. Qurolli Kuchlar tizimida harbiy ijtimoiy ish — barcha darajadagi qo‘mondonlar va boshliqlar, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari ijtimoiy huquqlarini ta’minalash yoki harbiy xizmatchilar va ularning a’zolariga to‘sinqil qiladigan muayyan ijtimoiy, jismoni yoki ruhiy zararni qoplash bo‘yicha faoliyati hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar va fuqarolik xizmatchilari o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun normal ijtimoiy sharoitlarni yaratishdir.

Harbiy ijtimoiy ish tinchlik va urush davrida qo‘mondonlar, shtablar, barcha harbiy qo‘mondonlik va boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun qonun hujjalarda belgilangan kafolatlar, qonun-tartibot va harbiy intizomni yuqori darajada saqlash maqsadli tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy tadbirlar tizimi hisoblanadi. Shuningdek, qo‘shinlarning kundalik faoliyati, qurolli to‘qnashuvlarda yoki jangovar hududda jangovar vazifalarni bajarish, tartib va harbiy intizom, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari va huquqlarini amalga oshirish, shu asosda ularning ijtimoiy himoyasini ta’minalash, qonunlarni saqlash jarayonida shaxsiy

xizmat vazifalarini samarali bajarishi uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish faoliyatni sifatida ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda harbiy ijtimoiy ishning mazmuni kengayib, Qurolli Kuchlardagi ahamiyati ortib bormoqda.

Qurolli Kuchlarda ijtimoiy ishning muhim tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

- ma'naviy va qo'shinlar faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlash;
- harbiy jamoalar va harbiy qismlarni joylashtirish hududlarida ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini o'rganish va prognozlash;
- harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va ijrosini amalga oshirish;
- harbiy xizmatchilarning turli toifalarini huquqiy tarbiyalashni tashkil etish va o'tkazish;
- muayyan ijtimoiy va huquqiy muammolarni hal qilish uchun turli toifadagi harbiy xizmatchilarga individual yordam ko'rsatish;
- komandirlar va boshqa mansabdar shaxslarni qo'l ostidagilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish uchun xizmat faoliyatining huquqiy asoslarini o'rgatish;
- harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish va hal qilish;
- harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlik.

Yuqorida fikrlarga asoslanib, harbiy xizmatchilar bilan ijtimoiy ish, davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, harbiy qo'mondonlik va nazorat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati, harbiy mansabdar shaxslar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining qonun hujjatlarida belgilangan huquq va imtiyozlarini to'g'ri amalga oshirishi, shu asosda zarur ijtimoiy sharoitlar yaratish, jangovar shaylik, qonun ustuvorligi va harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash masalalarini yanada samarali hal etish uchun xizmat qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Harbiy ijtimoiy ishning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar va fuqarolik xodimlariga o'z vazifalarini samarali bajarishga imkon beradigan ijtimoiy sharoitlarni yaratishdir. Shart-sharoitlar tushunchasi moddiy va ma'naviy muhit, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarining hayoti va faoliyatida sodir bo'ladigan muhit sifatida tavsiflanadi.

Harbiy ijtimoiy ishning asosiy turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- a) tashkiliy va amaliy;
- b) faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi;
- v) himoya;
- g) maslahat;
- d) muvofiqlashtirish va uslubiy.

Harbiy ijtimoiy ishning asosiy vazifalari esa quyidagilarni tashkil qiladi:

1. Harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar va ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarning fuqarolik xodimlari uchun ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash.

2. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy muammolarini hal qilish manfaatlarida qonun loyihalari bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Ijtimoiy muammolar bo'yicha komandirlar, shtablar, tarbiyaviy ishlarni organlariga maslahat yordami ko'rsatish.

4. Harbiy jamoalarda ijtimoiy muammolar bo'yicha muvofiqlashtirish va uslubiy faoliyatni amalga oshirish.

5. Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarining ijtimoiy himoyasi holatini o'rganish.

6. Harbiy xizmatchilarni, muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar va ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarning fuqarolik xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik.

Bu vazifalarni amalga oshirilishi Vatan himoyachilarining munosib hayotini, qulay ijtimoiy farovonligini va yuqori rasmiy faolligini ta'minlaydigan eng muhim shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Bunday shart-sharoitlarning mavjudligi, bir tomonidan, harbiy jamoalarda muhim ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmaydi, ikkinchidan, harbiy xizmatchilarga yuzaga keladigan ijtimoiy qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengishga yordam beradi[10].

Ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar, muddatli harbiy xizmatchilar, harbiylarning oilalari, fuqarolik xodimlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, imtiyozli toifalar (maxsus xavf bo'linmalari faxriylari va boshqalar)ni harbiy ijtimoiy ishning obyektlari sifatida ko'rsatish mumkin.

Harbiy ijtimoiy ishning subyektlarini esa, komandirlar, shtablar; harbiy qo'mondonlik organlari, Qurolli Kuchlarning ijtimoiy tuzilmalari, jamoat tashkilotlari (ofitserlar yig'ilishlari, xotinqizlar kengashlari), kasaba uyushma tashkilotlari, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tashkil qiladi.

Harbiy xizmatchilarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar va ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ish mexanizmi uchta faoliyat turini o'z ichiga oladi:

1. Asosiy faoliyat (qonunlarni, boshqa normativ hujjatlarni yuqoridagi toifadagi fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan takomillashtirish).

2. Tashkiliy faoliyat (qo'mondonlar, harbiy qo'mondonlik va nazorat organlari mansabdon shaxslari, ijtimoiy tuzilmalar, jamoat tashkilotlari xodimlari ishini takomillashtirish).

3. Amaliy faoliyat (harbiy ijtimoiy ish usullarini takomillashtirish — o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, prognozlash, rejalashtirish, yordam berish, takliflar ishlab chiqish va boshqalar).

Harbiy ijtimoiy ishlarni olib borish shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni yaxshilash bo'yicha normalarni ishlab chiqish;

- harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha ishlarning holatini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar;

- harbiy xizmatchilarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolarni va ularning oila a'zolarini, fuqarolik xodimlarini ijtimoiy himoya qilish muammolari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- individual ish;

- harbiy xizmatchilar, kasaba uyushma tashkilotlari, harbiy xizmatchilarning oilalari yig'ilishlari;

- jamoatchilik qabulxonalari faoliyati;

- shaxsiy masalalar bo'yicha qabullar;

- harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, harbiy xizmat faxriylari, fuqarolik xodimlarining ijtimoiy masalalar bo'yicha murojaatlari va shikoyatlarini ko'rib chiqishdan iborat.

Harbiy ijtimoiy ishning samaradorligi ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lib, uni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy vaziyatni, ijtimoiy muammolarni, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minlanish darajasini o'rganish va tahlil qilish;

- harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha prognoz ishlari, tarbiyaviy ta'sirning ustuvor va uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash;

- harbiy ijtimoiy ish obyektiga qaysi ta'sir ijobiy, qaysi biri salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aniqlash;

- harbiy ijtimoiy ishlar qo'shinlar faoliyatini ma'naviy-psixologik ta'minlashni umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida rejalashtirish, uslub va usullari, ushbu ishning mazmuni, voqealar ketma-ketligini aniqlash;

- harbiy ijtimoiy ishlarni bevosita tashkil etish (ijrochilarni tanlash, joylashtirish va tayyorlash, ularga harbiy ijtimoiy ishning maqsad va vazifalarini yetkazish, ularning harbiy jamoalar va shaxslarga ta'sirini muvofiqlashtirish);

- harbiy ijtimoiy ish faoliyatini amalga oshirish jarayonida harbiy xizmatchilar va shaxslar guruhlariga ta'sirni nazorat qilish va tuzatish;

– harbiy ijtimoiy ishning borishi va natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirish va amalga oshirish, ushbu faoliyatning ilg‘or tajribasini o‘rganish va tarqatish.

Ta’kidlash mumkinki, harbiy ijtimoiy ish harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ehtiyojlari, manfaatlari va imtiyozlarini qondirish uchun davlat va nodavlat institutlari va organlarining konseptual — nazariy, siyosiy-huquqiy va tashkiliy-amaliy chora-tadbirlari tizimi tashkil etadi. U davlatning harbiy sohadagi ijtimoiy fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyati orqali aniq harbiy jamiyatning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklari, kafolatlari, imtiyozlari va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda qo‘srimcha sifatida ishlaydi.

Harbiy ijtimoiy ishning o‘ziga xos faoliyatini davlat-faollik xususiyati, siyosiy va huquqiy tartibga solishning yuqori darajasi, harbiy xizmatchilarning aniq maqsad va vazifalari kelib chiqib, davlat va jamiyatning harbiy ijtimoiy ishga e’tiborining ortishi tashkil qiladi[11].

Harbiy ijtimoiy ishning mazmuni subyektlarning obyektlarga nisbatan asosiy funksional yo‘nalishlari, ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turli xil vositalar, shakllar va ish usullari orqali faoliyati tizimi tashkil etadi. Ijtimoiy ta’milot, ijtimoiy xizmatlar uchta asosiy darajadagi mijozlarni, ya’ni, jamiyat – armiya, armiya – harbiy jamoa, harbiy jamoa – shaxsni ijtimoiy reabilitatsiya qilish imkonini beradi. Harbiy ijtimoiy ishning sifati va samaradorligi ko‘plab omillarning ta’siriga bog‘liq, ammo uning samaradorligining yakuniy mezoni ma’naviy-psixologik holat darajasi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarning ijtimoiy farovonligining tabiatini hisoblanadi. Harbiy ijtimoiy ishning o‘ziga xos darajalari yuqori – ijtimoiy farovonlikning qulay holati, o‘rtacha – yetarli holati va past – mijozlarning ruhiyati va ijtimoiy farovonligining yetarli bo‘lmagan, noqulay holati bilan ajralib turadi.

Harbiy ijtimoiy ishning mazmuniy xususiyatlari: subyektlarning murakkab tarkibi, mijozlarning ko‘pligi, turli xil ehtiyojlar va manfaatlari, huquq va erkinliklar, kafolatlar va imtiyozlar, shuningdek, harbiy ijtimoiy ishning darajalari va yo‘nalishlaridan iborat.

Harbiy ijtimoiy ish o‘zining xilma-xil qarama-qarshiliklarini hal qilish orqali rivojlanadi, muayyan qonunlarga bo‘ysunadi va subyektlari faoliyatida zarur tamoyillarni amalga oshiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda harbiy ijtimoiy ishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarni: rivojlangan ijtimoiy-huquqiy bazani yaratish, eng keskin harbiy ijtimoiy muammolarni tubdan hal qilish, harbiy ijtimoiy ish mijozlarining farovonligining zarur darajasini ta’minlash, zaxiradagi ishdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni qayta tayyorlash va ishga joylashtirishni tashkil etish, mijozlarning qulay yashash joylarida harbiy ijtimoiy ishning tashkiliy-amaliy komplekslarini yaratish va rivojlantirish tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtida harbiy ijtimoiy ishlarni amaliy tashkil etishning eng istiqbolli modellari quyidagilar: yopiq harbiy garnizonda (shaharda) ijtimoiy xizmatning ko‘p tarmoqli modeli; harbiy shaharchada oilaning psixologik-pedagogik xizmati modeli; ixcham yashash joyidagi harbiy ijtimoiy ish agentligi; harbiy ijtimoiy moslashuv va sobiq harbiy xizmatchilarni reabilitatsiya qilish markazi va boshqalar.

A.V.Korovnikov esa bugungi kunda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishning uchta modelini ko‘rsatadi:

Birinchi tur -iqtisodiyoti rivojlangan, barqaror siyosiy tuzumga ega, qonun ustuvorligiga ega mamlakatlarda shakllangan institutsional modeldir. Bunday mamlakatlarda huquqiy va iqtisodiy asosda harbiy xizmatchilarning farovonlik darajasini jamiyatdagi o‘rtacha darajadan yuqori darajada ta’minlashga qodir bo‘lgan harbiy ijtimoiy ish institutlari va organlarining rivojlangan tizimi.

Ikkinci tur – harbiylar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi endigina shakllana boshlagan va hozir parchalanib ketgan mamlakatlarga xos qisman institutsional model.

Uchinchi tur – institutsional bo‘lmagan model, harbiylar mustaqil siyosiy kuch bo‘lgan yoki hokimiyatga yuqori ta’sir ko‘rsatadigan mamlakatlardan uchun xos bo‘lib, o‘ziga xos alohida ijtimoiy ta’milot sharoitlar yaratilganligi bilan ajralib turadi[12].

Qurolli Kuchlarning ijtimoiy rivojlanishi butun harbiy-ijtimoiy sohaga, shu jumladan, texnik va moddiy jihatlarga, kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga, ularning sifati va ijtimoiy farovonligiga

ham bog‘liq. Ijtimoiy va moddiy sohalar harbiy xizmatchilarning hayot sifatining asosiy tarkibiy qismi, shuning uchun ularni modernizatsiya qilish, ayniqsa, muhimdir.

Ta’kidlash lozimki, jamiyatdagi professional ijtimoiy ishning obyekti mamlakatning butun aholisi emas, balki qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlardir. O‘zbekiston Respublikasida aholiga ijtimoiy xizmatga muhtoj toifadagi fuqarolarga quyidagilar: nogironlar, keksa odamlar, o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qila olmaydigan bemorlar, yetimlar, e’tiborsiz, kam daromadli, ishsiz, doimiy yashash joyi yo‘qlar kiradi. Harbiy muhitda ijtimoiy ish bilan bog‘liq vaziyat bir oz boshqacha. Harbiy xizmatchining mehnat qobiliyati cheklangan emas, balki uning qo‘srimcha mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyati cheklangan. Binobarin, Qurolli Kuchlarda xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchilar, shuningdek, ularning oila a’zolari harbiy ijtimoiy ishning obyekti bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari va Qurolli Kuchlar tomonidan davlat manfaatlari yo‘lida aniq funksiyalarni bajarish ijtimoiy ishning o‘ziga xos shakllari va usullarini talab qiladi.

Qurolli Kuchlarda harbiy ijtimoiy ish institutining paydo bo‘lishi zarurati quyidagi holatlar bilan ifodalanadi:

- harbiy xizmatchilarni ta’minalashning ijtimoiy va maishiy masalalarini hal qilish uchun harbiy qo‘mondonlik va mahalliy hokimiyat organlari, sud tuzilmalari va jamoatchilik o‘rtasida yanada kengroq va mazmunli munosabatlarni amalga oshirish zarurati;
- harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash hajmini oshirishning obyektiv zarurati.

Ushbu sohada boy jahon tajribasini hisobga olgan holda, harbiy muhitda harbiy ijtimoiy ishning rivojlanishining quyidagi tendensiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin: harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari bilan ijtimoiy ish harbiy tashkilotlar tomonidan tashkil etiladi. Tashkilotlarga: uyushmalar, fondlar, idoralar kiradi va ijtimoiy ish ushbu doirada amalga oshiriladi.

Harbiy shaharchalarda, shuningdek, ulardan tashqarida – harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari yashaydigan shaharlar, qishloqlarda; ijtimoiy ish nafaqat harbiy xizmatni o‘tayotganlar, balki harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar bilan ham amalga oshiriladi. Bu holatlar harbiy-ijtimoiy ishni qo‘mondonlar, boshqa mansabdar shaxslar, nazorat organlari faoliyatida nisbatan mustaqil yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. Uning mohiyati harbiy jamoalarda va harbiy qismlarni joylashtirish hududlarida ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini o‘rganish va prognoz qilish bo‘yicha turli tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek, ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha boshqaruva qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishni tashkil etishdan iborat.

XULOSA

Harbiy xizmatchilarni himoya qilish, harbiy xizmatchilarning turli toifalari uchun huquqiy ta’limni tashkil etish va o‘tkazish, muayyan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal qilish uchun individual yuridik yordam ko‘rsatish, komandirlar va boshqa mansabdar shaxslarni ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha rasmiy faoliyatning huquqiy asoslariga o‘rgatish zarur. Bo‘ysunuvchilarni himoya qilish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining arizalarini ko‘rib chiqish va hal etish, harbiy xizmatchilarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, jamoat birlashmalari bilan o‘zaro hamkorlik va sheriklik faoliyatini muvofiqlashtirish ham bu boradagi muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining manfaatlarini to‘liqroq hisobga olish, ular bilan samarali faoliyat yurituvchi ijtimoiy ish institutining faol harakatini talab qiladi. Shundagina harbiy xizmatchilar o‘z harbiy burchini yanada faol va qiziqish bilan bajarishlari mumkin bo‘ladi. Binobarin, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo‘yicha faoliyat davlat muassasalari, harbiy idoralar boshliqlari, komandirlar, shtablar va orqa xizmatlarning majburiy funksiyasiga aylanishi kerak. Bugungi kunda ijtimoiy sharoitlarni yuqori darajada yaratilishi va harbiy xizmatchilarning oilalarini qonun assosida himoya qilinishi, jangovar shaylikni oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash vazifalarini yanada samarali hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev/ Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. – Toshkent, 2022 y.
2. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч / Тузувчилар: Иноятов И.Ю., Абилов М.Ҳ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 59 б.;
3. Курбонов Р.Ю. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий истиқлол ғоясининг ўрни. Фалс.фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2006. – 49 б.
4. Эшнаев Н.Ж. Ўзбекистон Республикаси профессионал ҳарбий кадрларни тайёрлашнинг ижтимоий- фалсафий асослари. Фалс.фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзФА, Фал. ва хуқ. инст., 2008. – 164 б.
5. Черницкий О.А. Профессиональная культура российского офицера: Социально-философский анализ. Дисс. ... канд. филос. наук. автореф. – М., 2001. – 37 с.
6. Гребеньков В.Н. Военная культура российского общества: философско-культурологическая концепция. Дисс. ... канд. филос. наук. – Ставрополь, 2011. – 185 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomi. — Тошкент. 1996у.
8. I. Inoyatov., A. Ahmedov. Armiya davlat tayanchi – tinchlik kafolati. — Toshkent. "Sharq" 2004. 176-b.
9. А. В. Старшинова, Е. Б. Архипова. Современные технологии социальной работы. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. — 168 с.
10. Исмоиловна, Ҳ. Г. (2020). ҲАРБИЙ АНЬАНАЛАР, УРФ–ОДАТЛАР ВА МАРОСИМЛАР-ЖАМИЯТ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ НЕГИЗИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(3).
11. Ҳошимова, Г. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ ТАРИХИЙ АСОСЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(5).
12. Исмоиловна, Ҳ. Г. (2016). Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятни оширишда ҳуқуқийнашрларнинг ўрни ва роли. *Евразийский научный журнал*, (5), 145-149.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qozoqov Sobirjon

Namangan davlat universiteti

katta o‘qituvchisi

e-mail: qozaqov@mail.ru

TADBIRKORLIK MADANIYATI INSTITUTIONALLASHUVINING IJTIMOIY JIHATLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik madaniyatining o‘rnini katta. Chunki, tadbirkorlik madaniyati tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanib, uni tashkil etishda sotsial institutlar muhim ahamiyatga ega. O‘z o‘rnida sotsial institutlar tadbirkor shaxsni tarbiyalash va uning faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy omillarini tashkil etadi.

Maqolada tadbirkorlik madaniyati tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilgan bo‘lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik madaniyati elementlari ham alohida ajratib ko‘rsatilgan. Maqolaning so‘nggi qismida tadbirkorlik madaniyatining xorij tajribasi (Qozog‘iston va Xitoy) yoritilgan bo‘lib, O‘zbekistonda tadbirkorlik madaniyatiga davlat tomonidan berilayotgan e’tibor bilan taqqoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, madaniyat, tadbirkorlik madaniyati, sotsial institut, shaxs, shaxslar aro munosabatlar, odob, axloq, halollik, boshqaruv.

Казаков Собиржон

Наманганский государственный университет,

Старший преподаватель

e-mail: qozaqov@mail.ru

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИНСТИТУЦИОНАЛИЗАЦИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

Предпринимательская культура играет большую роль в процессе организации и развития предпринимательской деятельности, потому что предпринимательская культура является неотъемлемой частью предпринимательской деятельности, и в ее организации важное значение имеют социальные институты. Социальные институты выступают факторами воспитания предпринимателя и развития его деятельности.

В статье дано авторское определение понятия предпринимательской культуры, в котором основное внимание уделяется взаимодействию личности, общества и государства. При этом также выделяются элементы предпринимательской культуры. В последней части статьи рассматривается зарубежный опыт предпринимательской культуры (Казахстана и Китая) и сравнивается его с вниманием государства к предпринимательской культуре в Узбекистане.

Ключевые слова: Предпринимательство, культура, предпринимательская культура, социальный институт, личность, межличностные отношения, манеры, этика, честность, менеджмент.

Kazakov Sobirzhon
Namangan State University,
Senior Lecturer
e-mail: qozaqov@mail.ru

SOCIAL ASPECTS OF INSTITUTIONALIZATION OF ENTREPRENEURIAL CULTURE

ANNOTATION

Entrepreneurial culture plays a big role in the process of organizing and developing entrepreneurial activity. Entrepreneurial culture is an integral part of entrepreneurial activity, and social institutions are important in its organization. Instead, social institutions act as social factors in the education of an entrepreneur and the development of his activities.

The article gives the author's definition of the concept of entrepreneurial culture, which focuses on the interaction of the individual, society and the state. At the same time, elements of entrepreneurial culture are also highlighted. The last part of the article examines foreign experience of entrepreneurial culture (Kazakhstan and China) and compares it with the state's attention to entrepreneurial culture in Uzbekistan.

Key words: Entrepreneurship, culture, entrepreneurial culture, social institution, personality, interpersonal relationships, manners, ethics, honesty, management.

KIRISH

Tadbirkorlik madaniyati tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki, tadbirkorlik madaniyati shaxsning keng tarmoqli faoliyatida namoyon bo'lib, unga shaxslar aro munosabatlar, odob, axloq, boshqaruv, halollik va boshqalarni kiritamiz. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini o'rganish jarayonida tadbirkorlik madaniyatini o'rganish muhim ahamiyatni kasb etadi. Sababi, u madaniyatning umumiy tushunchalariga asoslanib, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu sababdan, tadbirkorlik madaniyatini o'rganish doirasida ilmiy izlanishlar olib borish belgilangan bo'lib, tadqiqotdan ko'zlangan maqsad O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik madaniyatini institutsionallashuvining ijtimoiy jihatlarini ilmiy tahlil etish hisoblanadi.

Tadbirkorlik madaniyati institutsionallashuvining ijtimoiy jihatlarini o'rganishning dolzarbliqi qator obyektiv sabablar bilan xarakterlanadi. Birinchidan, mazkur muammoni O'zbekiston hududida sotsiologiya fani doirasida kam o'rganilganligi tadbirkorlik madaniyatini tadqiq etishga chorlaydi. Ikkinchidan, tadqiqot natijalari O'zbekistondagi tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, izlanish doirasida tadbirkorlik madaniyatini o'rganish, mohiyatini tahlil qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotni yoritishda tarixiylik, mantiqiylik, so'rov anketa, kuzatish, qiyosiy tahlil, kontent-analiz, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Shuning uchun ham tadbirkorlik madaniyati tushunchasini ilmiy ta'rifini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Tadbirkorlik madaniyati – bu jamiyatda amaldagi huquqiy me'yorlar (qonunlar, nizomlar), ishbilarmonlik odatlari, axloqiy qoidalar va svilizatsiyalashgan biznesni yuritish standartlariga muvofiq ravishda subyektlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining aniq, belgilangan prinsiplari va usullaridan iboratdir [2].

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati — bu qobiliyatlari fuqarolar va ularning birlashmalarining erkin faoliyati yuritishidir. Ammo tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi iqtisodiy erkinlik uning ishtirokchilari bo'lgan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning belgilangan prinsiplari va usullariga rioya qilmaslikdan ozod bo'lishini anglatmaydi. Chunki, demokratik tamoyillarga amal qilayotgan har qanday jamiyat qonun barcha uchun bir xilda amal qiladi. Jamiyatdagi qonun ustuvorligi tamoyillari ham mana shunga asoslanadi. Sababi, davlat tadbirkorlikning ayrim vakillari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini boshqa ishtirokchilarining va umuman bozor iqtisodiyotining boshqa subyektlarini, umuman jamiyatning manfaatlari va iqtisodiy erkinliklarini himoya qilish maqsadida har tomonlama iqtisodiy erkinliklarning namoyon bo'lishini cheklash uchun muayyan to'siqqlarni o'rnatadi. Bu esa, jamiyat manfaatlari barcha narsadan ya'ni, manfaatdorlikdan ustun turishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik madaniyati bu — shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar tuzilmasi bilan shakllanadigan va rivojlanadigan faoliyat hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shuningdek, tadbirkorlik madaniyati shuni anglatadiki, tadbirkorlik subyektlarining mustaqilligi va iqtisodiy erkinligi ularning asossiz tashabbuslariga zid keladi. Shu sababli, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni buzganliklari uchun javobgarlik choralar va shakllari belgilanadi.

Tadbirkorlik madaniyatining elementlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Birinchidan, tadbirkorlik madaniyatining universal elementi bu uning qonuniyligi;

Ikkinchidan, sheriklar, raqobatchilar, iste'molchilar va ishchilarga moddiy va nomoddiy zarar yetkazilishida namoyon bo'ladigan huquqiy hujjatlar, shartnomaviy munosabatlar va huquqiy bitimlar, tijorat aylanmasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning qat'iy bajarilishi;

Uchinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning halol ish yuritishidir. Odamlarga, ist'emolchilarga, sheriklarga va davlatga halol munosabatda bo'lishi tadbirkorlik madaniyatining yetakchi belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlar umumiyligi axloqiy me'yolrarga, shu jumladan kasbiy etika, kompaniya (tashkilot, korxona) ning axloqiy qoidalariga, biznes yuritishning umumiyligi qabul qilingan qoidalariga, tadbirkorlarning madaniyati va ma'lumot darajasi, ularning talablari darajasi, jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odatlarga rioya qilish, qonuniy biznesni yuritish uchun zarur bo'lgan bilim darajasi va hokazolarga rioya qilishlari muhimdir.

Tadbirkorlik madaniyati huquqiy va axloqiy mezonlar (me'yolr)ning namoyon bo'lishi sifatida quyidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi: davlat, jamiyat, iste'molchilar, ishchilar, sheriklar, raqobatchilar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan, shuningdek, amaldagi qonunlar, standartlar, qoidalar, me'yolr, tadbirkorlikning rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan.

Tadbirkorlik faoliyati har xil usullar bilan emas, balki faqat qonuniy asoslarda muntazam ravishda foyda olishga qaratilgan faoliyat turidir. Tadbirkorlik madaniyatiga rioya qilgan tadbirkorlar esa, o'z faoliyatini tashkil etib, qonuniy biznes olib boradilar va qonuniy ravishda daromad (foyda) oladilar.

Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish ko'plab omillar bilan belgilanadi, ular orasida birinchi o'rnlarni svilizatsiyalashgan tashqi tadbirkorlik muhiti, ijtimoiy va davlat tafakkuri, tajovuzkor muhitdan himoya qiladigan tadbirkorlarning huquqlari, majburiyatlarini belgilovchi huquqiy normalar va boshqalar.

Shuningdek, tadbirkorlik madaniyatining institutsional jihatni "tadbirkorlik madaniyatining tashqi muhiti" tushunchasiga mos keladi. Biz "institutsionalizm"ni kishilarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning tarixiy shakllangan shakli va tadbirkorlik jarayoniga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladigan jamiyat faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida tushunamiz.

Tadbirkorlikning tashqi institutsional muhitining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhit omillarining o‘zaro bog‘liqligi, ya’ni bitta omilning o‘zgarishi boshqa omillarga ta’sir qiladigan kuch darajasi;
- tashqi muhitning murakkabligi, ya’ni javob berish kerak bo‘lgan omillar soni, shuningdek har bir omilning o‘zgaruvchanlik darajasi;
- tashqi muhitning harakatchanligi, ya’ni tadbirkor faoliyatidagi o‘zgarishlarning tezligi;
- tashqi muhitning noaniqligi, ya’ni, tadbirkor ma’lum bir omil haqida ma’lumot miqdorining funksiyasi, shuningdek, ushbu ma’lumotga bo‘lgan ishonch funksiyasi.

Har qanday jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy institutlar muhim rolni o‘ynaydi. Muayyan institutlarning tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga ta’sirini tavsiflashdan oldin, tashqi muhitning ishlashi shartlari ro‘yxatini ko‘rib chiqish lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Tadbirkorlik tajribasi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan xatolarni jamiyatda rag‘batlantirish kerak. Chunki, har bir tadbirkor faoliyati davomida hech bo‘lmaganda bir marta muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Mana shu muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng u tajriba orttirib faoliyatining cho‘qqisiga ko‘tariladi.

2. Muammolarni ijodiy hal etishga xalaqit beradigan hech qanday to‘sıqlar mayjud emasligiga ishonch hosil qilish kerak. Bu esa, tadbirkor faoliyatining yangi qirralarini ochish uchun zamin yaratadi.

Aholining keksayishi va uning ijtimoiy oqibatlari masalasi bugungi kunda globallashgan ijtimoiy muammolar sirasiga kirib ulgurdi. Aholi keksayishi – bu aholi sonida katta yoshdagilar ulushining ortishidir. Bu uzoq davom etadigan demografik o‘zgarishlarning – aholini takror hosil qilinishdagi tug‘ilish va o‘lim, qisman migratsiya jarayonlaridagi siljishlar, ularning nisbatlarining natijalari hisoblanadi. Aholining qarish jarayonlarini va uning oqibatlarini o‘rganishga demograflar asosan XIX asr oxiridan e’tibor qarata boshlaganlar [1, – 23].

METODOLOGIYA

Mazkur mavzuni ilmiy tadqiq etishda fransiyalik J.Burjua, A.Sovi, AQSH dan E.Koul, Rossiyadan A.Ya.Boyarskiy va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari aholining qarishi, tug‘ilish va qarish hisobiga ro‘y berayotganligi aniqlangan. Bugungi kunda bu dolzarb muammo nafaqat aholishunoslarning, balki, faylasuf, sotsiolog va iqtisodchilarni ham qiziqtirgan muammolardan

biriga aylandi. Chunki fanda keksalik, uning ko‘rinishi, yoshi va chegarasi kabi masalalarda anchadan buyon bahs munozaralar olib boriladi. Shu boisdan ham so‘nggi yillarga kelibgina mazkur muammo sotsiologiya va gerontologiya kabi fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Bu yana shu jarayon bilan ham bog‘liqki, bir vaqtda keksalarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xususiyatlarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Keksayish jarayonining oqilona kechishi nafaqat sog‘liqni saqlashga, balki, jamiyatning boshqa tuzilmalariga - iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga, rekreatsiya, ijtimoiy ta’milot, oila va boshqa sohalarga ham bog‘liq. Bu borada eng qadimdayoq Yunonistonda Pifagor tomonidan yosh tasnifi o‘rganilgan. Uning fikricha, keksalik 70-80 yoshda umrning turli fasllari sifatida – qish fasliga qiyoslab o‘rganilgan [2, –67].

	Bahor	Yoz	Kuz	Qish				
Bolalik								
Yoshlik								
Yetuklik								
Keksalik								
	10 yosh	20 yosh	30 yosh	40 yosh	50 yosh	60 yosh	70 yosh	80 yos h

1-rasm. Pifagorning yosh tasnifi

ASOSIY QISM

Dunyo miqyosida XX asrning 60-70 yillardagi holat va 2000-yilning boshlaridagi aholi tarkibiga nisbatan taqqoslanganida mavjud oilalar tarkibidagi bolalik juftliklar tipidagi xo‘jaliklarning bola yoshi va hudud kesimidagi ulushida quyidagicha manzara kuzatiladi: Yevropa va Amerikada bola yoshi 18 yoshgacha bo‘lgan oilalar hissasi bola yoshi 18 yoshdan yuqori bo‘lganlarga nisbatan uch baravarga yaqin ko‘p miqdorni tashkil etib, mazkur holat Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasi mamlakatlarida sakkiz, Afrika sahrosidan janubroqdagi mamlakatlarda o‘n besh Markaziy va janubiy Osiyo mamlakatlarida o‘n yetti, Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyoda yigirma besh barobarga ko‘pni tashkil etgan. Bu manzara dunyo bo‘yicha bolalik juftliklar tipidagi xo‘jaliklarning 33 foizini tashkil etganligi BMT ning aholishunoslik yo‘nalishida olib borgan tadqiqotlarida o‘rganilgan [3,4]. (diagramma №1)

Diagramma №1

Умумий сондаги хўжаликларга нисбатан "болали жуфтлик" типидаги хўжаликларнинг бола ёши ва худуд кесимидағи улуси

■ Бола ёши 18 гача ■ Бола ёши 18 дан катта



Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelishga asoslimizki, demak, aholining umumiy sonidagi keksalar ulushining ko‘payib borishi jarayoni asrimiz boshidayoq boshlangan. O‘tgan sal kam chorak asr davomida bunday vaziyat ko‘payib borganligi kuzatiladi. Ayniqsa sayyoramizning aholisi zinch yashaydigan hududlarida bu holatning bugungi kunda ham yil sayin o‘sib borishi keksayish jarayoni jahoning rivojlangan va rivojlanayotgan barcha mamlakatlarida ham barcha sohada jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarilayotganligiga yana bir karra amin bo‘lamiz. Shu boisdan ham dunyo


aholisining keksayib borishi borasidagi muammolarni o'rganish ilk bor 1982-yildan e'tiboran rasman BMT Bosh Assambleyasining anjumanlarida jiddiy ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi muammolar qatorida ko'rib chiqish va o'rganish zaruriyat dolzarb muammolar qatorida muhokama etilmoqda, yechimlar izlanmoqda.

BMT ning demografik tahlillarini o'rganishlaridan yana shu jihat aniqlanganki, bugungi kunda dunyoda aholi soni miqdorida va tug'ilish ko'rsatkichlarida yolg'iz ayollar hissasi o'sib bormoqda. Albatta buning boshqa ijtimoiy omillari ham mavjud masalan oila ajrimlarini mazkur indikatorlardan yetakchisi deb hisoblash mumkin.

Yolg'iz ayollarning yashash sharoiti so'nggi besh yil doirasida hududlar kesimida quyidagi manzarani berishi mumkin: Dunyo miqyosida 50 foizni tashkil etgani holda Yevropa va Shimoliy Amerikada bu 68 foizni tashkil etadi [5, – 6]. (diagramma №2).

Diagramma №2


Ёлғиз оналар яшаш шароити ва худудлар кесимида



Aholi sonida keksa aholining hissasining ortib borishi tendensiyasida tug'ish koeffinsenti yig'indisi ham muhim o'rinn tutadi. Bu borada olimlar tomonidan olib borilgan 15-49 yoshgacha bo'lgan ayollarning 1970-1975-yillardagi tug'ish koeffisienti bilan 2025-2030-yillargacha bo'lgan davrdagi tug'ish sonini taqqoslashdan kelingan xulosalarga ko'ra, o'tgan yarim asrlik davr oralig'ida mazkur yo'nalishda tug'ishlar soni dunyoning barcha mintaqalarida pasayib, dunyo miqyosida 4,4 foizdan 2 foizga kamayishi bashorat qilinmoqda.[6, 37] (diagramma № 3).

Diagramma №3

Туғиши коэффициенти йигиндиси, 15-49 ёшгача бўлган аёлларнинг 1970-1975 йиллардан 2025-2030 йилларгача бўлган даврдаги туғишилар сони



Demak, bugungi aholi sonida jahon miqyosida ham keksalar sonining ortib borishi avvalgi davrlardagidan keskin farqlanishida tug‘ilishning kamayishi bilan bog‘liq muammolar muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar 2000-yilda sayyoramizda 60 yoshdan oshganlar 600 millionni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2050-yilda 2 milliardni tashkil etishi kutilmoqda. Jahon miqyosida tahlil qilinganda bu 1998–2025-yillar oralig‘ida Afrikadagi keksa aholi avvalgi 25 yilga taqqoslanganida 20 foizdan 28 foizga o‘sgan (avvalgisi 16-26 %) keksalar miqdori oshishi 10 foizdan 21 foizga oshgan bo‘lsa, yoshlarniki 30 foizdan 21 foizga pasayishi bashorat qilinmoqda.

Umr davomiyligida esa yoshi 65 yoshdan yuqorilar 8 foizdan oshgan. Rivojlangan davlatlarda keksalarning 80 yoshdan yoshi kattalari agar 2000-yilda 70 millionni tashkil etgan bo‘lsa, kelasi 50 yilda besh barobarga oshishi mumkinligi tahlil qilinmoqda. Ular ichida jinslar miqdorida taqqoslanganida yolg‘iz ayollarning soni erkaklardan ko‘p bo‘lishligi kutilmoqda. Chunki umr davomiyligida ham ayollarning hissasi erkaklarga ko‘ra har doim yuqoriroq ko‘rsatkichni tashkil etib kelgan [6, – 87].

2002-yilda BMT Bosh assambleyasini tomonidan qarish bo‘yicha “Madrid xalqaro harakatlar rejasi” – bu ilk bor qarish bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada muhokama qilingan muammolarga bag‘ishlangan ikkinchi yig‘inda qabul qilingan Deklaratsiyasi bo‘lib, mazkur hujjat 15 moddani o‘z ichiga olgan [7, – 128]. Mazkur xalqaro hujjatda ta’kidlanganidek, yolg‘izlanish va qarish holatlari dunyo miqyosida yildan yilga o‘sib bormoqda. Agar 2000-yilda yoshi 65 yoshdan oshganlar dunyo aholisi ulushida 600 millionni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2050-yilga kelib 2 milliardni to‘g‘ri kelishi bashorat qilinmoqda. Afrikada 1998–2025-yillar oralig‘ida keksalar soni 20 foizdan 28 foizgacha o‘sishi mumkinligi o‘rganilgan. Bu o‘rganishlardan aniqlanishicha hozirda dunyo miqyosida aholi soni keksa avlod hisobiga ko‘payib borishi tendensiyasi kuchaymoqda.

Masalan, 2000-yildan 2050-yilga qadar aholi soni o‘sishida keksalar hissasi 10 foizdan 21 foizga o‘sishi, yoshlar hisobi esa 30 foizdan 21 foizga pasayishi bashorat qilinmoqda. Uzoq umr ko‘rish ko‘rsatkichida 65 yoshdan kattalar ulushi 8 foizdan 19 foizga oshsa, yosh bolalar ulushi bu yo‘nalishda 33 foizdan 22 foizga qisqarishi mumkinligi aniqlangan. BMTning aholishunoslik bo‘yicha olib borgan 2020-yilgi tadqiqotlarida 2025-yilga borib rivojlangan mamlakatlardagi keksalarning 82 foizi shaharlarda yashashi mumkinligi, hamda 80 yoshdan yoshi kattalarning dunyo aholi sonidagi hissasi o‘tgan 2000-yilda 70 millionga yetgan bo‘lsa keyingi 50 yil ichida bu ko‘rsatkich besh baravarga oshishi mumkinligi o‘rganilgan. Bunda yolg‘iz ayollar erkaklarga nisbatan ko‘pligi ham alohida tadqiqotlar natijalaridan biri.

Bugungi kunda keksayib qarib borish ijtimoiy muammo sifatida o‘rganilishi zarur muammolar sirasiga kirishi bejizga emas. Bu ijtimoiy hodisaning ko‘plab o‘z oqibatlari bo‘lishi tabiiy. Shu sababdan ilk bora BMT tashabbusi bilan qarish muammolari 1982-yildan boshlab jiddiy izlanishlar asnosida o‘rganila boshlandi. 1999-yilda dunyo miqyosida “Keksalar xalqaro yili” deb e‘lon qilingan davorda yil davomida qarish va yolg‘iz keksalik muammolariga oid ko‘plab masalalar o‘z yechimini topdi, yangi dasturlar ishlab chiqildi. O‘sha yilda BMT sho‘feligida olimlar asosan to‘rtta yo‘nalishda faoliyat olib bordilar: birinchi yo‘nalish-keksalarning individual hayotini o‘rganish yo‘nalishi; ikkinchi yo‘nalish – avlodlararo muloqot munosabatlari yo‘nalishi; uchinchi yo‘nalish – keksayish va mamlakat taraqqiyoti holati yo‘nalishi; to‘rtinchi yo‘nalish – keksalarni ijtimoiy himoyalash yo‘nalishi. Madrid konferensiyasi keng ko‘lamli muammolar yechimiga qaratilgan hujjat bo‘ldi. Ushbu muhim xalqaro hujjat qarish muammolarini yechimiga qaratilgan ikkita muhim yondashuvni taklif qilgan, bularning birinchisi – keksa odamlar ehtiyojlarini jamiyat rivojlanishining barcha jabhalariga hamda siyosiy qarorlar qabul qilishda amalga oshirishga moslashtiradigan samarali siyosatni avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarniadolatlilik va barcha yosh guruhlarni ijtimoiy qamrab olish tamoyiliga asoslangan yaxlit tushunishni amaliyotda qo‘llash. Bu avvalo keksalarni davlat miqyosidagi siyosatlarni ishlab chiqishda ishtirokini kuchaytirishni anglatadi. Ana shu asosida ko‘pgina mamlakatlarda keksalar muammolari bilan shug‘ullanuvchi milliy markazlar tashkil etildi. Ikkinchisida Madrid harakat rejasini amalga oshirish jarayonida boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan jihatlar bor.

Masalan, turli vakolatlarga ega bo‘lgan davlat muassasalarida – jumladan, sog‘liqni saqlash, transport, ta’lim, oilani rejalashtirish va boshqa sohalarda keksalar manfaatini ifodalovchi yoki aholining ushbu guruh bilan shug‘ullanuvchi fuqarolik jamiyati tashkilotlari, rivojlanish va davlat siyosatini ishlab chiqishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro agentliklar, shu jumladan donorlar va moliya sohasi vakillari, keksalarga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va shaxslar ushbu hujjat kontekstlari asosida keksa avlod hayotini yaxshilashga harakat qilganligi haqida dalillar mavjud. Ushbu reja qo‘llanma sifatida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi qay darajada ekanligidan qat’iy nazar barcha mamlakatlarga foydali bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etdi. Qarish muammolari bo‘yicha onlaysun resurslar keltirilgan. Ushbu ko‘rsatmalar asosida dasturlar ishlab chiqilib faoliyat olib borildi. Bunda quyidagilar asosiy parametrlar sifatida olingan:

1. Davlat siyosatining barcha sohalariga murojaat qilish;
2. Nafaqat yolg‘iz keksalarga, balki barchaga ta’sir qiladigan sohalarga e’tibor qaratish;
3. Inson taraqqiyoti masalalariga integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanadigan keksa odamlar jamiyatidagi turli guruhlarning qismi ekanligi va bu guruhlarga nisbatan siyosat keksalarga ham ta’sir qilishini tan olish.

Bu avlodlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydigan strategiyalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak. Keksa odamlar har doim ham noqulay ahvolga tushib qolmasligi uchun ularga nisbatan salbiy stereotiplar va kamsitishlarni bartaraf qilish zarurligiga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu parametrlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan keksa aholi va boshqa ijtimoiy guruhlarning har xillagini tan olish siyosatini amalga oshirishda mavjud ma’lumotlar va boshqa empirik dalillardan samarali foydalanish talabidan kelib chiqadi. Keksalar bilan ishlash bo‘yicha ishlab chiqilgan qo‘llanma konseptual asosga bo‘lingan muayyan masalalar bo‘yicha beshta bo‘lim va ikkita bobdan - davlatlarning rivojlanish darajasiga oid umumiylar xarakterga ega bo‘lgan bo‘limlardan iborat. Mazkur qo‘llanmada yana 12 ta ilova bo‘lib, ular o‘zida qarish bo‘yicha Madrid xalqaro harakat dasturini amalga oshirish milliy strategiyalar uchun konseptual asoslar jamiyat rivojlanishi uchun uning demografik o‘zgarishlarini uyg‘unlashtirish, keksalarni munosib samarali himoya qilishning ta’minalash, sog‘liqni saqlash siyosatiga aholining qarishi, turli sharoitlarda muddatli parvarishlash masalalari hamda keksalarni ijtimoiy inklyuziyasi va siyosiy ishtirokini rag‘batlantirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘z – o‘zidan savol tug‘iladi: keksalarning, ayniqsa yolg‘iz keksalarning muammosi nimalar? Ularning salomatligida qanday muammolar kelib chiqishi mumkin? Yolg‘izlik muammosi nimalar bilan bog‘liq va ularni bartaraf qilishda qay darajada faoliyat olib borish mumkin?

Bugungi kunda aholi tarkibida keksalar hissasini ortib borayotganligi hamda ana shu maqomdagilarning ijtimoiy holati, ularning oiladagi o‘rni masalalariga hamda hal qilinishi lozim bo‘lgan tibbiy – ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy xizmat, yolg‘iz keksalarga ko‘mak berish faoliyatini amalga oshirish yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu boradagi muammolar o‘rganilganda yetta asosiy muammolar mavjudligini kuzatish mumkin: hayot ma’nosini yo‘qotish muammosi – bunda keksa odam o‘z munosabatiga qarab hayotning ma’nosini haqida xulosa chiqaradi. Bunday xulosalar asosan ikkita yo‘nalishga bo‘linishi mumkin. Birinchidan, umr yo‘li davomida vaqt shkalasi doirasida, ikkinchidan, jamiyat a’zosi sifatida jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy vaziyat doirasida. Ayrim yolg‘iz keksalar hayotimda mazmun ko‘rmayapman, - degan xulosasiga ketma – ketlikda dalil keltiradilar. Ularning ba’zilarini o‘z o‘tgan hayotlaridan norozi bo‘lishning turli sabablari yoki asoslari bo‘ladi. Bunda avvalo ularning mavjud hozirgi holati va o‘tgan umriga baho berish alohida o‘rin tutadi. Birinchi holatda ularning fikricha go‘yoki ayni holatida hayotida hech bir qiziqarli va muhim jarayonlarda ishtirok etmayotgandek mavjud holat hech bir mazmunga ega emasdek tuyuladi.

O‘tgan hayotga baho berishda esa go‘yoki uning tasavvurida umridagi asosiy mohiyat o‘tmishda qolgandek, bugunning va kelajakning o‘rni ahamiyatsizdek tuyulaveradi. Bunday vaziyatda inson o‘z hayot yo‘lini tahlil qilar ekan, - nima maqsadda o‘tmishdagi faoliyatining buguni uchun ahamiyati nimada ekanligini tahlil qiladi. - Kim uchun va nima uchun nima uchun shuncha harakat qilganman – deya xulosaga keladi. Yolg‘iz keksalarning aksariyati esa o‘z kelajagiga nazar tashlashidan quyidagicha xulosa keladi: - oldimda kelajagimda hech narsa yo‘q, bir necha yillardan keyingi hayotni men ko‘ra olmayman, shuning uchun bugun nima bilandir shug‘ullanishim ahamiyatsiz, kelajakda men bo‘lmasam mening bugungi faoliyatimning kelajak avlod uchun nima

ahamiyati bor? - Albatta bunday tahlillar yolg'iz keksalarda tushkunlik kayfiyatini kuchaytiradi, oqibatda ular hayotning ma'nosini qolmagan - degan pozitsiyaga turib oladi.

Yana yolg'iz keksalarda ijtimoiy munosabati bo'lib, odamlar ayniqsa keksalar mavjud voqelikdan o'zi yashayotgan jamiyatdan izolyatsiyada yashay olmaydilar Odamlarda shunday bir tushuncha shakllanadiki, agar o'z hayoti mohiyatini ijtimoiy maqomidan kelib chiqib tahlil qilsa yaxshi anglab yetadiki, inson – ayniqsa yolg'iz keksalar o'zining jamiyatga, qarindoshlari, hamkasblariga, umuman kimadir kerak ekanligini anglash shu keksa insonning o'z hayoti mazmuniga munosabatini o'zgartiradi., hayoti mazmunli tuyuladi. Yolg'iz keksalarning o'z hayoti mohiyatini tahlil qilishlari ba'zan negativ hissiyotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular sirasiga aybdorlik hissi, uyalish, umidsizlik kabilalar kiradi. Bu o'z navbatida shu insonda faoliyatsizlikni kuchaytirib atrofdagilarga atrofdagilarga nisbatan agressiv munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Zamonaviy jamiyatlarda mazkur holatlar oz bo'lsada uchrab turishligi tashvishli albatta. Keksayganda odamlarga shaxsiy va kasbiy jihatdan o'sish fakti muhim hisoblanmaydi, balki ular o'zlarining hayoti davomidagi faoliyati tajribasiga tayanib boshqalar faoliyatini va qarashlari va ko'nikmalarini tahlil qilib baho berishni afzal biladilar. Go'yoki, bu ularning keksalik maqomining muhim jihat deb hisoblaydilar. Keksalar tanqid va nasihat qilishni yoqtiradilar, bunga o'zlarini haqli hisoblaydilar. Agar ularning bu holati boshqalar tomonidan salbiy baholansa ular uchun go'yo hayot o'z mohiyatini yo'qotadi. Ayniqsa ularni yaqinlari e'tirof etmasa o'zlarini jamiyatga va yaqinlariga keraksizdek sezadilar. Inson butun umri davomida boshqalar qurshovida yashaydi.

Bunday sharoitda insonning emotSIONAL munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Odatda inson uchun tug'ishganlari eng yaqinlari hisoblanadi. Bundan tashqari yaqinlar qatoriga do'stlar, qo'shnilar, hamkasblar, ustoz yoki shogirdlar ham kirishi mumkin. Yaqinlari bilan muloqotlar orqali inson o'zini shaxs sifatida his etadi. Turli odamlar bilan munosabatlar o'ziga xos quriladi: bir tomonidan kim bilandir ma'lum bir fazilatlar orqali munosabatlar o'rnatilsa, boshqa bilan boshqa bir fazilat orqali yaqinlashish mumkin. Shunday qilib, agar inson boshqa odamlar bilan yetarlicha muloqotga ega bo'lsa, yetarlicha tuyg'ularni oladi, keyin bunday munosabatlardan qoniqadi, shaxs sifatida o'sadi. Agar keksalarga o'z tengqurlari bilan emas, boshqa ulardan kichik yoshdagilar bilangina munosabatda bo'lsa ularga ta'sir etuvchi emotSIONAL holat kamayadi. O'z tengqurlari, do'stlarini yo'qotish esa keksalarda muloqot doirasini ancha cheklab qo'yadi. Muloqot va uchrashuvlar davomiyligi kamayadi yoki yo'qoladi, yangilari esa hali bo'lmaydi. Ba'zida bunday aloqa yetishmasligi keksalar uchun ijtimoiy muammoga aylanishi mumkin.

Ayniqsa bu yolg'iz keksalarga yoki nafaqadagi ishlamay uyd qolganlar uchun ularning eski ijtimoiy aloqalarini sezilarli darajada qisqartiradi yoki yo'qolgan muloqotlar o'rnini endi to'ldirish qiyin kechadi. Ana shunday holatlarda yo'qotilgan o'rinni qoplash uchun oldindan imkoniyatlarni shakllantirish kerak. Keksalarning jismoniy kuchlari ham cheklanganligini hisobga olish muhim albatta.Keksalar ham keksaygach farzandlari bilan avvalgiga nisbatan kamroq vaqt o'tkazadi. Chunki yoshlarning keksalarga nisbatan yumushlari ko'p. Qarindoshlar ham aksariyat holatlarda o'z dunyosida o'z muammolari bilan band bo'ladi. Mazkur holatlarda keksalar o'zlarini o'ta yolg'iz va keraksiz va e'tibordan chetda his qiladi, ularning tasavvurida hayoti tugagandek kayfiyat shakllana boshlaydi. Kasallik tufayli to'shakka mixlangan odamlar uchun o'zini foydasiz his qilish muammosi dolzarbdir.Ular boshqalarga qaram ekanligini anglash bilan ruhan eziladilar va o'z tanalari go'yo ularga xiyonat qilgan deb tushunadilar. Keksayib borgan sayin insonning kasalliklarni yengish qobiliyati susayib borishi tayin. Tanadagi biologik resurslarni kamayib borishi buning asosiy omilidir. Sog'likni tiklash uchun ketadigan vaqt keksalarda yoshlikdagidek kechmaydi, imkoniyatlar chegaralangan bo'ladi.

Shu boisdan ham keksalarda sog'likning yomonlashuvi zamonaviy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Shu sabablardan ham salomatlikni saqlash uchun keksalar harakatda bo'lishlari lozim. Albatta keksayganda jismoniy faol bo'lish qiyin. Ayniqsa yoshlikdan jismoniy faol bo'lganliklari uchun organizmdagi o'zgarishlarga ko'nikish qiyin. Shu sababdan keksalar ko'proq harakatda bo'lsa tana ularga bo'ysuna boshlaydi. Bu borada yana ko'proq to'xtalish mumkin. Ammo bugungi kunda keksalarning ijtimoiy muloqot doirasining torayishi ularning jamiyatdagi ijtimoiylashuvida jiddiy to'siq bo'layotgan muammolardan biri.

Kuzatishlarimizdan kelgan xulosalarimizga ko‘ra inson keksalikda jismoniy mavjudligi uchun tobora ko‘proq kuch sarflaganligi sababidan izolyatsiya kabi ekzestinsial muammo dolzarb bo‘ladi.[8, – 553] Keksalar o‘z vaqtlarini o‘zлari bilan yolg‘iz o‘tkazishi o‘zлarini bo‘shlikda butun dunyodan ajratilgan his qiladilar Keksa yoshda odam kuchi uni asta sekin tark etayotganini tushunadi, bori esa avvalgi odatiy turmush tarzini saqlab qolish uchun yetarli emas ekanini anglaydi. Shuning uchun ular o‘z hayotlariga imkon qadar ko‘proq odamlarni jalb qilishga harakat qiladilar. Yolg‘izlikni his qilmaslik yo‘li shunda deb tushunadilar. Biroq bu muloqot ham quvonish keltirmaydi faqat qayg‘u keltiradi, bu haqiqiy munosabatlarning chin paradoksi hisoblanadi. Katta yoshdagi yolg‘iz keksalar bilan ishslashda ularning boshqalar bilan munosabatlari sifatli ekanligini muhokama qilish muhim ahamiyatga ega. Odamlarda norozilikdan uning shaxsini qo‘llab – quvvatlaydigan muloqot jihatlariga o‘tishga yordam berish muhimdir. Shuningdek, keksa odamlar yolg‘iz o‘zi uchun foydali ish qiladimi yo‘qmi ularni tushunish lozim. Eng muhimi, ulardagи yolg‘iz qolish va ko‘p hollarda o‘limdan qo‘rqish kabi doimiy xavotir holatiga tushib qolishlariga izn bermaslik - ijtimoiy muloqot doirasini kengaytirishdan ko‘zlangan maqsad aynan shu jihatlarga qaratilishi zarur.

BMT ning aholishunoslik yo‘nalishida olib borayotgan tadqiqotlari doirasida yurtimizda samarali faoliyat olib borilmoqda.[9, – 195] Bugungi kunga demografiya sohasidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Negaki, globallashib ulgurgan muammolar qatorida biz yer yuzida umr ko‘rish davomiyligining oshib borishi hisobiga mavjud jamiyatlardagi aholi orasida keksalar soni ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayonlar dinamikasida o‘sish bo‘lishi tabiiy va ijobjiy. Agar 1950-yilda yoshi 60 yoshdan oshgan keksalar soni dunyoda 214 millionni tashkil etgan bo‘lsa, 1975-yilda mazkur ko‘rsatkich 350 millionga yetgan. Olimlarning tadqiqotlaridan kelib chiqib bashorat qilishlaricha bu 2025-yilga kelib 1 milliardni tashkil etishi mumkin. Bu albatta hozirgacha mavjud bo‘lgan tug‘ilish yoshi holatlari bilan ham bog‘liq. Bunday holat o‘z navbatida yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiyasi muammosini ham kun tartibiga dolzarb muammo sifatida qo‘yadi. Bu aniq yechim talab qiladi. Sifatli va farovon hayot tarziga erishish barcha davlatlarda ham azaldan to hozirga qadar oson kechmagan muhim ijtimoiy jarayon. Keksa yolg‘iz qariyalarni hayot sharoitini yaxshilash, ularning uzoq umr ko‘rish davomiyligini cho‘zish, sog‘lig‘i va hayot sharoitini yaxshilash bilan bog‘liq muammolarni hal qilish aniq va samarador dasturlarni talab qiladi. Har bir fuqaroning huquqiy maqomi uning o‘z mamlakatidagi qonunchilik asoslari bilan bog‘liq albatta . Bu borada O‘zbekiston Respublikasida yangidan kuchga kirgan Konstitutsiyamizda keksa yoshdagи aholining davlat tomonidan ijtimoiy himoyasi o‘z aksini topgan. Xususan, “mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar bo‘lgan shaxslar hamda aholining boshqa toifalarini huquqlari davlat himoyasidadir” – deyiladi asosiy qonunning 57-moddasida [10, – 4].

Yurtimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Taraqqiyot strategiyasi vatan taraqqiyotining yangi yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizni jadal rivojlantirishda inson omiliga hal qiluvchi kuch sifatida yondashilmoqda Fuqarolarning yaratuvchilik ruhi, faolligi, xususan ulardagi vatanparvarlik, mas’uliyat, professionalizm, ma’naviyat omillarining yorqin namoyon bo‘lishi Yangi O‘zbekistonimizning ma’naviy qiyofasini gavdalantirib beradi. Har qanday mamlakat taraqqiyotida inson omilining o‘rnini beqiyos ahamiyatga ega ekanligini bugungi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan o‘rganish mumkin. Zeroki, bugun yurtimizda fuqarolik jamiyatasi asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan omil – xalqni rozi qilish masalasini bir lahma unutmagan holda ijtimoiy – iqtisodiy siyosat olib borish islohotlar natijadorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘z fuqarolarini kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali kirib bormoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarda esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami keksalarga e’tibor qaratib ularga munosib hayot sharoitlarini ta’min etib berish zaruriyatini hayotning o‘zi istiqlolning ilk kunlaridanoq kun tartibiga qo‘ygan edi. Ijtimoiy himoya davlatimiz olib borayotgan eng muhim siyosati sifatida e’tirof etilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ham yolg‘iz keksalarni ijtimoiy himoyalash borasida bir qator kompleks dasturlar ishlab chiqildi. Bu avvalo psixologik, tibbiy va boshqa sohalar bilan bog‘liq. Ayniqsa yolg‘iz keksalar davlat va jamoatchilik tomonidan alohida e’tiborga muhtojdir. O‘z mohiyatiga ko‘ra yolg‘iz keksalarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni funksional o‘zgarishlarni talab

qiladi. Qolaversa mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda inson omili masalasi markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Inson omili – demografiya, ijtimoiy himoya, ma’rifat, ma’naviyat, odob – axloq tamoyillariga bevosita bog‘liq holda amalga oshiriladi [11, – 49].

Inson omili faol bo‘lmasa millatimiz oldida turgan birorta ulkan vazifa uddalanmaydi. Inson omilini faollashtirishda inson kapitali ko‘lami, salohiyati va qobiliyati muhim e’tibor qilish kerak bo‘lgan jihatlardir.[12, – 50]

Mazkur jarayonlar professional, tibbiy, yuridik reabilitatsiya bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Bunday kompleks ijtimoiy reabilitatsiyani uch xil yo‘nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchidan, mehnat qobiliyatini saqlash bo‘yicha choralar; ikkinchidan, shaxsni jamiyat hayotidagi faoliyatga qaytarish choralar; uchinchidan, o‘z – o‘ziga maishiy xizmat ko‘rsatish uchun qulay shart – sharoitlar yaratish. Uchinchi tomonning samarali yordam ko‘rsatishiga qo‘shimcha ravishda yosh cheklovlariga qaramay fuqarolarning o‘zini har tomonlama qoniqarli hayotga bo‘lgan istagi tahlil qilinadi. Agar bunday istak bo‘lsa, reabilitatsiya jarayoni muvaffaqiyatli bo‘lishi ehtimoli ko‘proqdir.

Tibbiy reabilitatsiya – bunda asosan yolg‘iz keksalarni bemorligidagi kasallik turi, jarohatlardan keyingi sog‘ligini saqlash va tiklash bo‘yicha maxsus chora tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bunga qon aylanishi, mushak tonusi, immunitetni boshqa tana funksiyalarini aniqlashning terapevt usullari, o‘simplik, dori–darmonlar, individual diyetani tanlash; harakatchanlikni tiklash uchun ergo va mexanoterapiyani tiklash; sihatgohlarda davolanish, massaj sianslari, vosita cheklovlarini qoplash uchun texnik qurilmalardan foydalanishlar kiradi. Shuningdek, tibbiy reabilitatsiya tibbiy ko‘rikdan o‘tishni, ijtimoiy tibbiy xodimlarning xizmatlarini, keksalarning salomatligini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy – psixologik reabilitatsiya – bunda ma’lum bo‘ladiki, aslida psixologik va ijtimoiy jihatlar bir – biri bilan bog‘liq. Bunda birinchidan, bemorning ijobiy kayfiyati, hayotga va ishga qiziqishini o‘z ichiga oladi. Bu uchun ixtisoslashgan mutaxassislar – masalan psixolog yoki psixiatrlar mas’ul bo‘lib aro va o‘simplik, dori – darmonlar, meditatsion amaliyot, guruh mashg‘ulotlari hamda boshqa usullar qo‘llaniladi.

O‘z navbatida ijtimoiy reabilitatsiya insonni jamiyatga - uning faol birligi sifatida qaytarishga qaratilgan. Bu borada aholining bo‘sh vaqtini va ta‘limni tashkil etish, ma’naviy yuksalishni qo‘llab – quvvatlash, o‘z – o‘ziga xizmat ko‘rsatish va iqtisodiy mustaqillikka bo‘lgan rag‘batlantirishni kuchaytirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Keksalarni zarur tibbiy asbob - uskunalar bilan ta‘minlangan sharoitda davolanib sog‘ligini tiklashni yo‘lga qo‘yish ijtimoiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muhimi, keksalar ularning hayoti jamiyat uchun ahamiyatli ekanligini his qilishidir. Bu faol hayotga turtki berib, jismoniy va ruhiy ko‘tarinki holatni saqlashga yordam beradi. Bu borada maishiy reabilitatsiyaning ham muhim o‘rni bor.

Bunda obyektiv sabablarga ko‘ra yolg‘iz keksalar va nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda qolishga majbur bo‘lgan fuqarolar uchun yashash sharoitini tashkil etish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Keksalar saxovat uylari va shu yo‘nalishdagi pansionatlarda barcha shart sharoitlar bo‘lsada, bunday joyga olib kelgingan yolg‘iz keksalarning yangi joyga moslashishlari oson emas. Bunda yordam berish uchun psixologik choralar ishlab chiqilishi , albatta bunda har bir keksaning individual xususiyatlari inobatga olinib faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, bugungi kunda ommalashgan internet imkoniyatlaridan foydalanish ham moslashuv jarayonida muhim rol o‘ynashi mumkin. Mehnat va kasbiy reabilitatsiya faoliyati ham reabilitatsiya jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Eksperimental tasdiqlangan tadqiqotlarga ko‘ra xotira va intellektni o‘rganish yoshga bog‘liq deyishning har xil turlarini oldini olishga yordam beradi. Shuning uchun keksalar boshqotirmalar, krossvordlar intellektual o‘yinlar va boshqa vositalardan foydalanish mumkin. Bunda kitob o‘qish va ba’zan til o‘rganish holatlari ham inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kasbiy jihatdan ijtimoiy reabilitatsiya bir necha usullarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ular: birinchidan, terapevtik faoliyat – bu mavjud tajriba va muloqot qobiliyatlarini saqlab qolish; ikkinchidan, mehnat va kasbiy reabilitatsiya yo‘nalishida yangi ko‘nikmalarni egallash va eskilarini to‘ldirish; uchinchidan, terapevtik va xavfsizlik yo‘nalishida bemor tanasining salomatlik holatini nazorat qilish [13,–247]. Kasbiy reabilitatsiya – bu bevosita bandlik bilan bog‘liq maxsus muassasalarda uning quyidagi turlarini qo‘llash mumkin: turli xildagi tikuvchilik turlari, bog‘ ishi, pazandachilik turlari, sport faoliyati, madaniy faoliyat va san’at ijodkorligini namoyon etishga

yordam beruvchi keng ko‘lamli faoliyat turlari va boshqa shular kabi yo‘nalishlardir. Kasbiy mehnat reabilitatsiyasi usuli insonning psixofizik imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual ravishda tanlanishi zarur.

XULOSA

Yolg‘iz keksalarni faol ijtimoiy hayotga reabilitatsiya qilish jarayonida axborot ta’lim reabilitatsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu turdagи reabilitatsiya choralarida yolg‘iz keksa yoshdagilarni hayot sifatidagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlariga maksimal darajada og‘riqsiz moslashtirishga qaratilgan. Yangi sevimli mashg‘ulotlarni ko‘p qirrali axborot ta’minoti, intellektni faol holda saqlash vositalari bu muammoni hal qilishga yordam beradi [14, – 109]. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yolg‘iz keksalarning eng muvaffaqiyatli ijtimoiy reabilitatsiyasi ixtisoslashtirilgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bunday muassasalarda bemorlar bilan har tomonlama ishlash uchun barcha zarur sharoitlarning yaratilganligi ishning natijadorligida muhim ahamiyat kasb etadi, yolg‘iz keksalarning faolligini oshiradi, o‘z tengdoshlari bilan faol muloqotiga yo‘l olib beradi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Вандекрик К. Демографический анализ. – Москва; 2005. – С. 23.
2. Косов П.И., Берендеева А.Б. Основы демографии. Учебное пособие. 2- изд. доп. и переработ. – Москва: ИНФРА – Москва, 2010, – С. 67.
3. БМТ нинг аҳолишунослик йўналишида олиб борган тадқиқотлари таҳлилидан. 2021 - 2022 йил ҳисоботи. – Б. 4.
4. БМТ нинг аҳолишунослик йўналишида олиб борган тадқиқотлари таҳлилидан. 2021 - 2022 йил ҳисоботи. – Б.6.
5. Издание ООН № R 82, 1, 16, глава IV , раздел A, 2002.
6. Проблема старения в Европе и Центральной Азии; седая вольна или золотой век? География. Учебник для 11 классов. – Москва: Просвещение. – С.87.
7. Доклад Всемирной Ассамблеи по проблемам старения. Вена, 26 август. – 1982 год. – С.128.
8. Жаҳон фалсафаси қомуси. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 2023. 2 - жилд, – Б. 553.
9. 2017 йил сентябрида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош асамблейсининг 72-сессиясидаги нутқи. –Тошкент, 2019. Илмий методик қўлланма.
10. Ф.Отахонов. Ижтимоий давлатнинг конститутцияйи асослари. Халқ сўзи. 10.04.2023 йил. – Б.4-бет.
11. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент: Ёшлиар нашриёт уйи, 2020. – Б. 49.
12. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент: Ёшлиар нашриёт уйи, 2020. – Б. 50.
13. Карсаевская Т.В. Социальная и биологическая обусловленность изменение в физическом развитии человека. – Ленинград, 2012, – С. 247.
14. Юдахова Л.Б. Лечебная физическая культура в пожилом и старческом возрасте при составлениях решение. Практика медицины. – Москва, Медицина, 2013. – С.109.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qodirjon Mahkamov

Namangan davlat universiteti dotsenti (PhD),
e-mail: maxkamov_82@mail.ru

JAMOAVIY XOTIRA VA TARIXNING IJTIMOIY TAVSIFI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixning jamoaviy xotirada shakllanishi, uning rivojlanish bosqichlari hamda tarixiy jarayonlarning jamiyat hayotiga ijtimoiy ta'siri haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, tarixni anglash va bilish jarayonida tarixning ilmiy-amaliy vazifalari, jamiyat kundalik turmush tarzini jamoaviy xotiraning namoyon bo'lishi, tarixning ijtimoiy tasviri, turli ijtimoiy guruhlar tomonidan o'z tarixini tasavvur etish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan. Milliy ijtimoiy xotiraning bugungi global jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, uning sotsial, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy hamda siyosiy funksiyalari hamda ayrim g'ayr-siyosiy kuchlar o'zlarining qarashlari, yuqori gegemoniyasi qolaversa, buzg'unchi nazariyalari orqali xalqlar, millatlar o'rtasiga soxta tarixiy davolar solish va shu orqali jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartiblarni izdan chiqarishning oqibatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xotira, ijtimoiy, tarix, tasvir, jamoa, qadriyat, rivoyat, ijtimoiy xotira.

Кадиржон Махкамов

Доцент Наманганского государственного университета (PhD),
e-mail: maxkamov_82@mail.ru

КОЛЛЕКТИВНАЯ ПАМЯТЬ И СОЦИАЛЬНОЕ ОПИСАНИЕ ИСТОРИИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается социальное влияние исторического процесса личности, процесса управления им на жизнь общества в коллективной памяти. В то же время в процессе понимания и познания истории используются научные и практические труды по истории, проявление коллективной памяти о повседневном образе жизни общества, социальном образе его истории, различные исторические исследования, раскрыта информация о осознании собственной истории. Роль и значение национальной социальной памяти в современном глобальном обществе, ее социальные, социально-философские, образовательные и политические функции, а также взгляды некоторых неполитических сил, поддерживающих высокую гегемонию, деструктивные теории через народы, нации.

Ключевые слова: память, социальное, история, образ, сообщество, ценность, повествование, социальная память.

Qodirjon Maxkamov
 Senior lecturer at Namangan State University
 e-mail: maxkamov_82@mail.ru

COLLECTIVE MEMORY AND SOCIAL DESCRIPTION OF HISTORY

ANNOTATION

The article examines the social influence of the historical process of the individual, the process of managing it on the life of society in collective memory. At the same time, in the process of understanding and knowing history, scientific and practical works on history are used, the manifestation of collective memory about the everyday way of life of society, the social image of its history, various historical studies, and information about the awareness of one's own history is revealed. The role and significance of national social memory in modern global society, its social, socio-philosophical, educational and political functions, as well as the views of some non-political forces that support high hegemony, destructive theories through peoples and nations.

Key words: memory, social, history, image, community, value, narrative, social memory.

KIRISH

Fanda ijtimoiylashuv deganda, – “inson omonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o’zlashtirilishi jarayoni”[1,–147] deyilsa sotsiologik adabiyotlarda “Jamiyat normalari va qadriyatlarini shaxs tomonidan o’zlashtirish jarayoni” [2, – 395] deya ta’riflanadi. U bir umr davom etib, ijtimoiy hayotda ma’lum rollar, vazifalarni, xatti-harakat va turli yondashuvlarni o’zlashtirib boradi. Amerikalik psixolog va sotsiolog olim Djordj Gerbert Mid individning ijtimoiylashuv jarayonining ontogenetik yondashuvi uch qismga: psixogenetik, simvolik va aqliy-konseptual bosqichlarga ajratib ko’rsatgan. Irland tarixchi Gay Beyner o’z tadqiqotlarida “ijtimoiy xotira ijtimoiy unutish tushunchasini orqali chegaralanadi” [3,5 – 17] deydi. Devid Riff esa jamoaviy xotira ayni paytda tirik odamlar xotirasidir degan fikr bildiradi.

Jamoaviy xotiramizda tarix qanday ijtimoiylashadi degan savol tug‘iladi. U olingan tarixiy bilimlarning jamiyat ijtimoiy hayotida anglay olish va qo’llay olishni bildirib, bunda milliy tarixiy ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o’tmishda ajdodlarimiz milliy meroslarimiz bo‘lmish hamda bugungi kunda xalq og‘zaki ijodining boy namunalari bo‘lmish asotirlar, afsonalar, ertak va matallar, doston va rivoyatlar orqali kishilarda jamoaviy tarixiy xotirani shakllantirganlar ijtimoiy hayotda esa ular ijtimoiy xotira sifatida namoyon bo‘lib turgan. Qolaversa tarixiy yilnomalar, asarlar allomalar qoldirgan ma’naviy meros jamoaviy xotiraning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan. Masalan, miloddan avvalgi 460-395 yillarda yashagan tarixchi olim Fukididning miloddan avvalgi 431-404 yillardagi Peleponnes urushlari haqidagi (“Istoriia Peloponnesskoy voynы”) [4, – 716] asari dunyodagi birinchi ilmiy tarixiy asar sifatida e’tirof etilsa-da undagi voqeа va hodisalar kishilarga tushunarli bo‘lishi uchun asotir va afsonalar asosida bayon etilgan. Bu asar o’sha davr tarixiy voqealarini ishonchli va haqqoniy tasvirlangani bilan ajralib turadi. Fukidid kitobida hayotiy voqealar tasviriga Olimp “xudo” larini aralashtirilmaydi. U voqeа qatnashchilarining hikoyalardan foydalaniładi. U asotirlar va afsonalardan foydalangan holda tarixiy rivojlanishda iqtisodiy omillarning ta’siriga asosiy e’tiborni qaratib, jamiyat birligini ta’minalash milliy birdamlik ekanligiga urg‘u beradi. “Bu vaqt davomida, albatta, odamlar tarixiy fikrlashni to’xtatmadilar, ammo ularning tarixiy tafakkuri nisbatan sodda yoki hatto ibtidoi yed, uni hal qilish qiyin deb hisoblangan muammolarni bilmas edi, hech narsa uni o‘z-o‘zini bilishga undamadi. Tarixiy tafakkur rivojlanishining falsafiy yoki ilmiy tarix kabi faraziy bosqichi ham mavjud emas, bu faktlarning qonunlarini yoki sabablarini ochib beradi, yoki ularni umuman tushuntiradi, chunki tarixiy haqiqat, tarixiy shaxsning fikrlarini tarixchi ongida qayta tiklash jarayonida, tarixiy shaxsning fikrlarini qayta tiklash jarayonida, bir vaqtning o‘zida tushuntiriladi. Tarixchi uchun nima bo‘lganini aniqlash va nima uchun sodir bo‘lganligini tushuntirish o’rtasida farq yo‘q” [5, – 324].

Tarixiy voqealarni haqiqatga yaqin qilib tasvirlash san'ati Polibiy asarlarida ham uchraydi. U kishilar tarixiy xotirasini rivojlantirish uchun tarixni jonli tarzda yetkazish muhimligini uqtiradi. Shuning uchun ham u “Umumjahon tarixi” asarini tarixiy esdaliklar tarzida bayon etgan. “Zero tarixiy asar faqat o'tmish manzaralarini shunchaki tasvirlabgina qolmaydi, balki ajdodlarimizning hayoti orqali shu bugungi kunimizni istiqlolni qadrlashga o'rgatishi kerak”[6, – 475].

METODOLOGIYA

Sharq mamlakatlarida tarix, tarixiy jarayonlar ko‘proq din va shariat asosida yoritilgan bo‘lib, voqeal-hodisalar sababiyatini din bilan uyg‘unlashtirish lozim topilgan. VIII-XI asrlarda musulmon sharqida arab, fors, turk mutafakkirlar yetishib chiqdi. Jumladan, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ja’far-Tabariy va Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar sharq tarixshunosligining asoslarini yaratdilar. Al-Xorazmiy o‘zining “Mafotih al ulum” asarining birinchi, ya’ni “Arab ilmlari” qismiga kiritgan hamda unda islomgacha bo‘lgan va islomdan keyingi davr tarixini, qisqacha Eron, Rum tarixini bayon qilganida o‘z davrining an’anasiga binoan podshohlar sulolasiga alohida e’tibor bergen. “Avgust Qaysar – uni imperatorlar ichida birinchi bo‘lib, sezar, ya’ni Qaysar deb atashgan. Bu so‘zning ma’nosasi “kesib olingan”, shunday deyishlariga sabab uni o‘lgan homilador onasining qornini yorib chiqarib olganlar”. [7, – 18]

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida tarixni anglash va bilish to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “Qadimgi xalqlarning hayoti, ularning urf-odatlari haqida ushbu xalqlar rivoyatlari va ajdodlar bilimlariga ega bo‘lishning eng yaqin yo‘li turli dindagi va ta’limotdagagi kishilarning yozganlarini tadqiqotga asos qilib olishdir. Keyin dalil sifatida keltirilgan turli fikrlar qiyosiy tahlil qilinadi. Ammo, avvalo o‘z qalbimizni haqiqatni bilishga to‘siq bo‘luvchi sabablardan, ya’ni o‘rganib qolningan odatlar, mayllar, raqobatchilik, hokimiyat uchun kurashdan xalos qilishimiz lozim... Men taklif qilayotgan usul oson yo‘l emas, aksincha, murakkab va mashaqqatli yo‘l, rivoyatlar va hikoyalarda bema’ni gaplar ko‘pligidan maqsadga erishish mumkin emasdek tuyuladi... Biz yaqindagi rivoyatlardan uzoqroqda bo‘lganiga, ma’lumrog‘idan noma’lumrog‘iga o‘tib, imkon qadar ularni to‘g‘rilab, qolganini shunday qoldirishimiz lozim”.[8, – 11-12]

Yana bir mutafakkir Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida tarixning ikki jihatini ajratib ko‘rsatadi: tarix – rivoyat, ajdodlar haqidagi xabar, tarix bu – “haqiqatni tiklash, borliqning asosi va boshini aniqlash, voqealar qanday va nima sababdan yuz bergani haqidagi chuqur bilim”. [9, – 559] Tarix dunyoqarashi insonning xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi: u ma’lum toifalarda fikr yuritadi. O‘tmish zamonaviy inson faoliyatining asoslarini yaratdi. Biroq, u bevosita idrok etilmaydi. Har bir inson faoliyati kelajakka qaratilgan bo‘lib, uni faqat oldindan ko‘rish mumkin. Bu odamga o‘z ishining ma’nosini tushunish imkonini beradi. O‘tmish, hozirgi va kelajak inson ongida kesishadi.

ASOSIY QISM.

Jamoaviy xotira tarixning ijtimoiy tasviri, turli ijtimoiy guruuhlar tomonidan o‘z tarixini o‘zlaricha tasavvur etishlari bo‘yicha shakllantirish ijtimoiy ideal, milliy o‘ziga xos qadriyatlar, an’anaviy marosimlarning jamoa vakillari ongiga ta’siri orqali o‘tmishni baholash va ijtimoiy tasavvurni shakllantirishni keltirib chiqarishi oqibatida jamoaviy egotsentrik xususiyatlar rivojlanadi. Jamoaviy xotirani kognitiv daraja shakllantirish odamlar o‘rtasidagi o‘zaro suhbatlashish natijasida ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali xotira sinxronlashadi, xotirada yuz bergan o‘zgarishlar o‘zaro hamkorlikni keltirib chiqarib, jamoaviy xotirada birlashish yuzaga keladi.

Sotsiolog olim Moris Xalbvaksning fikricha “agar ilgari o‘tmishni saqlab qolish an’anaviy jamiyatdagi hayot tarzi tufayli “avtomatik ravishda” sodir bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviylik davrida vaziyat o‘zgardi. U, jamoaviy xotira, garchi u haqiqiy o‘tmish haqida ishonchli tasavvur bermasa ham, ijtimoiy hodisa” [10, – 1064] degan xulosaga keldi. Ammo bir qator tadqiqotchilar (Jon Skott, Jeyms Vertch, Aleyda Assman, Jak Le Goff) jamoaviy xotira tushunchasini ijtimoiy xotira bilan birga qo‘llash lozim, sababi, ushbu tushuncha aynan qaysi jamoani nazarda tutishini aniqlash qiyin degan xulosaga kelganlar. Ularning fikricha, kishilar o‘z o‘tmishlarini shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatlar orqali muhim rol o‘ynaydi deb hisoblashadi. Moris Xalbvaks xotiraning jamoaviy xususiyati ularning o‘z o‘tmishiga guruqli tarzda qarashlaridir deydi.

Tarixni yangicha talqin qilish konsepsiysi xalqning o‘z o‘tmishini o‘rganishga bo‘lgan

qiziqishi obyektiv tarzda ortgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Jamiyat o‘tish davrini boshdan kechirayotgan bir pallada tarixiy ongni va tarixiy xotirani tiklash jarayonlari juda jadal va ziddiyatli kechadi. Tarixan qisqa davrda tarix qayta yozildi. “O‘zbek olimlarining kuch- g‘ayratlari bilan tariximizning ko‘pdan-ko‘p g‘oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi”. Tarixni qaytadan yozish, tarixiy haqiqatni tiklash milliy g‘oyani rivojlanishida konseptual asos rolini o‘ynadi. Zero milliy ijtimoiy xotira yoshlarda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishga ta’siri beqiyos.

Xalqimizning sovetlargacha bo‘lgan tarixi faqat qora bo‘yoqlarda bitilgan, salbiy jihatlar bo‘rttirib ko‘rsatilgan edi. Turli millat va elatlardan yetishib chiqqan mutafakkirlar hukmron mafkura talablariga mos tushsa darsliklarga kiritilgan. Masalan, “O‘zbekiston SSR tarixidan hikoyalar” kitobida Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar haqida qisqagina ma’lumot berilgan esa-da, lekin Imom Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Zamaxshariy kabi yuzlab buyuk muhaddislar, ulamo to‘g‘risida lom-mim deyilmagan. Shu bilan birga milliy ozodlik harakati namoyondalari deylik Maxmud Tarobiy, Temur Malik, Po‘latxon, Istiqlolchilar (ularni sovet tarixchilari bosmachilar deb atashgan), jadid allomalari va boshqa millat qahramonlarni umuman xalqqa tanishtirilmas ular o‘rniga sovet hokimiyatini o‘rnatalishida jonbozlik ko‘rsatgan kishilar ko‘klarga ko‘tarilardi. F. Dzerjinskiy, Kirov, Budyoniy, Frunze, Chapaev kabi kishilar tarixi chuqur o‘rgatilar, joylarga nomlari berilar edi. Aslida “Tarix-bu hech kimga va hech qanday mafkuraga sig‘inishni yoqtirmaydigan o‘tmishdir. Mafkura tarix faniga aralashmasligi va u mafkuradan holi bo‘lishi kerak. Tarix bu faqat haqiqatga bo‘ysunadi va u hech kimning xizmatini qilmaydi ham”. Respublikamizning Farg‘ona vodiysi viloyatlari, Surxondaryo, Toshkent (Olmaliq shahri) hamda Xorazm viloyatlarining tasodifiy tanlov asosida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot davomida respondentlardan “Tarix” so‘zini qanday tushunishi haqidagi so‘rov anketaga unda ishtirok etgan 1198 ta respondentning 76,1 % i “O‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqe-hodisalarini” tushunishi bildirgan.

Tariximizning 1917-1991 yillari tom ma’noda sovetlar uchun yaratilgan va ular uchun yozilgan, ammo butun xalqqa majburan tiqishtirib o‘qitilgan tarix bo‘ldi. U davrda milliy tarixdan ko‘ra bolsheviklar partiyasining hokimiyat uchun kurashi, 1917 yil inqilobi va undan keyingi davr keng yoritilar edi. Xalqimizning sovetlargacha bo‘lgan tarixi faqat qora bo‘yoqlarda bitilgan, salbiy jihatlari bo‘rttirib ko‘rsatilgan edi. Biz buning sabab-mohiyatini Chor Rossiyasining O‘rta Osiyodagi istilochilik harakati boshlanishidan oldingi asrlardan qidirmog‘imiz lozim. Bir qator tadqiqotchilarga ko‘ra, milliy yakdillik bo‘lмаган joyda birdamlik bo‘lmaydi, katta xalqlar tomonidan kichik xalqlarga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari yuzaga keladi. Agar xalq birlashsa, jipslashsagina o‘z taqdirining egasi bo‘la oladi. O‘tmishning bu kabi “achchiq saboqlari” to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

“Tarixiy voqealarni o‘rganishda to‘g‘ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanish uning mazmun-mohiyatini to‘liqroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Sobiq Ittifoq davrida tarixiy tadqiqotlarni olib borish, o‘rganish va o‘qitish jarayonlari Marksizm-Leninizm metodologiyasiga to‘liq bo‘ysundirilgan edi. Har qanday tarixiy voqelik sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarlaridan yondashilgan. Tarixiy voqe-hodisalar kambag‘allarni va yo‘qsillarni himoya qilgani tarzda, ularning manfaatlariga muvofiq holda yoritildi”. “O‘zbek xalqining milliy madaniy qadriyatları, boy ma’naviy merosi, uning qadimiylarini an’ana va urf-odatlari unutildi. Islom dini, uning qadriyatları oyoqosti qilindi, o‘zbek tili ikkinchi darajali tilga, rus tili esa davlat va asosiy muomala tiliga aylantirildi.”

Ajdodlari yaratgan tarixiy madaniy meros bilan tanishar ekan shaxsda jamoaviylikka mansublik hissi vujudga keladi. Bu tarix mening tarixim degan tuyg‘u shakllanadi. Bu uning ko‘z o‘ngida o‘tmishni bor bo‘yi bilan tasavvur etishga, voqealar va jarayonni to‘g‘ri idrok etishiga yordam beradi. “Tarixiy madaniy meros o‘zida juda katta axborotni olib yuradi. Bu axborot inson tafakkurida tushunchalar yordamida shakllanib tarixiy tafakkurga aylanadi”. Tarixni o‘rganishga nisbatan qarashlar va g‘oyalar yoshlar tomonidan tarixiy haqiqatni faqatgina bilimlarni o‘zlashtirish orqali emas, balki, amalda yoshlarning tarixdan olgan bilimlari ularning shaxsiy hayotlarida amaliy ahamiyat kasb etishi lozimligini atroflicha ko‘rsatib berishdan iborat edi.

Kishilar milliy ijtimoiy xotirasini rivojlantirish, ularda tarixiy faktlar tanlash va talqin qilish, ijtimoiy holatga yo‘naltirish solnomalar, biografik va avtobiografik asarlar, geneologik asarlar orqali samarali amalga oshirilgan. Bu borada Qadimgi Xitoy tarixida solnomalar alohida o‘rin tutgan. Masalan, “Lu podsholigida tuzilgan “Chunsyu” solnomasi bo‘lib, unda eramizdan avvalgi XI asrlardagi voqealar tasvirlangan va muallifi faylasuf Konfutsiy deb hisoblanadi. Bundan tashqari, hukmdorlar va yaqinlari nutqlari yozib olina boshlandi”. “Bundan tashqari, unda ijtimoiy hayotning turli sohalari, madaniyat, fanga doir “Traktatlar” mavjud. Shuningdek, asarning “Jadvallar” qismida xronologiyaga oid ma’lumotlar berilgan. Sima Syanning “Tarixiy yozuvlari” Xitoydagi va boshqa Uzoq Sharqdagi tarixiy tafakkur rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yana bir xitoylik yirik tarixchi Ban Gu o‘zining “Xan sulolasi tarixi” asarida faqat bitta sulola tarixini yoritgan edi. Shunga ko‘ra, Ban Gu tarixshunoslikda yangi yo‘nalish- “sulolalar tarixi” asoschisi bo‘ldi”.

Kishilarda jamoaviy xotirani shakllantirish hamda rivojlantirib borishda yuqorida manbalar muhim ahamiyat kasb etar ekan, albatta, bu sohada sharq alohida o‘rin tutadi. Jumladan, “tarixning otasi” deya ulug‘langan “Gerodot ellenlar xudolarining nomini va ko‘p odatlarini, yozuvni va ko‘pgina bilimlarni qadimgi misrliklardan, finikiyaliklardan va boshqa xalqlardan olganini ta’kidlaydi. Platon, Demokrit va boshqalar Sharqqa borib, donishmandlar bilan hamsuhbat bo‘lib, ulardan ilm o‘rganishganini qayd etib o‘tadi”. Gerodotning mashhur “Tarix” kitobi bizgacha eng qadimgi tarixiy manba hisoblanadi. U o‘z kitobida Kaspiy ortidagi vohalar, ularda yashagan massagetlar haqida yozadi. Gerodot birinchi bo‘lib, Kaspiy dengizi nomini Kaspiy xalqlari nomi bilan bog‘liq ekani haqida fikr yuritadi. Mutafakkirning buyuk shaxs ekanligini uning quyidagi xolis so‘zlaridan ham bilish mumkin: “Men o‘zim eshitgan narsalarni hikoya qilyapman, ammo ularning hammasiga ishonishim shart emas. Ushbu xulosa yangi asarimga ham taalluqlidir”.

Ijtimoiy xotira mavzusi XX asrning 80-yillardan boshlab o‘rganila boshlangan bo‘lsa-da bunda xotira tushunchasini tarix fanining kategoriyasi sifatida o‘rganish o‘ziga xos e’tirozlarini keltirib chiqardi. Nemis tadqiqotchilari Raynxart Kozellek va Aleyda Assmanlarni fikricha: “Tarix xotira emas. Tarix va xotira o‘tmish bilan munosabatda bo‘lish, bir-birini to‘ldirish, bir-biriga ta’sir qilishning ikki shaklidir. Tarixiy bilimlar massasiga jon berish uchun bizga xotira kerak, tarix esa doimo siyosiy konyukturaga bo‘ysunuvchi va hozirgi zamon talablari bilan belgilab qo‘yilgan xotira konstruksiyalarini tanqidiy sinovdan o‘tkazish uchun kerak”. [11, –336]

Kozelek totalitar va demokratik jamiyatlarda xotirani shakllantirish mexanizmlarini o‘rganar ekan, jamiyatda jamoaviy xotira mavjud bo‘ladi degan xulosaga keladi. “Totalitar jamiyatlarda buni tarixiy xotirani shakllantiradigan va nazorat qiluvchi davlat amalga oshiradi. Demokratik jamiyatlarda “katta yettilik” deb ataluvchi bu qurilish uchun mas’ul bo‘lib, Kozellek uni “7 katta P” deb ataydi. “Bular professorlar (Professorlar), ruhoniylar va pastorlar (Priester und Pfarrer), PR mutaxassislari (PR-Spezialisten), jurnalistlar (Presseleute), shoirlar (Poeten), siyosatchilar (Politiker)”. [12, – 16]

Jamiyat ijtimoiy xotirasiga ta’sir etishing siyosiy usullar ham mavjud bo‘lib, u hukmron qatlam manfaatlarini ifoda etadi. Yaqin tariximizda ma’lumki jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan voqealari mavjud hukmron sinf tomonidan talqin etilishiga qarab jamiyatda unga bo‘lgan munosabat shakllanadi yoki o‘zgaradi. Bu ham ijtimoiy amneziyani keltirib chiqaruvchi omillardan biridir.

“Zamonaviy qarashlarga ko‘ra doimiy ravishda o‘zgartirilayotgan tarix tobora qo‘shma korxonaga o‘xshab bormoqda: mening o‘tmishim siznikiga o‘xshaydi, bu siz va biz umumiylar bo‘lganimiz uchungina emas, balki merosni ular umumiylar holda o‘zgartirganlari uchun. Tarixni tinimsiz qayta ko‘rib chiqish shunga olib keladi bu esa, bizga ajdodlarimizning his-tuyg‘ularidan tobora uzoqroq va kamroq tushunishga olib keladi.” [13, – 547]

Mashhur tarixchi Mark Ferro turli mamlakatlarning tarix darsliklarini tahlil qilar ekan shunday xulosaga keladi: “mamlakatlar o‘z tarixlarini yoritishda ko‘pincha milliy manfaatlarni hisobga oladilar shuning uchun tarixiy voqelikni butunlay boshqacha tarzda taqdim etilishida ijtimoiy xotira talab va taklif qonuniga bo‘ysunadi: o‘tgan voqealari yo‘qolib qolmasligi, “o‘tkazish va almashish” jarayonida saqlanib qolishi uchun unga talab bo‘lishi kerak. Bunday vaziyatda ko‘p narsa jamiyatning bugungi kunda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan voqealarni aynan nimani qabul qilishiga

bog‘liq. "Odamlarning o‘tmishni eslab qolishlari va uni unutishlari" ularning ongsiz mafkurasining asosiy elementlaridan biridir". [14, – 305] Darhaqiqat tarixchilar o‘tmish haqidagi bilimlarimizni boyishida muhim rol o‘ynaydilar. Tarixni qayta yozish uni mavjud hokimiyat manfaatlariga moslash jamiyatning ayrim guruhlari ongida ijtimoiy amneziyani keltirib chiqaradi va chiqarmoqda.

Tarix va ijtimoiy xotiraning o‘zaro ta’siri shundan ibrat bo‘ladi: birinchidan tarix mavjud ijtimoiy muhitda yozilishi bilan o‘zining siyosiy ifodasini ko‘rsatadi; ikkinchidan, tarixchi jamiyat istagidagi tarixni oolib berishga harakat qilib bu bilan real tarixiy vaziyatlarni chetlab o‘tadi; uchinchidan, yozilgan va jamiyatga realizatsiya qilinayotgan tarix jamoaviy xotirani shakllantiradi; to‘rtinchidan, jamoaviy xotirada shakllangan tarix ijtimoiy xotirada aks etadi va ijtimoiylashib jamiyatning har bir bo‘g‘inini qamrab oladi. Shuning uchun ham ijtimoiy xotira hukmron mafkura yoki g‘oyaning mahsuli sifatida tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy xotira faoliyatining o‘zi uning mavjudligining shunday shakllarida amalga oshiriladi: “afsonalar va arxetiplarda yashiringan jamiyatning yashirin muhim xususiyatlarini o‘z ichiga olib jamoaviy o‘ziga xoslikni izlayotgan shaxsga yordam berish, jamiyatning omon qolishi tajribasini saqlab qolishdir”.

Tarixiy bilimlar muayyan ijtimoiy muhitda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, falsafiy, ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti bilan ajralib turadigan madaniyatning muayyan turida shakllanib tarixiy tadqiqotlarning subyektiv tabiatini odatda tan olinadi, chunki tarixchi nafaqat faktlarni takrorlaydi, balki ularni tushuntiradi. “...asrlar davomida shakllangan falsafaga zid ravishda “har xil fikrlash” zarurligiga va odam o‘zini, dunyonи va uning joyini idrok etish usulini tubdan o‘zgartirishga alohida e’tibor qaratadi. U chiqish yo‘lini bilmaydi va u tavsiya etadigan yagona narsa bu “kutishga tayyorgarlikdir”, xolos”

“Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har xil voqeа-hodisalarining izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi hamda insoniyatning paydo bo‘lishi, tadrijiy evolyutsion takomil jarayoni va boshqalarini o‘rganadi”. Tarix fani insoniyatning ibtidosi, evolyutsiyasi, rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish bilan bir qatorda o‘tmish haqidagi bilimlarni individ ongida mustahkamlash orqali uning jamoaviy xotirasini shakllantiradi. Shu tariqa shaxsda tarixiy ongning ichki strukturaviy komponentlari paydo bo‘ladi.

Tarix va jamoaviy xotira o‘rtasidagi farq ularning xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Tarix o‘z oldida o‘tmish jarayonlarini har tomonlama obyektiv tasvirlash, siyosatdan xoli holda tavsiflashga intilsa, Jamoaviy xotira o‘tmish hodisalarini ma’lum bir guruh, millat yoki jamiyat manfaatlariga bog‘lab o‘sha qatlamlarga xos qadriyat va meros shaklini ifoda etadi. Ammo bu tarix va jamoaviy xotira qarama-qarshi degani emas. Jamoaviy xotira bugungi kun sharoitidan kelib chiqadi. Jamiyatimizda 2016 yildan ikkinchi hukumat davri boshlandi. Natijada jamoaviy xotirada tub burilish yuzaga keldi. Uning ijobjiy jihatlari ko‘p bo‘lsa-da lekin, oldindi 25 yillik tarixni qoralash kompaniyasi jamiyat ijtimoiy xotirasida bo‘linishni paydo qildi. O‘zbekistonning 1991-2016 yillardagi birinchi boshqaruv milliy-tarixiy, madaniy-ma’rifiy tiklanish siyosatini olib borgan bo‘lsa, 2016 yilda davlat tepasiga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy yuksalish sari islohotlarni amalga oshira boshladi. Natijada, sovet davrida qataq‘on qurbanini bo‘lgan va hozirgi kunga qadar oqlanmagan 173 nafar shaxsga nisbatan Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati apellyatsiya instansiyasining oqlov hukmi chiqarildi. Shu bilan birga, G‘alaba bog‘ini barpo etilishi, milliy qahramonlar monumentlarini joylarga o‘rnatalishi, tarixiy obidalarni tiklanishi shular jumlasidandir. Bu kabi islohotlar ijtimoiy xotirani mustahkamlashda muhim o‘rin tutib kishilarda kommunikativ tarzda rivojlanishini ta’minlaydi.

XULOSA

Yan Assmann ijtimoiy xotirani “kommunikativ xotira” [15, – 109-118] tushunchasi bilan ifodalab kundalik muloqotga asoslanishi va og‘zaki madaniyatdagи almashinuvlarga yoki og‘zaki tarix orqali to‘planishini ta’kidlaydi. Shuningdek u jamoaviy xotiraning kichik shakli sifatida tarixiy yozuvlar va moddiy yodgorliklar misol qilib keltiradi. Sobiq ittifoqda respublikalarida o‘qitilgan ijtimoiy gumanitar fanlar darsliklari yagona kommunistik mafkura g‘oyalariga asoslangan edi. “Sovetlar saltanati parchalanishi bilan uning soxtakorlikka, utopik dunyoqarashga moslashgan g‘ayriilmiy tarix va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlari o‘z-o‘zidan zavol topdi, natijada bu fanlarda

ham, ularning namoyondalari ham butun jamiyatimizda ham g‘oyaviy-nazariy, mafkuraviy falsafiy parokandalik, metodologik ilmiy-uslubiy bo‘shliq paydo bo‘ldi.” [16, – 140] Shu singari bo‘shliqlarni to‘ldirish, xalq ma’naviyatini o‘stirish va yanada rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraldi. Bu muammolar dastlabki davrda oliv, o‘rtva va o‘rtva maxsus ta’lim tizimlarida ham yuzaga keldi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimini tubdan o‘zgartirishga ehtiyoj katta edi.

Shu sababdan istiqlolning dastlabki yillaridan xalq ta’limi tizimini isloh qilishga kirishildi. Bir qator ilm dargohlarini maqomi o‘zgartirildi, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash ishlari olib borildi. Mustaqillik milliy qahramonlar, tarixiy ideal, jasorat namunalari bo‘lmish o‘tmish ajdodlarimiz pok nomi va sha’ni to‘liq tikladi. Shu bilan birga, “ mahalliy madaniyatlarning shakllanishi va ularning institutsional tarmog‘ini ishlab chiqish jarayoni zamonaviy davlat konsepsiyasining tug‘ilishi bilan parallel ravishda rivojlandi”.[17, – 209].

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Фалсафа қомусий лугат. – Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.147.
2. Кравченко С.А. Социологический энциклопедический русско-английский словарь. – Москва: Издательство АСТ, 2004. – С.395. (511)
3. Beiner, Guy. Remembering the Year of the French: Irish Folk History and Social Memory. University of Wisconsin Press. 2007. pp.5-14.
4. Фукидид. Истории Пелопоннесской войны. – Москва: АСТ, 2022. 716 с.
5. Фукидид. История. Москва: Азбука, 2021. – С. 324. (800)
6. Тўлепберган Қаипбергенов. Қорақалпоқ достони: уч жилдлик; 3-жилд: Гумроҳлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 475. (480)
7. Баҳодиров Р. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан.-Тошкент: Ўзбекистон, 1995.-Б.14-18.
8. Беруний А. Памятники мишувных поколений (Перевод и примечания М.А.Салье)/ Беруний А. Избранные произведения. Том 1. – Тошкент: Фан, 1957.-С.11-12.
9. Халдун Ибн. Введение // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. – М.,1961. – С.559.
10. Трубина Е. Г. Память коллективная. Современный Философский словарь / Под общ. ред. В. Е. Кемерова. – Москва: Панпринт, 1998. – С. 1064.
11. Грибан И. В. Историческая память как исследовательская проблема: анализ современных подходов. Бюллетень науки и практики. 2016, №1. – С. 336.
12. Kollingvud R. Dzh. Ideya istorii. Avtobiografiya. Moscow, 1980, p. 16. (485)
13. Лоуэнталь Д. Прошлое – чужая страна. Санкт-Петербург: Владимир Даль, 2004. –С. 547. (624)
14. Марк Ферро. Как рассказывают историю детям в разных странах мирао – Москва: Высшая школа, 1992. – С. 305. (310)
15. Assmann, Jan (2008). A. Erll & A. Nünning (ed.). "Communicative and cultural memory". Cultural Memory Studies: An International and Interdisciplinary Handbook: 109-118.
16. Холбоев С. Тарих фанининг методологик асослари ва тамойиллари масаласи (И.Каримов асарлари мисолида) // Ижтимоий фикр. Инсон хукуқлари. 2004. № 1, – Б. 140.
17. Istvan Monok. Identite culturelle, identitenationale: Les bibliothèques institutionnelles en hongrie et en transylvanie au XVIII esiecle. Un’istituzione dei Lumi: la biblioteca: Teoria, gestione e pratiche biblioteconomiche nell’Europa dei Lumi. Parma: Museo Bodoniano, 2013. — p 209. (243)

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Saidova Maftunaxon

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi
“Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi”
kafedrasi tayanch doktoranti (PhD)
e-mail:maftuna.saidova.06.89@mail.ru

SHAXSDA XARIZMA XUSUSIYATLARI VA XARIZMATIK BOSHQARUV NAZARIYALARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshqaruv qobiliyatining muhim elementi ya’ni, shaxsning xarizma xususiyatiga e’tibor qaratilgan. Xarizmatik boshqaruv qibiliyati tarixda ilohiy qobiliyat ya’ni Allohnинг ayrim bandalariga tuhfasi sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtida xarizma, xarizmatik shaxs tushunchalarini ko‘p eshitamiz. Shuningdek xarizmatik boshqaruv qibiliyati davlat boshqaruvida salohiyatlari kadrlar tayyorlash masalasining muhim jihatni sifatida qaraladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yetakchilikni o‘rgangan olimlar nazariyalarida nafaqat xarizmatik shaxs muammosi shuningdek ularning jamiyat hayotiga, ijtimoiy institutlar va tizimlarga ta’siri atroflicha tahlil qilingan. XX asr falsafiy bilimlari doirasida xarizmatik shaxslarni o‘rganish masalasi yanada rivojlangan.

Kalit so‘zlar: xarizma, xarizmatik boshqaruv, xarizmatik shaxs, omma, g‘oya, lider, optimallashtirish, qobiliyat, islohot, hukmdor.

Сайдова Мафтунахон

Академия государственного
управления при Президенте
Республики Узбекистан,
базовый докторант (PhD)
кафедры «Социологии и
психологии управления»
e-mail:maftuna.saidova.06.89@mail.ru

ЧЕРТЫ ХАРИЗМЫ В ЛИЧНОСТИ И ТЕОРИИ ХАРИЗМАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В этой статье основное внимание уделяется такому важному элементу управлеченческих способностей, как харизма личности. Харизматическая способность управлять исторически считалась божественной способностью, то есть данью Аллаха определенным слугам. В настоящее время мы часто слышим понятия харизмы, харизматической личности. Также

харизматическая управленческая компетентность рассматривается как важный аспект вопроса подготовки потенциальных кадров в государственном управлении. В теориях ученых, изучавших лидерство в конце XIX – начале XX века, детально анализировалась не только проблема харизматической личности, но и их влияние на жизнь общества, социальные институты и системы. В рамках философского знания XX века вопрос об изучении харизматических личностей получил дальнейшее развитие.

Ключевые слова: харизма, харизматического управления, харизматичный человек, масса, идея, лидер, оптимизм, жизнеспособность, реформы, правительство.

Saidova Maftunakhan
 Academy of public Administration
 under the President of the Republic
 of Uzbekistan Foundation doctoral
 (PhD) student of the department of «Sociology
 and psiychoogy of managment»
 e-mail:maftuna.saidova.06.89@mail.ru

FEATURES OF CHARISMA IN A PERSON AND CHARISMATIC MANAGEMENT THEORIES

ANNOTATION

This article focuses on the charisma of an individual, and an important element of managerial ability. The ability to charismatic control was historically seen as a divine ability i.e. a gift to some servants of God. Currently, we hear a lot about the concepts of charisma, charismatic personality. Also, the ability to charismatic management is seen as an important aspect of the issue of training potential personnel in public administration. The scientists who studied leadership at the end of the XIX – beginning of the XX centuries analyzed the problem of charismatic personality in details, as well as their influence on the life of society, social institutions and systems. Within the framework of philosophical knowledge of the 20th century, the question of the study of charismatic personalities has developed further.

Key words: charisma, charismatic management, charismatic person, evolution, mass, idea, optimism, ability, reforms, government.

KIRISH

Tarixiy tajribadan ma'lumki, jamiyatda beqarorlik va ijtimoiy inqirozlar davrida butun ijtimoiy tizimga ta'sir qiluvchi tasodify omillarning roli sezilarli darajada oshadi. Ko'pincha, bunday hodisalar u yoki bu shaxsning faoliyati natijasidir. Odatda, jamiyatning bir maromda rivojlanishiga ta'sir o'tkazish oddiy odamlar tomonidan amalga oshirilmaydi, balki uni boshqalardan ajralib turadigan ma'lum bir shaxsiy fazilatlarga ega shaxslar amalga oshiradi. Natijada, tarixning keyingi bosqichi, ana shunday insonlar tomonidan o'zgartiriladi. Shunday ekan jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun bunday odamlarni ijtimoiy jarayonga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Shaxsdagi yetakchilikka oid barcha konsepsiylarda uchta jihat ajralib turadi: odamlar, ta'sir va maqsadlar. Yetakchilik odamlar orasida paydo bo'ladi, ta'sir qilishni anglatadi va maqsadlarga erishish uchun ishlataladi. Ta'sir odamlar o'rtasidagi munosabatlar passiv emasligini anglatadi. Bundan tashqari u ma'lum maqsadlar uchun amalga oshiriladi. Shuning uchun yetakchilik shaxsning o'yangan maqsadlarga erishish uchun boshqa odamlarga ta'sir o'tkazish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Yetakchilik bu – odamlarga ta'sir o'tkazish va kerakli natijaga erishish uchun kuchdan foydalanishi o'z ichiga olgan dinamik jarayondir.

Ommani yoki individni biror fikr, g'oyaning to'g'rilinga ishontirish, muayyan shaxs yoki voqeiylik yuzasidan unda salbiy yoki ijobjiy munosabat uyg'otish hamda o'z maqsadi sari yetaklashda ayrim shaxslar o'zlarining boshqalarda uchramaydigan noyob qobiliyatlaridan samarali foydalanadilar.

Tarixan bunday odamlar sirasiga «Xarizmatik shaxslar» deb nomlangan, oddiy odam nuqtai nazaridan ilohiy deb qabul qilingan g‘ayrioddiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan shaxslar kiritilgan.

METODOLOGIYA

Shaxsdagi yetakchilik qobiliyatini o‘rganishga bo‘lgan intilish qadimgi davrlardan mavjud bo‘lgan. Qadimgi zamон tarixchilar Gerodot, Plutarx, Konfutsiy va boshqalar o‘z davri yetakchilarini monarxlar, lashkarboshilarni tarix ijodkorlari deb ataganlar. Siyosiy yetakchilarni tahlil etishda Sharq allomalaridan: Abu Nasr Farobiy[2], Abu Rayhon Beruniy[3], Nizomulmulk[4], Amir Temur[5], Alisher Navoiy[6], qarashlarida jamiyatning, xalqning holati hukmdorga va jamoaga ta’sir o‘tkaza oladigan shaxslarga bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. A.Navoiy yetakchi hukmdorni dengizga, oddiy xalqni esa undan suv oladigan daryoga qiyos qiladi.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari ham "buyuk shaxslar" g‘oyasining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. N.Makiavelli[7] o‘zining “Hukmdor” asarida ma’lum va mashhur shaxslar, hukmdorlar va davlat arboblari hayotini tahlil qilgan. Taniqli shaxslar muammolarini, ularning tarixdagi rollarini o‘rgangan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yetakchilikni o‘rgangan olimlar nazariyalarida nafaqat xarizmatik shaxs muammosi shuningdek ularning jamiyat hayotiga, ijtimoiy institutlar va tizimlarga ta’siri atroflicha tahlil qilingan.

XX asr falsafiy bilimlari doirasida xarizmatik shaxslarni o‘rganish muammosi yanada rivojlandi. G. Spenser, Ch. Lombrozo, T. Karleylya, F.Galton, G.Tard va G. Lebon kabi olimlar jamiyatni boshqaruvchi shaxslarga oid o‘zlarining ko‘plab asarlarini yaratdilar.

ASOSIY QISM

Ko‘plab tadqiqotlar yetakchilik qobiliyati odamlarni odatdagidan samaraliroq ishlashi va rag‘batlantirishi mumkinligini isbotlagan. Zamonaviy davlat boshqaruvida xarizmatik rahbar muammosini tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi. Sababi xarizmatik rahbar ishdagi qiyinchilik va hatto yo‘qotishlarga qaramay, qo‘l ostidagi odamlarni ishning natijadorligi odatdagidan yuqori bo‘lgan faoliyatga ilhomlantirishi va rag‘batlantirishi mumkin. Bunday yetakchining izdoshlari bo‘lim yoki tashkilotning manfaatlarini o‘z manfaatidan ustun qo‘yadi.

Aslida xarizma jamiyat uchun foydali xususiyat, lekin ana shu foydaga erishish uchun ham xarizmatik shaxs tomonidan boshqa odamlarni yo‘ldan ozdirish va manipulyatsiya qilish kabi xudbin maqsadlar uchun ham ishlatalishi mumkin. Xarizmatik rahbarning asosiy xususiyatlaridan biri, boshqalar xavfli to‘siqlarni, yo‘qotishlar ehtimolini ko‘rgan joyda u imkoniyat va umidni ko‘ra oladi.

Xarizmatik rahbar odatda kelajak haqida kuchli tasavvurga ega bo‘ladi. Shuningdek bunday rahbar bo‘ysunuvchilarga hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtida "xarizma", "xarizmatik shaxs" tushunchalari jamiyat hayotining turli jabhalarida keng qo‘llanila boshladи.

XARIZMA (yun. charisma — muruvvat, ilohiy qobiliyat) — biror shaxsning boshqalarga nisbatan alohida xususiyatlarga egaligi (donoligi, qahramonligi, avliyoligi) va shu xususiyat yordamida xalqni boshqarishga haqli ekanligini ifodalaydigan tushuncha.

Xarizma tushunchasini ilk bor italiyalik ruhoniy St. Paul mo‘jizaviy qobiliyatga ega bo‘lgan Iso payg‘ambarga nisbatan ishlatgan. Ammo xarizmani ilmiy tushuncha sifatida M. Veber chuqur tadqiq qilib, uni «xudo bergen ne’mat» deb nomlagan.

Qadimgi davrlarda faqat ilohiy mazmunga ega bo‘lgan tushuncha vaqt o‘tishi bilan olimlar tomonidan real hayotga tatbiq etila borib, ilohiy qobiliyatga ega bo‘limgan, ammo alohida xususiyatlarga, yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan yetakchi tarixiy shaxslarga nisbatan ham ishlatila boshlangan [1].

Ernest Trelch (1865-1923) va Maksimilian Karl Emil Veber (Maks Veber) (1864-1920) "xarizma" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdilar. M. Veber o‘zining "xo‘jalik va jamiyat"[8] asarini hokimiyat va hukmronlik muammolariga bag‘ishlab shaxslar-aro "dominantlik" tushunchasini kiritgan. Shuningdek u o‘z asarida boshqaruvning uch turini izohlaydi: an‘anaviy, qonuniy va xarizmatik.

- Birinchisi azaliy an'analarning muqaddasligiga ishonish va hokimiyat egasi maqomining qonuniyligi. Ushbu yondashuv negizida jamiyatning boshqa a'zolari hokimiyat egasiga bo'ysunishi tushuniladi.

- Qonuniy kuch bu yakka shaxsning yoki bir guruh a'zolarining kuchi qonunga muvofiq ma'lum bir maqomni egallaganliklarini anglatadi.

Veber tomonidan qo'llanilgan "Xarizma" atamasi yetakchi shaxsning hamfikrlari va tarafdorlari tomonidan o'ziga xos xususiyat va fazilatlarga ega shaxs sifatida qabul qilinishi va baholanishiga asoslangan ta'sir mexanizmidir. Veberning fikriga ko'ra, xarizma turli xil ijtimoiy va siyosiy inqirozlar davrida o'zini namoyon qiladi. Bunday vaziyatlarda taniqli, atrofdagilarga ta'sir o'tkaza oladigan shaxs inqiroz holatini tubdan va samarali hal qilishni taklif qiladi. U vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zi tomonidan taqdim etilgan kafolatlarga ishonadigan va uni barqaror shaxs deb biladigan izdoshlar va tarafdorlarni jalb qiladi.

Shuningdek, M.Veber shaxsda xarizmatik qobiliyat namoyon bo'lishining sabablari va oqibatlarini, jamiyat a'zolarining qolgan qismi bilan munosabatlarni o'rgangan. Veberning ta'rifiiga ko'ra, xarizma o'rnatilgan buyruqlar, an'analar, me'yorlar, va qoidalarni parchalab yuborish xususiyatiga ega.

Strukturali va funksional yondashuv klassik olimlari (R. Merton, T. Parsons) xarizmatik shaxsni jamiyat muxofazachi sifatida o'rganganlar. Ularning qarashlariga ommaviy talofat yoki hukumatning ayrim qat'iy qarorlaridan aziyat chekayotgan xalqni qo'llaydigan lider shaxslar vaziyati misol bo'ladi.

Shuningdek fransuz tadqiqotchisi S.Moskovichi M.Veber konsepsiyasini tahlil qilar ekan, xarizmatikaga ishonch yo'qolsa xarizmaning ta'siri zaiflashadi deb ta'rif bergan. S.Moskavichi xarizmani g'ayritabiyy kuch sifatida ta'kidlaydi. Uning fikricha sayyoralar o'z orbitasida harakatlangani kabi xarizma ham o'z ovoziga ergashadi.

Xarizmatik boshqaruvchi atrofida "tarafdarlar" guruhi shakllanadi, ularning ba'zilarini rahbarning jozibasi o'ziga jalb qilsa, boshqalari esa moddiy manfaatlarni qidiradi. Bu yerda hamma narsa izdoshning shaxsiyatiga, uning taklifchanligiga, ta'sirga moyilligiga, shuningdek, rahbarning aktyorlik mahoratiga va odamlarning ehtiyojlarini tushunishiga bog'liq.

S.Moskovichi xarizma nafaqat tug'ma, balki uni tajriba tufayli shakllantirish imkoniyatiga ham ishora qiladi. S.Moskovichi ta'rifiiga ko'ra xarizma mavjud ijtimoiy tuzilmalar buzilishi, qadriyatlarning kuchsizlanishidan so'ng paydo bo'ladi va voqealar rivojini o'zgartiradi. Ommaga atrofdagi hamma narsa tubdan o'zgarayotgandek ko'rindi. Yovuz kuchlar ularni yakson qilish bilan tahdid qilmoqda, olomonni kurashishga toqati qolmagan, ular murosaga va muammolarini bir zarba bilan hal qilishga moyildirlar. Omma o'zi sezmagan holda voqealar rivojiga ta'sirini o'tkaza oladigan shaxs qidirmoqda, ana shunday vaziyatda xarizmatik shaxslar omma ehtiyojini qondiradi [9].

Fikrimizcha S.Moskovichining xarizmatik shaxs haqidagi nazariyalari tarixiy xarizmatik shaxslarga ishora qiladi desask mubolag'a bo'lmaydi.

Fransuz siyosatchisi Jan Blondel xarizmatik qobiliyat mustaqil ravishda shakllanishi mumkin bo'lgan sifat degan ta'rifi bergan [10].

J.Blondelning tarifi xarizma tug'ma yoki tangrining tuhfasi kabi yuqorida keltirib o'tilgan nazariyalarni inkor etib, xarizmani inson yillar davomida tajriba orttirish orqali o'zlashtirishi mumkin degan xulosani bermoqda.

E. Vilnerning ta'kidlashicha, xarizmatik boshqaruv ro'y berishi mumkin bo'lgan tub o'zgarishlarni o'qiy oladigan va ommaning "nozik nuqtalari" ni topa oladigan odamlar tomonidan amalga oshiriladi, buning natijasida ularni yangi tartib yaratishga undash mumkin [11]. Ushbu nuqtai nazarni xarizmatik shaxslarning oldindan ko'ra bilish va jamoaviy ongni boshqarish qobiliyatları qo'l kelishi bilan izohlashimiz mumkin.

U. Fridlendga ko'ra [12], shaxsda "xarizma" paydo bo'lishi xarizmatik shaxs mayjud bo'lgan madaniyatning mahsulidir. Shu bilan birga, xarizmani amalga oshirish uchun rahbar tomonidan ilgari surilgan g'oya ijtimoiy kontekst bilan bog'liq bo'lishi kerak.

E. Shils xarizmani "buyurtma zarurati funksiyasi" deb hisoblaydi [13]. Bu nafaqat ijtimoiy tartibni buzadi, balki uni saqlab, himoyalaydi. Fikrimizcha ushbu qarash xarizmaning plyuralistik

kontseptsiyasiga asoslanib, xarizmani g‘ayrioddiy hodisa sifatida tushunishga yondashuvni xarizma odatiy kundalik hodisa degan taxmin bilan birlashtiradi.

Shuningdek, psixologik nazariyalarda rahbar shaxsining psixologik va patologik xususiyatlarini tahlil qilish keng tarqaldi va xarizma paydo bo‘lishining sabablari odamlarning nevrotik tendensiyalari, ommaviy psixozlarning shakllanishi va qo‘rquvlarning tipida namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga E.Frommning [14] xarizmaga oid qarashlarini misol qilib keltirish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy jamiyatda «haqiqiy xarizma» ning paydo bo‘lishi mumkin emas, aksincha, xarizma ataylab siyosiy maqsadlar uchun yaratilgan degan qarashlar ham mavjud. K. Levenshteyn xarizma g‘ayritabiyy qobiliyatlarga ishonishni anglatadi, zamonaviy jamiyat esa bunday qarashlardan mustasno, deb hisoblaydi.

R. Ling ommaviy axborot vositalarida xarizma muammosini ochib berib, «sintetik xarizma» tushunchasini yaratdi. Sintetik va sun’iy xarizma o‘rtasidagi farq shundaki, tushunchalarning birinchisi xarizmani media vositasi sifatida tushunishni anglatadi. Sintetik xarizma jamiyatning saylov kampaniyasi va boshqalardan foyda ko‘radiganlarga bo‘linishiga asoslangan.

Xarizmatik nazariyalar orasida rahbar shaxsning xarizmatik xususiyatlariga oid «Xaus nazariyasi» a‘lovida o‘rin tutadi. Robert Xaus nazariyasi rahbarning xususiyatlarini, uning xatti-harakatlarini va xarizma namoyon bo‘lishiga hissa qo‘shadigan vaziyatlarni o‘rganadi. Diniy va siyosiy sohalardagi rahbarlarni tahlil qilish natijasida Xaus xarizmatik rahbarning xususiyatlarini tasnifladi, :

1. Quvvatga ehtiyoj;
2. O‘ziga ishonch;
3. O‘z g‘oyalariga ishonch [15].

Inson mavjud ekan hamma zamonalarda jamoa bilan birlashishga doim o‘zida ehtiyoj sezadi. Lekin jamiyat taraqqiyotida birlashishga intilish mazmunan bir xil bo‘lmagan. Yaqin va uzoq tarix guvohlik beradiki, jamoaviy fikrni chalg‘itish va soxta va’dalar berish hisobiga odamlarni birlashtirishga erishgan johil “daho”lar xalqlar va insoniyat boshiga qanchadan-qancha kulfat yog‘dirgan. Shu bois, birlashish g‘oyasi nechog‘liq ezgu va umuminsoniy qadriyatlar bilan sug‘orilgani juda muhim [16].

Xarizmaning mazmun mohiyatini yanada to‘laqonli ochib berish uchun dunyo bo‘ylab insoniyatni o‘z shaxsiyatiga jalb qila oladigan tarixiy, xarizmatik timsollarning misollarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Dastlab xarizmaning asl davogarlari sifatida dunyo dinlari payg‘ambarlarini e’tirof etish o‘rinlidir. Sababi xarizma atamasi dastlab diniy nuqtai nazardan qo‘llanilgan. M. Veber bu atamani diniy bilimlar chegarasidan olib chiqqach sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida ham o‘rganila boshladi.

Payg‘ambarlar (fors. — xabar keltiruvchi) — iudaizm, xristianlik va islomda xudodan vahiy olgan va uni odamlarga yetkazadigan shaxs. Xudo bilan uning bandalari o‘rtasidagi vositachi, xudoning yerdagi vakili, elchisi hisoblanadi. Payg‘ambarlar kelajakni biladigan, diniy va tarixiy voqealarni, biror odamning taqdirini oldindan aytib beradigan shaxs sifatida tasavvur qilinadi [17].

Diniy manbalarda payg‘ambarlarning aniq soni keltirib o‘tilmagan. Ayrim manbalarda ular 124 ming nafar deyilsa, islom dinining muqaddas kitobi Quroni karimda 25 nafar payg‘ambarning ismlari zikr etilgan. Iudaizm va xristianlik dinining muqaddas kitoblari Injil va Tavrotda ham aksariyat payg‘ambarlar nomlari bayon etilgan.

Barcha payg‘ambarlar Allohning nazdida teng bo‘lib, ularning vazifasi insoniyatni isloh va tarbiya etish, insonlarga odob-axloqda, e’tiqodda o‘rnak bo‘lish hisoblangan. Hech bir shaxs payg‘ambarlik maqomiga o‘zining salohiyati, bilimi bilan erisha olmaydi. Payg‘ambarlik Allox tomonidan loyiq ko‘rilgan bandasiga buyurilgan

Isroil qavmiga payg‘ambarlik qilishi buyurilgan Muso(a.s) o‘ziga nozil etilgan muqaddas kitob Tavrot ahkomlari va noyob xarizmatik qobiliyati orqali odamlarni birlashtiradi. Misr podshohi Firavnning zulmidan Isroil qavmini ozod qiladi. Zero Muso (a.s)davrida Firavn Ramsis II xudolikni da’vat etib, xalqni boshiga ko‘p zulm va musibatlar yog‘dirgani tarixiy manbalarda bayon etilgan.

Muso(a.s)dan keyin Falastinda davlat qurishga erishgan Isroil o‘g‘illari qisqa vaqt ichida inqirozga uchradilar. Ular dinlarini ham axloqlarini ham saqlab qola olmadi. Alloh tomonidan Inom etilgan muqaddas kitoblari “Tavrot” mazmuni odamlar tomonidan o‘z maqsadlari sari bir necha bor o‘zgartirildi. Natijada 3xildagi: ibroniy, yunoniy, va samariy Tavrot deb ataladigan kitoblar paydo bo‘ldi. Tavrotning asl qiyofasi qo‘pol tarzda o‘zgartirildi va ilohiy kitob sifatini yo‘qotdi.

Shuningdek xarizmaning yaqqol namoyondalaridan yana bir payg‘ambar “Bani isroil” qavmini yaxshilik yo‘liga boshlashi uchun payg‘ambarlik maqomi in’om etilgan Iso Masih bo‘lib, keyinchalik xristianlik diniga asos soladi. U odamlarni noto‘g‘ri yo‘llardan qaytarib, halol va haromning mazmunini tushuntiradi. Bokira qiz Maryamdan tug‘ilgan Iso(a.s)ni xristian cherkovlarining aksariyati xudo — odam sifatini berib ulug‘laydi.

Lekin hamma jamiyatlarda bo‘lgani kabi yovuzlik va zulm Iso(a.s)ni ham ta’qib etadi. Uning izdoshlari juda ozchilik bo‘lib, yahudiylar va butparastlarning zulmidan aziyat chekishgan. Shu sababli barcha izdoshlari har tarafga tarqalib ketishdi. Natijada Iso(a.s) ga vahiy bo‘lgan ilohiy “Injil” saqlanib qolmadi. Injil o‘rniga Iso Masih hayotiga doir bir necha kitoblar yozilib, bu kitoblar Injil deb yuritila boshladi. Hazrati Iso (a.s)dan keyin u keltirgan din ya’ni xristianlik asl mohiyatini yo‘qotib, bu dinga qadimgi yunon va rimliklarning butparastlik g‘oyalari qo‘shilib ketdi.

Muhammad ibn Abdulloh — islom dini va bиринчи musulmonlar jamoasi asoschisi. Musulmonlar e’tiqodiga ko‘ra, VII asr Arabiston yarim orolida gunoh va ma’siyat avj olgan, halol va haromning farqi qolmagan johiliya davrida Allox bandalari munkar ishlardan qaytib, to‘g‘ri yo‘lni topishlari uchun xizmat qilgan oxirgi payg‘ambari va uning elchisidir. Muhammad (a.s) orqali odamlarga muqaddas kitob “Quroni karim” nozil etilgan. Islom dini e’tiqodiga ko‘ra Muhammad (a.s) inson erisha oladigan eng yuksak axloq qanday bo‘lishi lozimligini butun insoniyatga shaxsan yashab ko‘rsatgan komil inson hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib aytish mumkinki, xarizmatik boshqaruv jamoatchilik uchun eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda o‘z ifodasini topadi va xarizmatik shaxs boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik manfaatini inobatga olib ish tutishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Zamonaviy jamiyatda yetakchi shaxslar o‘zlarining kuchli tomonlarini anglagan holda, takomillashib boradilar. Kuchli tomonlari bu o‘rgangan bilim, malakalari natijalar orqali qo‘llab – quvvatlanadigan va har bir shaxsga yangi imkoniyatlarga erishish va qoniqish hosil qilishi uchun eng yaxshi vositalarni taqdim etadigan tabiiy iste’dod va qobiliyatlardir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xarizmatik yetakchilik yangi qarashlar, o‘zgaruvchanlik va ijodkorlikni o‘zida namoyon etadi. Shuningdek, u samarasiz, eskirgan va jamiyatda omma noroziligiga sabab bo‘layotgan ayrim me’yorlarni bugungi zamon talablariga mos holatdagi vositalar bilan almashtirish yo‘llarini izlab topadi va xarizmatik yetakchilik hukmron yetakchining qudratiga nisbatan ommaning cheksiz ishonchiga asoslangandir.

Hozirgi zamon rivojlangan jahon mamlakatlari tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki davlat boshqaruvini optimallashtirish shuningdek jamoatchilik ongini shakllantirishda yuqori bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy axborot texnologiyasini egallagan, boshqaruv fani asoslarini yaxshi biladigan yangi tipdagи xarizmatik qobiliyatga ega liderlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero mamlakatda tub ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy islohotlar sari o‘zgarishlar yasashga xarizmatik shaxslarning salohiyati va boshqaruv qobiliyatidan foydalanish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyasining asosini hamkorlik asosidagi boshqaruv tizimi tashkil etar ekan, o‘zaro manfaatlar uchun g‘oyalar va manbalarni baham ko‘rish kutilgan natijalarning kafolatidir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 74-бет.
2. Абу Наср Фаробий . Фозил одамлар шахри. – Тошкент.: Янги авлод нашриёти, 2016.
3. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Янги авлод нашриёти, 2016.

-
4. Низомулмулк Сиёсатнома. – Тошкент: Янги авлод нашриёти, 2016.
 5. Амир Темур Темур тузуклари / www.ziyo.com.Kutubxonasi
 6. Ҳаққул И. Навоийни англаш. – Тошкент: Фан, 2007.
 7. Макиавелли Н. Государь. – М.: Планета, 1990.
 8. Вебер М. Хозяйство и общество. Очерки понимающей социологии. – М., 2016.
 9. Московичи С. Век Толп. Исторический трактат по психологии масс. – Москва: Центр психологии и психотерапии, 1996.
 10. Жан Блондель Политическая лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. – М. 1992.
 11. Willner A. The spellbinders: charismatic political leadership. – L., 1984.
 12. Friedland W. For a sociological concept of charisma // Social forces. 1964. Vol. 43. № 112.
 13. Shils E. The constitution of society. – Chicago, 1982.
 14. Фромм Э. Бегство от свободы. – М.: Прогресс, 1989. – С. 271.
 15. Robert J. House. A Theory of Charismatic Leadership in Hunt and Larson (eds.), Leadership: The Cutting Edge, 1976. pp. 189-207.
 16. Бекмуродов М.Б. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри ҳақида // Янги Ўзбекистон, 2022, 10-март.
 17. <http://qomus.info>.

ИЖТИМОЙ ТАДКИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000